


JAHON TARIXI

101
37138
3

8



BBK 63.3(0)SE
J 96

2022 Maxon - Paris

Mas'ul muharrir:

E.X. Xoliqov – tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar: *A. Hazratqulov – tarix fanlari doktori, professor*

S. Mirzaxo'jayev – tarix fanlari nomzodi

N. Mustafoyeva – tarix fanlari nomzodi

S. Mahkamov – pedagogika fanlari nomzodi

Belgilar mazmuni



Matning boshlanishi.



Yodda tuting.

10 37138
391



Eslang.



Qo'shimcha ma'lumotlar.



Atamalar mazmunini bilib oling.




Savol va topshiriqlar.

«Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijara uchun chop etildi».

J 4306020600 – 34 — 2010
360 (04) – 2010

ISBN 978-9943-05-343-4



© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006- y.
© Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010- y.

KIRISH: «YANGI TARIX»NING BOSHLANISHI



«Yangi tarix» tushunchasi haqida. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov o‘zining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida “O‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unitgan mitlatning kelajagi yo‘q”, – deb ta’kidlashi bilan birga har qanday inson jahon tarixini, umumbashariy taraqqiyot yo‘lini chuqur idrok etishi zarurligini ham uqtirganlar. Darhaqiqat, mustaqillik sharofati bilan biz jahon tarixini haqqoniy o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Siz aziz o‘quvchilarga jahon tarixini o‘rganishdek qiziqarli va murakkab faoliyatda qunt va zukkolik hamrohingiz bo‘lishini tilaymiz.

Siz VII sinf «Jahon tarixi» darsligi orqali xorij davlatlarining V–XV asrlar tarixini o‘rgangan edingiz. Ayni paytda bu asrlarning «O‘rta asrlar» deb atalishini ham bilib olgansiz.

Qo‘lingizdagi VIII sinf «Jahon tarixi» darsligi Sizni xorij davlatlarining XVI–XIX asri 60- yillari tarixi bilan tanishtiradi. Olimlar insoniyatning XVI asrdan boshlanadigan tarixiga «Yangi tarix» deb nom berganlar. Xo‘sh, nega? Buning sababi shuki, XVI asr insoniyat tarixida yangi jamiyat – kapitalizm deb atalgan jamiyatga asos soldi.

Bu jamiyatning dastlab G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada qaror topa borish jarayoni XVI–XIX asrlarni o‘z ichiga oladi.



Kapitalizm – jamiyatning xususiy mulk, bazar iqtisodiyoti va demokratik tartiblarga asoslangan shakli.

Bu jamiyatning nomi «*kapital*» so‘zidan olingan. Kapital – o‘z egasiga daromad keltiruvchi xususiy mulk va mablag‘, o‘zini-o‘zi ko‘paytiruvchi sarmoyadir. Bu sarmoyaning asosida erkin tadbirkorlik faoliyati yotadi.

Kapitalizm Siz VII sinfda bilib olgan feodal jamiyatidan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi? Tub farq bu – jamiyatning kishilarga xususiy

mulkdan va yollanma mehnatdan foydalanishda keng erkinlik berganligidir. Agar oʻrta asr feodal jamiyatida kishi kishiga qonun bilan majburlab bogʻlab qoʻyilgan boʻlsa, kapitalizm davrida barcha fuqarolar qonun jihatidan rasman erkin boʻlganlar. Ayni paytda, bu jamiyat insonning qobiliyati, salohiyati, gʻayrati va shijoatiga katta yoʻl ochgan jamiyat hamdir.

Shu sababli kapitalizm insoniyat tarixida misli koʻrilmagan kashfiyotlar va ixtirolar davri ham boʻldi.

Kapitalizm davrida kishilar motor, mashina, paroxod, parovoz, temir- yoʻl, dizel, martin pechi va boshqalarni kashf etdilar. Aviatsiya, telegraf, telefon, televideniye, radioni oʻylab topdilar. Yer yuzini elektr chiroqlari bilan yoritish boshlandi. Yangi-yangi energiya manbalari yaratildi. (Bular haqida 9- sinfda maʼlumot olasiz). Yangi jamiyat – kapitalizm dastlab Gʻarbiy Yevropada, keyinroq esa Shimoliy Amerikada qaror topdi.

Kapitalizm jamiyati keyinchalik industriyal jamiyat deb ham atala boshlandi.

Industrial jamiyat – bu, kapitalizmning rivojlangan bosqichidir.

Osiyoda yangi jamiyat shakllanishining oʻziga xos xususiyatlari. Osiyoda yangi jamiyatning qaror topishi nihoyatda uzoq davrni qamrab oldi. Buning asosiy sababi, Osiyoda anʼanaviy jamiyat hukm surganligi edi.

Xoʻsh, anʼanaviy jamiyat qanday jamiyat edi? Anʼanaviy jamiyat – mulkchilik, ishlab chiqarish hamda taqsimot shakllari qatʼiy belgilab qoʻyiladigan, oʻzgarmas, turgʻun jamiyatdir.

Deyarli butun Osiyoda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham Yevropa va Shimoliy Amerikada kapitalizm gurkirab rivojlanayotgan bir paytda, oʻrta asrlarning mahsuli boʻlgan anʼanaviy jamiyat hukm suraverdi.

Xoʻsh, nega shunday boʻldi?

Avvalo, Osiyoda Yevropadagidek yerga toʻla xususiy mulkchilik qaror topmadi. Yevropada feodal jamiyatining ilk bosqichidayoq yer mulkdorlar oʻrtasida toʻla taqsimlanib boʻlingan edi. Dehqonlar esa oʻsha yer egalariga biriktirib qoʻyilgan. Bunday dehqonlar, Siz VII sinf «Jahon tarixi» darsligidan bilib olganingizdek, krepostnoy dehqonlar deb atalgan.

Osiyoda esa mulk barcha merosxoʻrlar oʻrtasida taqsimlangan. Chunki, jamiyatdagi huquqiy va axloqiy meʼyorlar mayda va jamoa

mulkchiligini himoya qilardi. Bu qoida ishlab chiqarishning yiriklashuviga, daromadning bir qo'lda to'planishiga imkon bermagan.

Yerga xususiy mulkning to'la qaror topmaganligi mulkchilikning boshqa sohalariga ham ta'sir o'tkazgan. Chunonchi, Osiyoda hunarmandchilik fabrika ishlab chiqarishi darajasiga ko'tarila olmagan. Aksincha, u asosan, erkin oilaviy sharoitda rivojlangan. Natijada Yevropadagidek mashina kuchidan foydalaniladigan sanoat ishlab chiqarishi vujudga kelmagan.

Yevropada kuchli mulkiy tabaqalanish o'zaro begonalashishni, shaxsiy manfaatni ustun qo'yishni, yashash uchun shafqatsiz kurash sharoitiga moslashishni vujudga keltirgan bir sharoitda, an'anaviylik Osiyoda shaxs tashabbuskorligini rag'batlantirmagan. Bu omillar Osiyoda o'rta asr tartiblarining uzoq saqlanib qolishiga olib kelgan.

Odanzod insoniyatning butun tarixi davomida yaratgan moddiy va ma'naviy boyligining 90 foizini atigi keyingi 5 asr (XVI–XX asrlar) mobaynida yaratdi. To'g'ri, bunga osonlikcha erishilgani yo'q. Kapitalizm, ayni paytda cheksiz ekspluatatsiya hukm surgan, rivojlangan davlatlarning o'zga kuchsiz mamlakatlarni ayovsiz talashi, millionlab kishilarning yostig'ini quritgan jahon urushlari manbai ham bo'lganligiga tarix guvoh.

Lekin oxir-oqibatda kapitalizmning bunyodkorlik xislati uning vayronalar keltirgan xislatlaridan ustun bo'lib chiqdi. Butun o'tgan tarix buni tasdiqlaydi.

Yangi tarix. Yangi tarix, o'z navbatida, ikki davrga bo'lib o'rganiladi. Birinchi davr XVI–XIX asr 60-yillarini, ikkinchi davri esa XIX asrning 70-yillaridan XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Siz 8-sinfda XVI–XIX asrning 60-yillari tarixini o'rganasiz.

Yangi tarix birinchi davri, o'z navbatida, ikki bosqichga bo'linadi. Uning birinchi bosqichi XVI–XVIII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu bosqichida G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada yangi jamiyat – kapitalizmning vujudga kelishi uchun zarur shart-sharoitlar shakllandi. Shuningdek, bu jamiyatning qaror topishiga olib kelgan inqiloblar ro'y berdi.

Dastlab G'arbiy Yevropada (Angliya, undan keyin Fransiyada) va Shimoliy Amerikada (Amerika Qo'shma Shtatlarida) sanoat o'ntarishi amalga oshirildi. Ya'ni, manufaktura ishlab chiqarishdan texnika ixtirolari

keng qo'llaniladigan fabrika va zavod ishlab chiqarishiga o'tildi. Oqibatda, qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura ishlab chiqarishi o'rmini mashinalar ishlab chiqarishi **egalladi**. Ishlab chiqarishda mashina (texnika)dan keng foydalanish, o'z navbatida, mehnat unumdorligining bir necha o'n, yuz barobar o'sishini ta'minladi. Bu hodisa kapitalizmning tez sur'atlar bilan rivojlanishiga olib keldi.

Ikkinchi bosqich XIX asrdan shu asrning 60-yillari oxirigacha bo'lgan davrni qamrab oladi.

Yangi tarix birinchi davrining ikkinchi bosqichida Yevropa va Amerika Qo'shma Shtatlarida sanoat to'ntarishi nihoyasiga yetdi. Bu texnika yordamida yangi texnika yaratishga o'tish boshlandi, degani edi.



I BO'LIM

XVI–XVIII ASRLARDA YEVROPA, AMERIKA VA OSIYO DAVLATLARI

I BOB. YEVROPA VA AMERIKA DAVLATLARI

1-§. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati



«Buyuk geografik kashfiyotlar» atamasi haqida. Buyuk geografik kashfiyotlar atamasi XV asr oxiri – XVII asr o'rtalarida yevropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan yirik geografik kashfiyotlarga nisbatan ishlatiladi. Geografik kashfiyotlar esa odamlar uchun shu vaqtgacha noma'lum bo'lgan yangi yerlarning qidirib topilishidir. Xo'sh, qanday omillar XV asr oxiridan boshlab buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishiga sabab bo'lgan edi?

*Birinchi*dan, XV asr oxiri – XVI asr boshlariga kelganda Yevropada tovar ishlab **chiqarish** yuqori sur'atlarda o'ssa boshladi. Bu esa **xomashyoga bo'lgan talab** oshirib yubordi. Yevropaning o'zida xomashyo kam bo'lganligi uchun uni faqat boshqa o'lkalardan olib kelish zaruratga aylandi.

*Ikkinchi*dan, yangi davr **hukmron tabaqalarning boylikka** pulga bo'lgan ehtiyojini yanada orttirib yubordi. Endi ularning ongini o'zga yurtlarning oltin-kumushlarini va boshqa qimmatbaho boyliklarini egallab olish ishtiyoqi chulg'ab oldi.

Uchinchidan, quruqlikdan va O'rtta Yer dengizidan o'tadigan savdo yo'llari, shu jumladan Buyuk Ipak yo'li ham xavfli bo'tib qoldi. Bu yo'llar ustidan nazorat Yevropa mamlakatlarining asosiy raqibi Usmonli turklar saltanati qo'lga o'tib ketdi. Binobarin, endi yevropaliklar oldida yangi dengiz savdo yo'llarini ochish tarixiy zaruratga aylandi. Dengiz savdo yo'llarini ochishga imkon beruvchi zamonaviy kemalar va harbiy qurollar mavjud edi. Bundan tashqari, dengizda kompasdan foydalanish, astrolyabiya ixtiro qilinganligi ham katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Buyuk geografik kashfiyotlarning boshlanishi. Buyuk geografik kashfiyotlarning tashabbuskorlari Portugaliya va Ispaniya dengiz sayyohlari bo'lishdi. Tabiiyki, buyuk geografik kashfiyotlarni dovyurak dengizchi-sayyohlarga amalga oshira olar edilar. Shunday dengiz sayyohlaridan biri admiral Xristofor Kolumb (1451–1506) edi. U o'z oldiga Hindistonga Atlantika okeani orqali boradigan yo'l ochishni maqsad qilib qo'ydi. Dengiz sayohatini amalga oshirishga birgina dovyuraklik kamlik qilardi, albatta. Buning uchun ilm-fan yutuqlariga ham tayanish, ulardan amalda foydalana bilish ham zarur edi. Bu o'rinda italiyalik olim P. Toskanelli yerning dumaloqligi haqidagi ta'limotdan kelib chiqib, dunyo xaritasini yaratganligi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu xaritada Osiyo qit'asi qirg'oqlari Atlantika okeanining g'arbiy sohillarida ekanligi belgilangan edi. Shu tufayli P. Toskanelli Yevropa qirg'oqlaridan G'arb tomonga suzib Hindistonga borish mumkin, deb ishonardi. Kishilardagi tadbirkorlik ruhi, kapital

jang'arishga intilish, insonning imkoniyatlariga ishonch tuyg'usi eng dadil rejalarni ham amalga oshiradigan qilib qo'ydi. Shu tariqa Hindistonga boradigan yangi yo'l topish yevropaliklar uchun hayotiy zaruratga aylangani buyuk geografik kashfiyotlarning amalga oshirilishini muqarrar qilib qo'ydi.

Nihoyat, 1492- yilda X. Kolumb Ispaniya qirollik oilasi bilan Hindiston sari suv yo'li ochishga xizmat qiluvchi ekspeditsiyani boshlash haqida shart-noma tuzishga muvaffaq bo'ldi.



1- rasm. Xristofor Kolumb.

Shartnomaga ko'ra, qirol ekspeditsiyaning pul ta'minotini o'z bo'yiga oldi. Ayni paytda X. Kolumb yangi ochiladigan yerlarning vitse-qirolini etib tayinlanadigan bo'ldi. Shuningdek, X. Kolumb yangi ochiladigan yerlardan olinadigan daromadning 1/10 qismiga yangi yerlar bilan olib boriladigan savdodan tushadigan daromadning esa 1/8 qismiga egalik ham qilar edi. X. Kolumb 1492- yilning 6- avgust kuni 3 ta kemada 90 kishilik dengizchi bilan birinchi ekspeditsiyasini boshladi.

Amerikaning kashf etilishi. X. Kolumb ekspeditsiyasi 12- oktabr kuni Amerika qit'asidagi San-Salvador («Muqaddas xaloskor») oroli (hozirgi Bagama orollari davlati hududidagi orol)ga kelib tushdi. Shu tariqa Hindistonga olib boradigan suv yo'li ochish maqsadida uyushtirilgan ekspeditsiya Amerikaning kashf etilishiga olib keldi. Bu dunyo xaritasini tuzgan XV asr olimlarining, xususan, P. Toskanellining xatosi oqibati edi. Chunki P. Toskanelli yerning ekvator bo'ylab uzunligini aniqlashda 12 ming kilometr ga adashgan edi. Keyinchalik olimlar bu xatoni Buyuk kashfiyotga olib kelgan buyuk xato, deb atadilar.



1492- yil 12- oktabr Amerika qit'asining rasman kashf etilgan kuni hisoblanadi.

Biroq X. Kolumb 1492- yilda Hindistonga emas, Amerikaga kelib qolganligini anglamagan. U Hindistonga keldim, deb hisoblar edi. Shuning uchun ham X. Kolumb aslida Amerikaning mahalliy aholisini hindular deb atagan. X. Kolumb Hindistonga (aslida Amerikaga) 4 marta ekspeditsiya uyushtirgan. Bu ekspeditsiyalar natijasida juda katta hududlar ochilgan va u yerlarda Ispaniya bayrog'i hilpiray boshlagan. Shu tariqa bu hududlar Ispaniya mulkiga aylangan. X. Kolumb esa o'sha yerlarning vitse-qirolini etib tayinlangan. X. Kolumbning kashfiyotlari yangi yerlarni Ispaniya mustamlakalariga aylantirish bilan birgalikda amalga oshirilgan. Yangi qit'aning Kolumbiya deb emas, Amerika deb atalishi Italiya dengizchisi va astronomi Amerigo Vespuchchi (1454–1512) nomi bilan bog'liq. A. Vespuchchi Ispaniya va Portugaliya flotida xizmat qilgan. U 1499–1501- yillarda portugaliyaliklar ekspeditsiyasi tarkibida Braziliya qirg'oqlarini tadqiq etdi. Buning natijasida, Kolumb ochgan yerlar Hindiston emas, yangi qit'a, degan xulosaga keldi. U keyinchalik o'zining nomi bilan atalgan qit'aga «Yangi Dunyo» deb nom berdi. 1507- yilda xaritashunos olim

M.Valdzemyuller Kolumb kashf etgan yangi qit'ani Amerigo Vespuchchi sharafiga Amerika deb atashni taklif etgan. Bu nom hammaga manzur bo'lgan. 1515- yilda Yangi Dunyo «Amerika» deb atalgan birinchi globus Germaniyada yaratildi. 1569- yildan esa boshqa xaritalarda ham Kolumb kashf etgan yerlar «Amerika» deb yoziladigan bo'ldi.

Keyingi kashfiyotlar. Atlantika okeani orqali Hindistonga boriladigan dengiz yo'li 1498- yilda kashf etildi. Bu kashfiyotni portugaliyalik dengiz sayyohi Vasko da Gama amalga oshirdi. 1519- yilda yana bir portugaliyalik dengizchi F. Magellan Amerika qit'asini aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi. Dunyoni aylanib suzish 1522- yilda nihoyasiga yetkazildi. Bu ekspeditsiya yerning dumaloqligini, uning katta qismi suv bilan qoplanganligini isbotladi. L.V. Torres boshchiligidagi ekspeditsiya esa 1605- yilda Avstraliyani kashf etdi.

Buyuk geografik kashfiyotlarning ahamiyati. Buyuk geografik kashfiyotlar ilm-fan uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Uning natijasida geografiya, tarix, etnografiya va okeanshunoslik fanlari yangi xulosalar, ma'lumotlar bilan boyidi. Bundan tashqari, bu kashfiyotlar tufayli yangi dengiz savdo yo'llari ochildi. Bu yo'llar O'rta Yer dengizidan Atlantika okeaniga ko'chdi. Bu esa, o'z navbatida, jahon savdosini vujudga keltirdi.



Admiral (arabcha – dengiz hukmdori, hokimi) – harbiy-dengiz floti qo'mondonlariga beriladigan unvon.

Astrolyabiya (lotincha) – XVII asrgacha xizmat qilgan joyning geografik koordinatalarini, vaqtni, yulduzlarning chiqish va botish paytini aniqlovchi astronomik asbob.

Kashfiyot – izlab topish, tekshirish natijasida topiladigan, yaratiladigan ilmiy yangilik.



Savol va topshiriqlar

1. «Geografik kashfiyotlar» atamasiga izoh bering.
2. Qanday omillar Buyuk geografik kashfiyotlarga sabab bo'ldi?
3. Dengiz savdo yo'llarini ochish ishiga boshchilik qilgan X.Kolumb va F. Magellan haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Avstraliya qit'asi nechanchi yilda kashf etildi?
5. Buyuk geografik kashfiyotlarning ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Dunyo siyosiy xaritasidan dengiz sayyohlari borgan hududlarni aniqlang.

Mulohaza uchun mavzu

Nega XV asr oxiri – XVII asr davomida amalga oshirilgan geografik kashfiyotlar «Buyuk geografik kashfiyotlar» nomi bilan ataladi?

Mustaqil ish

Quyidagi jadvalni to'ldiring:

Sayyohlar	Ular kashf etgan o'lkalar	Kashf qilingan yil

BUNI O'QING

Amerika qit'asi Xristofor Kolumbning jasorati tufayli kashf etilgan bo'lsa-da, G'arbiy yarim sharda qit'a mavjudligini buyuk bobimiz Abu Rayhon Beruniy bu kashfiyotdan deyarli 4,5 asr avval faraz qilgan edi.

Alloma o'zining «Hindiston» asarida bunday deb yozib qoldirgan: «Yerning choragi ma'muradir. Ma'murani G'arb va Sharq tomondan Muhit okeani (Atlantika va Tinch okeanlari) o'rab turibdi. Bu Muhit okeani, yerning obod qismini dengizlarning narigi tomonida bo'lishi mumkin bo'lgan quruqlik yoki odam yashaydigan orollardan ikkala yoqdan (G'arb va Sharqdan) ajratib turadi». *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. T., 2000- y. 1-jild, 721-bet.*

2- §. Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi



Ispaniya mustamlakalari. Buyuk geografik kashfiyotlar ayni paytda Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati uchun ham yo'l ochdi. Ispaniya bayrog'i himoyasi ostida yangi ochilgan yerlar Ispaniya qiroli mulki deb e'lon qilindi. Shu tariqa Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosati boshlandi. Mustamlakachilar bosib olgan hududlarda paxta va shakarqamish ekinzorlari barpo etildi.

Ispaniya qiroli 1512 yilda mahalliy hindularni qulga aylantirishni taqiqlab qo'yuvchi qonun chiqargan bo'lsa-da, u mahalliy aholini shafqatsiz ekspluatatsiya qilishga xalaqit bermagan. Shafqatsiz ekspluatatsiya va yevropaliklar olib kelgan turli yuqumli kasalliklar tufayli ularning soni keskin kamayib ketdi. Mustamlakachilar XVI asr o'rtalaridan boshlab endi Afrikada yashovchi aholini qullarga aylantirib, Amerikaga olib kela boshlaganlar. Tekin ishchi kuchiga ega bo'lgan mustamlakachilar 1510- yildan boshlab *konkista* siyosatini yurita boshladilar. Bu jarayon XVII asrning



2- rasm. Ispanlar Amerikada.

o'rtalarigacha davom etdi. XVI asrning dastlabki 50 yili ichida Ispaniya mustamlakalarida aholi soni keskin kamayib ketdi.

XVI asr birinchi yarmida Kolumbiya, Ekvador, Peru va Boliviya keyinchalik esa Chili va Argentina hududlari zabt etildi.

1679- yilda Ispaniya Amerika sivilizatsiyasining markazi bo'lgan Mayya davlati (bugungi Meksika) hududlarini to'la bo'ysundirdi.

1503- yildan 1565- yilgacha Amerikadan Ispaniyaga 181 tonna oltin va salkam 17000 tonna kumush tashib ketildi. Bosib olingan mustamlakalarni boshqarish uchun ikkita vitse-qirollik tashkil etildi. Ulardan biri Yangi Ispaniya vitse-qirolligi (Meksika, Markaziy Amerika, Venesuela va Karib dengizi orollarini o'z ichiga olgan), ikkinchisi esa Peru vitse-qirolligi (Braziliyadan tashqari, deyarli butun Janubiy Amerika hududi) edi. Vitse-qirollarga o'z hududlarida to'liq harbiy va sud hokimiyatini amalga oshirish huquqi berilgan.

O'qing va mulohaza yuriting

Vitse-qirollar oliy tabaqa vakillari orasidan 3 yil muddatga tayinlangan. Ularga o'zi bilan oila a'zolarini olib ketish, u yerda ko'chmas mulk sotib olish va tadbirkorlik bilan shug'ullanish taqiqlangan.

Vitse-qirollar faoliyati Ispaniyaning o'zida faoliyat ko'rsatuvchi «Hindiston kengashi» deb ataladigan kengash tomonidan nazorat qilingan. Kengashning vitse-qirolliklar bo'yicha qabul qilgan qarorlari qonun kuchiga ega bo'lgan. Mustamlakalar bilan olib boriladigan savdo esa «Sevilya savdo palatasi» tomonidan nazorat qilingan.

Mustamlakachilik sekinlik bilan bo'lsa-da, hindu etnik guruhlari va qabila ittifoqlarining barham topishiga olib kelgan. Mahalliy xalq tili esa ispan tili bilan almasha boshlagan.

Ispaniya faqat Amerikadagi mustamlakalari bilan cheklanib qolgan yo'q. U 1529- yilda Filippin orollari ustidan ham o'z hokimiyatini o'rnatdi.

Bu orollar taxt vorisi, shahzoda Filipp sharafiga Filippin deb atala boshlandi.

Portugaliya mustamlakalari. Portugaliya dengiz sayyohi Kabral 1500- yili Braziliyani kashf etdi va uni Portugaliya qirolining mulki, deb e'lon qildi. Hali urug'chilik tuzumi sharoitida yashayotgan mahalliy hindu xalqlari mamlakatning ichkari hududlariga quvib yuborildi. Braziliyani xo'jalik uchun o'zlashtirish, asosan, Afrikadan keltirilgan qullar mehnati hisobiga amalga oshirildi. Asr oxirida Braziliyada yashovchi oq tanli ko'chmanchilar soni 25000 nafarni tashkil etdi. Ular minglab qullarni ekspluatatsiya qilar edilar.

Mustamlakalar uchun kurash. Tez orada Yevropa davlatlari o'rtasida mustamlakalar uchun kurash boshlandi. Bunga Angliyada manufaktura ishlab chiqarishining tobora rivojlanishi sabab bo'ldi. Daromadi tobora ko'payib borayotgan Angliya burjuaziyasiga endi yanada yirik korxonalar bunyod etish uchun katta miqdorda boylik zarur edi. Bunday boylik mustamlakalar hisobiga topilishi mumkin edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar geografik jihatdan qulay hududda joylashgan Angliyani eng muhim dengiz savdo yo'llaridagi davlatga aylantirdi. London esa yirik port shahriga aylandi. Uning aholisi tez orada 200 ming kishiga yetdi. Manufaktura ishlab chiqarishining rivojlanishi Angliyaning chetga katta miqdorda tovar chiqarishiga sabab bo'ldi va u endi dengiz savdosida Ispaniyaning asosiy raqibiga aylandi. Bu hol Angliya – Ispaniya munosabatlarining keskinlashuviga olib keldi. Buning ustiga, Ispaniya boshqa davlatlar savdogarlarining ispan mustamlakalari bilan savdo qilishini taqiqlab qo'ydi. Bu taqiq oxir-oqibatda Angliya – Ispaniya o'rtasidagi urushga olib kelishi muqarrar edi. 1588- yilda ikki davlat harbiy-dengiz floti o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tdi. Unda Ispaniyaning «Yengilmas armada» deb nom berilgan harbiy floti tor-mor etildi. «Yengilmas armada»ning halokati Ispaniyaning dengizdagi qudratiga putur yetkazdi. Shu davrdan boshlab Angliya eng qudratli dengiz davlatiga aylana bordi.

Angliyaning dastlabki mustamlakalari. Qudratli dengiz davlatiga aylangan Angliya endi mustamlakalar bosib olishga kirishdi. Bu davlat mustamlakachilari Shimoliy Amerikani egallay boshladilar. XVII asr boshlarida bu yerda birinchi mustamlaka – Virjiniyaga asos solindi. Mahalliy hindu aholisi o'rmonlar ichkarisiga surib chiqarildi. Angliya hukumati tashqi savdoni chet davlatlar bilan savdo ishlarini

olib boruvchi boy savdogarlar tuzgan turli kompaniyalar ixtiyoriga topshirib qo'ydi. Bunday kompaniyalardan biri 1600- yilda tuzilgan «Ost-Indiya» kompaniyasi edi. Eng boy bo'lgan bu kompaniyaga Hind va Tinch okeanlari sohilida joylashgan mamlakatlar bilan savdo qilish huquqi berildi. Boshqa kompaniyalar qatori «Ost-Indiya» kompaniyasi ham davlat xazinasiga juda katta miqdorda daromad keltirardi. Angliya savdogarlari tez orada portugallarni Osiyodan siqib chiqara boshladi. «Ost-Indiya» kompaniyasi keyinchalik Boburiy hukmdorlardan Hindistonda boj to'lamay savdo qilish huquqini qo'lga kiritdi.

Bu kompaniya Hindistondan Yevropaga mato, ziravor va boshqa tovarlarni yuborar edi. Mustamlakachilar Hindistonda yanada mustahkamroq o'rnatish uchun o'z savdo manzilgohlarini qal'aga aylantira borganlar.



Armada – katta flot.

Vitse – o'rinbosar; vitse-qirol deyilganda qirol hokimiyati vakili tushuniladi.

Konkista – zabt etish, bosib olish.

Mustamlaka – rivojlangan davlatlar tomonidan bosib olinib, ekspluatatsiya qilinuvchi mamlakat.

«Ost-Indiya» – Kolumbning sayohatidan so'ng Karib dengizi orollari (Vest-Indiya) (G'arbiy Hindiston) deb atalgan, Vest-Indiyadan farq qilish uchun Hindiston yarim orolidagi mamlakatlar esa Ost-Indiya – (Sharqiy Hindiston) deb atalgan.

Ekspluatatsiya – boshqalar mehnati mahsulini o'zini qilib olishi.



Savol va topshiriqlar

1. Yevropa davlatlarining mustamlakachilik siyosatiga sabab bo'lgan omillarni qayd eting.
2. Ispaniya Markaziy va Janubiy Amerikani qay tariqa mustamlakaga aylantirganligi haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Mustamlakachilar Amerika mahalliy aholisi – hindularga nisbatan qanday siyosatni qo'llaganlar?
4. Dengiz savdo yo'llari uchun Angliya – Ispaniya raqobati qanday natija bilan tugadi?
5. «Ost-Indiya» kompaniyasi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Endi esa artilleriyaning yangi turi – mortira ixtiro qilindi. U artilleriya-ning qisqa masofaga balandlatib o‘q otadigan turi edi. Bu qurol tuproq uyumlarini ham qo‘porib tashlash imkonini yaratdi. XVI asr o‘rtalarida qo‘lda o‘q otadigan qurollar ixtiro qilishda ham katta yutuqlarga erishildi. Chunonchi, mushket deb ataluvchi miltiq ixtiro qilindi.

XVII asrning birinchi yarimida miltiqqa qo‘ndog‘, to‘pponcha, qo‘l granatalari yasash boshlandi. Qurolsozlik sohasidagi ixtirolar ritsarlar mavqeiga putur yetkazdi. Endi ritsarlik jasurlik belgisi bo‘lmay qoldi.



VII sinf «Jahon tarixi»dan ritsarlar haqida ma’lumot olgan edingiz. Ularning kimligini eslang.



Burjuaziya (fransuzcha – shaharliklar) – aholining savdo-sanoat, bank kabi sohasida tadbirkorlik faoliyatini yuritish natijasida daromad topuvchi hamda ishlab chiqarishda yollanma mehnatdan foydalanuvchi toifasi.

Aksionerlik jamiyati – daromad topish maqsadida hissadorlik qoidalari asosida uyushgan sherikchilik jamiyati.

Dividend (lotincha – taqsimlanadigan narsa) – aksiyadorlar jamiyati foydasining aksiya egasiga har yili beriladigan va uning daromadiga aylanadigan qismi.

Savdo monopoliyasi – savdo sohasida tanho hukmronlik qiluvchi tashkilotlar.

Negosiant – ulgurji savdo bilan shug‘ullanuvchi savdogar. Bu atama ko‘pincha chet ellar bilan savdo qiladigan savdogarlarga nisbatan ishlatilgan.

Patent (lotincha – ochiq, aniq-ravshan) – 1) biror-bir ixtironing davlat tomonidan e’tirof etilgani va ixtirochining o‘z ixtirosiga olgan huquqini tasdiqlovchi hujjat; 2) savdo yoki ishlab chiqarish huquqi yoki imtiyozini beruvchi hujjat.



Savol va topshiriqlar

1. Yangi davrda aholi tarkibida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?
2. Yangi dvoryanlar kimlar edi va ular avvalgi dvoryanlardan qaysi jihatlari bilan farq qilgan?
3. Qanday omillar jahon savdosining rivojlanishiga sabab bo‘ldi?
4. Manufaktura ishlab chiqarishi borasida qanday o‘zgarishlar yuz berdi?

bozorlarda savdo haftasiga bir yoki ikki kun bo'lardi. Shaharlarning o'sib borishi bilan bozorlar har kuni ishlay boshladi.

XVII asrdan boshlab ust yopiq bozorlar qurilishi keng avj oldi. Bunday bozorlarning eng yirigi Parij va London shaharlarida qurilgan.

Shu asr oxiriga kelib, bozor savdosi bilan do'kon savdosi o'rtasida raqobat vujudga keldi. Yangi davr bozorlarining yana bir o'ziga xos tomoni – bu tovarlarni uni ishlab chiqarganlarning o'zlari emas, savdogarlikni kasb qilib olgan kishilar tomonidan sotishning vujudga kelganligi edi.

O'sha davr manbalarida: «Do'konlar dunyoni egalladilar. Ular shaharlarni yutib yubormoqdalar», – degan ibora yozilgan edi.

Shaharlar to'xtovsiz o'sib borayotgan bir sharoitda, ahyon-ahyonda tashkil etiladigan yarmarkalar shahar aholisining talabini qondirolmay qoldi. O'rta asr yarmarkalari o'z ahamiyatini yo'qotdi. Shahar aholisining ehtiyojini har kuni savdo qiluvchi bozorgina qondira boshladi. Savdogarlar hayotiga, mol-mulkiga solinayotgan doimiy xavf-xatar ularni birlashishga majbur etgan. Bu omil, o'z navbatida, savdo kompaniyalari sonining ko'payishiga olib kelgan. Kompaniya a'zolari uning faoliyati uchun o'z mol-mulkilari bilan javobgar edilar. Shu tariqa dastlabki *aksionerlik jamiyatlari* tashkil topgan.

Savdo-sotiqning rivojlanishi, kompaniyalar qudratining oshishi oqibatida savdo *monopoliyalari* vujudga keldi. Bu hodisa ham yangi davrning muhim belgilaridan biri edi.

Jahon savdosi. Gollandiya va Angliya jahon savdo-sotig'ining markazlariga aylandi. Dengiz osha savdo qilish ingliz savdogarlarini ham kompaniyalarga birlashishga majbur etgan.

Angliyaga chetdan qalampir olib kelish huquqi faqat «Ost-Indiya» kompaniyasiga berilgan. Kompaniya qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi boylikka ega bo'ldi. Natijada o'z aksiyadorlariga hatto 500% gacha miqdorida dividend ham to'lay boshladi. Angliyaga paxta olib kelish huquqi esa «Levantiy» kompaniyasiga berilgan. Bu kompaniya ayni paytda O'rta Yer dengizi mamlakatlari bilan savdo qilish huquqini ham qo'lga kiritgan. Rossiya bilan savdo aloqasi olib borishga «Moskva» kompaniyasi haqli edi.

Bankirlar, dallollar, qassoblar, pivo tayyorlovchilar va hatto eng mashhur dvoryanlargacha – hamma qaysidir bir kompaniyaning aksiyadori edilar. Hatto qirollar ham bundan mustasno emasdilar. Ayni paytda ular savdo kompaniyalari tashkil etilishiga qarshilik qilmaganlar. Chunki kompaniya tashkil etish uchun berilgan *patent* xazinaga juda katta

miqdorda daromad keltirar edi. Bundan tashqari, savdo kompaniyalari o'zlariga uzoq mamlakatlarda Angliya manfaatlarini himoya qilish majburiyatini ham olar edilar. XVII asr boshlarida Angliya savdo kompaniyalari Erondan Shimoliy Amerikagacha, Shvetsiyadan Hindistongacha bo'lgan juda katta hududni o'z ta'sirida tutgan. Hindiston va Amerikaga tobora ko'proq kirib borgan.

Qisqa vaqt ichida Angliya savdosining hajmi ikki barobar ortgan.

Manufaktura ishlab chiqarishi. Dengiz savdosining rivojlanishi, Yangi Dunyo aholisining ko'payib borishi va u yerdan Yevropaga oltin hamda kumushlarning ko'plab miqdorda tashib keltirilishi hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Ortib borayotgan talab yirikroq korxonalar qurishni zaruratga aylantirib qo'ydi. Bu esa yangi tipdagi korxonalar – mehnat taqsimoti asosida faoliyat ko'rsatuvchi manufakturaning paydo bo'lishiga olib keldi.

Manufakturalar uchun maxsus binolar qurilishi boshlandi. U yerda turli xil mutaxassislikdagi yollanma ishchilar mehnat qilardilar. Ularning har biri faqat bitta ishni bajarardi. Bu esa ishning tez va sifatli bajarilishini ta'min etardi. Bu yangilik, tabiiyki, mehnat unumdorligining ortishiga olib kelgan. Manufaktura ishlab chiqarishi mahsulot tannarxining arzonlashuviga ham sabab bo'ldi.

Topshiriq

«Iqtisodiy bilim asoslari» fani o'qituvchingizdan tannarx nima ekanligini so'rab, bilib oling.

XVII asrga kelib manufaktura ishlab chiqarishi Angliya va Gollandiyada xo'jalikning asosiy shakliga aylandi. Fransiyada esa rivojlanish bosqichiga kirdi.

Qurolsozlikdagi ixtirolar. XVI–XVII asrlarda qurolsozlik sohasida ham muhim ixtirolar amalga oshirildi.

Agar XVII asrgacha artilleriya qal'a devorlarini bermalol qulata olganligi tufayli shaharlar devor bilan emas, balki ulkan tuproq uyumlari bilan himoya qilina boshlangan edi. Chunki artilleriya yadrosi (artilleriya o'qi) tuproq uyumini yorib o'ta olmagan.



3- rasm. Mushket miltiq.

Germaniya bo'ylab tarqatishning iloji bo'lmadi. Aksincha, M. Lyuter Papaning uni cherkovdan chetlashtirganligi to'g'risidagi qarorini talabalar ko'z o'ngida yoqib yubordi. Bu uning katolik cherkovi bilan aloqani butunlay uzganligini anglatar edi.

M. Lyuter imperatorlik sudiga chaqirildi. Imperator undan o'z ta'limotidan voz kechishini talab qildi. Biroq Lyuter imperator talabini bajarmadi. Aksincha, Papaga bo'ysunishdan va indulgensiya savdosini ma'qullashdan bosh tortdi.

Katolik cherkovidagi bo'linish. Reformatsiya natijasida Rim katolik cherkovida bo'linish yuz berdi. Xo'sh, bu qanday sodir bo'ldi? Tez orada Germaniyada katolik cherkovining zulmiga va zo'ravonligiga qarshi boshlangan harakat ommaviy tus oldi. 1524- yilda esa bu harakat hatto dehqonlarning krepostnoylik zulmiga qarshi urushiga aylanib ketdi. Qo'zg'olonning yetakchisi ruhoniy Tomas Myunser edi. Garchand dehqonlar urushda yengilgan bo'lsalar-da, u Germaniyada katolik cherkovi hukmronligiga barham berilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1526- yilda Germaniya reyxstagi Lyuterchi-knyazlar talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi.

Biroq 1529- yilda Reyxstag bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning bir qancha shaharlari va 5 knyazi protest (norozilik) bildirishgan. Ular «Protestatsiya» deb atalgan hujjatga, ya'ni ruhoniy va dunyoviy feodallarning umumgerman yig'ilishi lyuterchilikning tarqalishini cheklash haqidagi qaroriga qarshi protestga imzo qo'yganlar. Shu tariqa 5 nafar knyaz protestant (noroz) deb atalgan. Protestant knyazlar 1555- yilda Rim Papasi bilan bitim tuzishga muvaffaq bo'ldilar. Unga ko'ra, endi har bir knyaz o'z fuqarolari uchun istagan dinni, ya'ni yo protestantlikni, yoki katoliklikni tanlash huquqiga ega bo'lganlar.

Shu davrdan boshlab reformatsiyaning barcha tarafdorlari protestantlar, yangi cherkov esa protestant cherkovi deb atala boshlandi. Shunday qilib, xristianlikda uchinchi oqim – protestantlik vujudga keldi.



M. Lyuterning katolik ta'limotiga kiritgan islohlari natijasida vujudga kelgan ta'limot uning nomi bilan lyuterchilik deb ataldi. «lyuterchilik» va «protestantlik» atamalari amalda bir xil ma'noni anglatadi.

4- §. Yevropada reformatsiya. Germaniyada dehqonlar urushi



Reformatsiya haqida. Reformatsiya – XVI asrda katolik cherkovi ta’limotini isloh qilish maqsadida Germaniyada bo‘lib o‘tgan va XVII asrning birinchi yarmida G‘arbiy Yevropaning qator davlatlariga ham yoyilgan ijtimoiy harakatdir. Bu harakat oqibatida katolik cherkovida bo‘linish yuz berdi. Zamon ruhiga mos, mutaassiblik va aqidaparastlikdan xoli, isloh qilingan yangi oqim – protestantlik vujudga keldi.



Xristianlikning bungacha ikki oqimga bo‘linib ketishi qachon yuz bergan edi?

Xo‘sh, nega reformatsiya yuz berdi?

Katolik cherkovining mavqei haqida. XVI asr boshlarida ham katolik cherkovi qudratli edi. Rim Papasining qudratini qavmlarning faqat xudoga chuqur va sidqidildan ishonishigina belgilab qolmagan. Bu qudrat asosida Rim katolik cherkovining behisob boyliklarga egaligi ham yotardi. Zero, hamma – oddiy dehqondan tortib, to qudratli knyazlargacha o‘z daromadining 1/10 qismini cherkovga tortiq qildirdi. Ayni paytda cherkovning o‘zi ham katta yer-mulk egasi edi. Bundan tashqari, indulgensiya savdosi ham cherkovga katta daromad keltirardi.



Indulgensiya savdosi nima ekanligini eslang.

Bu savdo orqali cherkov faqat sodir etilgan gunohnigina emas, kelajakda qilinishi mumkin bo‘lgan gunohni ham kechirardi.

Reformatsiyaning shart-sharoiti XVI asrda Angliya va Fransiya qirollari mutlaq hokimiyatga ega bo‘lib olgan bo‘lsalar, Germaniyada siyosiy tarqoqlik hukm surardi. Ya’ni, u mayda-mayda davlatlarga (knyazliklarga) bo‘linib ketgan edi. Shu sababli, Germaniya imperatori amalda real hokimiyatga ega bo‘lmagan. Shuning uchun ham Germaniyada katolik cherkovining ta’siri hamon qudratlilikicha qolayotgan edi. Germaniya aholisi, ham o‘z hukmdorlariga, ham cherkovga tinkamadorni qurituvchi soliq to‘lardi. Bundan tashqari, katolik cherkovi Germaniyada katta mol-mulkka ham ega edi. Arxiyepiskop va

yepiskoplar esa amalda mustaqil knyazlar sanalardi. Germaniya imperatorini saylab qo'yadigan 7 nafar eng qudratli knyazning 3 nafari ~~ary~~ yepiskoplar edi. Rim cherkovi o'z daromadining katta qismini Germaniyadan olgan. Imperatorning esa Rimga yuboriladigan soliqlar miqdorini kamaytirishga kuchi yetmagan. Qolaversa, katolik cherkovi Germaniya taraqqiyoti to'sig'iga aylangan siyosiy tarqoqlik va krepostnoylik munosabatlarning tayanchi ham edi.



Qanday munosabatlarga krepostnoylik munosabatlari deyilgan?

Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar Germaniyada umumiy norozilikni keltirib chiqargan. Umumiy norozilikning yuzaga kelishiga shuningdek, katolik marosimlarini bajarishning og'irlashtirib yuborilganligi ham sabab bo'lgan.

Martin Lyuterning faoliyati. Reformatsiya 1517- yilda Germaniya aholisining katolik cherkovini isloh (reforma) qilishni talab qilib chiqishidan boshlandi. Reformatsiyani knyazlarning bir qismi, shaharliklar va dehqonlar qo'llab-quvvatladilar. Reformatsiya to'liqinining kuchayishiga Vittenberg universitetida ilohiyotdan dars beruvchi Martin Lyuter ta'limoti katta ta'sir ko'rsatdi. U 1517- yili cherkov eshigiga o'zining dindorlarga qarata yozgan mashhur «95 tezis» deb atalgan xitobnomasini yopishtirib qo'ydi. Xitobnomada indulgensiya savdosi qattiq qoralangan, Germaniyadagi cherkovni Rim

Papasi qaramog'idan ozod etish talab etilgan, cherkovning esa «kam chiqim cherkov» bo'lishi yoqlangan edi. Martin Lyuterning «95 tezis»i butun Germaniyani to'liqlantirib yubordi.

Ko'p o'tmay u cherkov Papasiz ham yashashi mumkin, deb baralla aytdi va bundan keyin Rimga soliqdan tushgan pullarni yubormaslikni taklif etdi. Bu «qilmishlari» uchun Rim Papasi Lyuterni shakkoklikda aybladi va Germaniyaga uni la'natlovchi yorliq yubordi. Biroq xalq Lyuterni qo'llab-quvvatlayotganligi uchun bu yorliqni



4- rasm. Martin Lyuter.

Germaniya bo'ylab tarqatishning iloji bo'lmadi. Aksincha, M. Lyuter Papaning uni cherkovdan chetlashtirganligi to'g'risidagi qarorini talabalar ko'z o'ngida yoqib yubordi. Bu uning katolik cherkovi bilan aloqani butunlay uzganligini anglatar edi.

M. Lyuter imperatorlik sudiga chaqirildi. Imperator undan o'z ta'limotidan voz kechishini talab qildi. Biroq Lyuter imperator talabini bajarmadi. Aksincha, Papaga bo'ysunishdan va indulgensiya savdosini ma'qullashdan bosh tortdi.

Katolik cherkovidagi bo'linish. Reformatsiya natijasida Rim katolik cherkovida bo'linish yuz berdi. Xo'sh, bu qanday sodir bo'ldi? Tez orada Germaniyada katolik cherkovining zulmiga va zo'ravonligiga qarshi boshlangan harakat ommaviy tus oldi. 1524- yilda esa bu harakat hatto dehqonlarning krepostnoylik zulmiga qarshi urushiga aylanib ketdi. Qo'zg'olonning yetakchisi ruhoniy Tomas Myunser edi. Garchand dehqonlar urushda yengilgan bo'lsalar-da, u Germaniyada katolik cherkovi hukmronligiga barham berilishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1526- yilda Germaniya reyxstagi Lyuterchi-knyazlar talabi bilan har bir nemis knyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qaror qabul qildi.

Biroq 1529- yilda Reyxstag bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning bir qancha shaharlari va 5 knyazi protest (norozilik) bildirishgan. Ular «Protestatsiya» deb atalgan hujjatga, ya'ni ruhoniy va dunyoviy feodallarning umumgerman yig'ilishi lyuterchilikning tarqalishini cheklash haqidagi qaroriga qarshi protestga imzo qo'yganlar. Shu tariqa 5 nafar knyaz protestant (noroz) deb atalgan. Protestant knyazlar 1555- yilda Rim Papasi bilan bitim tuzishga muvaffaq bo'ldilar. Unga ko'ra, endi har bir knyaz o'z fuqarolari uchun istagan dinni, ya'ni yo protestantlikni, yoki katoliklikni tanlash huquqiga ega bo'lganlar.

Shu davrdan boshlab reformatsiyaning barcha tarafdorlari protestantlar, yangi cherkov esa protestant cherkovi deb atala boshlandi. Shunday qilib, xristianlikda uchinchi oqim – protestantlik vujudga keldi.



M. Lyuterning katolik ta'limotiga kiritgan islohlari natijasida vujudga kelgan ta'limot uning nomi bilan lyuterchilik deb ataldi. «lyuterchilik» va «protestantlik» atamalari amalda bir xil ma'noni anglatadi.

Reformatsiya natijasida faqat yangi diniy ta'limot vujudga kelibgina qolmadi. Endi knyazlarga bo'ysunadigan cherkov ham vujudga keldi. Uzoq yillar davomidagi kurashlardan so'ng Germaniya imperatori Karl V ham knyazlarga o'zlarini e'tiqod qilgan diniy ta'limotni o'z knyazliklari hududlarida joriy etish huquqini beradigan qonun chiqarishga majbur bo'ldi.

Protestantlik oqimi ta'limotining mazmunini, uning katolik ta'limotidan farq qiluvchi asosiy xususiyatlarini Siz IX sinfda «Dunyo dinlari tarixi» darslarida o'rganasiz.



Ilohiyot – diniy qoidalar va ular haqidagi Xudo ko'rsatmalarini o'z ichiga olgan asosiy diniy ta'limot.

Islah – o'zgartirish kiritib, yaxshilash, tuzatish.

Tezis (yunoncha – qoida, isbot) – bahsda yoki biror ta'limotni bayon qilishda aytiladigan asosiy fikr.

Xitobnoma (arabcha- forscha) – biror ish yoki harakat qilishga undab yozilgan maktub, yozma chaqiriq, murojaatnoma.



Savol va topshiriqlar

1. Reformatsiya harakati qay tariqa vujudga keldi?
2. Nega Germaniya reformatsiya vatani bo'ldi?
3. Martin Lyuter ta'limoti mazmunining asosiy jihatlarini aniqlang.
4. Nega xristianlikning yangi lyuterchilik oqimi protestantlik deb ham ataladi?

Mustaqil ish

«O'zbekiston tarixi»dan olgan bilimlaringizga tayanib, Germaniya reyxstagi din erkinligi to'g'risida qaror qabul qilgan 1526- yilda jahon tarixida yana qanday voqea yuz berganligini qayd eting.

5- §. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi



Mutlaq monarxiya. Mutlaq monarxiya (absolutizm) – oliy hokimiyatning huquqi hech qanday qonun bilan cheklanmagan yagona bir shaxs – monarx qo'lida to'planishidir.

Boshqaruvning mutlaq monarxiya shakli siyosiy tarqoq mamlakatni yagona markaziy hokimiyat qo'l ostida birlashtirish natijasida vujudga

keldi. Mutlaq monarxiya mamlakat tarqoqligiga barham berdi. Chuponchi, qirol Genrix VIII Tyudor (1509–1547) butun mamlakatni yagona markaz – Londonga bo‘ysundirdi.

Aynan mutlaq monarxiya feodallarning o‘zaro ichki urushlariga barham bergan. Tyudorlar sulolasidan chiqqan yangi qirollar feodallar qo‘shinlarini tarqatib yubordi.

Bo‘ysunishni istamagan feodallarning qo‘rg‘onlarini yer bilan yakson qildi. Isyonchilarning yerlari tortib olindi va qirollik mulkiga qo‘shib yuborildi.

Shaharlarning huquqlari cheklab qo‘yildi. Toifaviy-vakillik organi bo‘lmish parlament butunlay bo‘lmasa-da, o‘z ahamiyatini yo‘qotdi. Yangi soliqlar joriy etish masalasidagina parlament roziligining shartligi belgilab qo‘yildi.

Angliya qirollari *veto* huquqiga ega edilar. Bu huquq ularga parlamentning har qanday qarorini taqiqlay olish imkonini berardi. Mamlakat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishini parlament emas, tarkibini qirol tuzadigan Maxfiy Kengash belgilar edi.

XVI asrning Angliya tarixidagi o‘rni. XVI asr Tyudorlar sulolasi asri bo‘ldi. Bu yuz yillik Angliya tarixida chuqur iz qoldirgan uch yirik tarixiy hodisa bilan ajralib turadi. Bular – reformatsiya, mutlaq monarxiyaning kuchayishi va dengizda Angliya hukmronligining o‘rnatilishi edi.

Angliyada reformatsiya qirol Genrix VIII hukmronligi davriga to‘g‘ri keldi. Angliyada reformatsiya xalqning talabi bilan emas, balki qirolning xohish va irodasi bilan amalga oshirildi.

Genrix VIII qirol hokimiyatini yanada mustahkamlash uchun cherkovni yerdan va boshqa mol-mulklardan mahrum etish haqida farmon chiqardi. Ularga qarashli bo‘lgan yerlarning $\frac{2}{3}$ qismi sotib yuborildi.

Angliyada protestantlik ta‘limotiga amal qiluvchi cherkov anglikan cherkovi deb ataldi.

Qirol cherkov boshlig‘i deb e‘lon qilindi. Rim Papasi hokimiyati inkor etildi. Katolik cherkovining boyliklari tortib olindi.

Kontrreformatsiya. Genrix VIII ning qizi Mariya o‘z hukmronligi davrida (1553–1558) kontrreformatsiya o‘tkazishga urindi. U o‘zining cherkov boshlig‘i ekanligidan foydalanib, protestantlikni shakkoklik deb e‘lon qildi va katolik cherkovini tiklashga kirishdi.

Mariya parlamentning Angliyada Rim Papasi hokimiyatini qayta tiklash haqidagi qarori chiqarilishiga erishdi. Ayni paytda shakkoklikka qarshi o'rtasrlar qonunlari qayta tiklandi. Mamlakatda qatag'on boshlandi, katolik dushmanlari olovda yondirildi. Shunday sharoitda ko'pchilik protestantlar Germaniya va Shveysariyaga qochib ketib jon saqladilar. Mariyaning qatag'on siyosati mamlakatda norozilikni kuchaytirib yubordi.

Hukmron tabaqalar endi Genrix VIII ning boshqa qizi Yelizavetani qirollik taxtiga o'tqazishga qaror qildilar va Mariya vafotidan so'nggina bunga erishdilar.

Angliya Yelizaveta hukmronligi davrida (1558–1603). Yangi qirolicha ajoyib shaxsiy sifatlarga, kuchli irodaga va qobiliyatga ega edi.

Yelizaveta I protestantlikni davlat dini deb e'lon qildi. Qirolichaning o'zi «Cherkov va dunyoviy ishlarning oliy hukmdori» unvonini oldi. Cherkov ibodatlari endi xalqning katta qismiga tushunarsiz bo'lgan lotin tilida emas, balki ingliz tilida o'tkaziladigan bo'ldi. Yelizaveta I ning asosiy vazifalaridan biri mamlakat yaxlitligini mustahkamlash edi.



5- rasm.

Qirolicha Yelizaveta I.

Dengiz hukmronligi uchun kurash. Angliyaning bu davrdagi ashad-diy dushmani katolik Ispaniyasi edi. Ispaniya qiroli Filipp II «shakkok» Angliya qirolichasi Yelizaveta I ga nafrat bilan qarardi. Bu davrda Gollandiyada Ispaniya zulmiga qarshi harakat boshlanganda Yelizaveta I Gollandiya tarafida turdi. Oxir-oqibatda bu ikki davlat o'rtasida 1588- yilda urush kelib chiqdi. (Bu haqda 2- § da ma'lumot olgansiz). Bo'lib o'tgan jangda Angliya g'alaba qozondi.

Bu mag'lubiyatdan so'ng Ispaniya o'zini qayta o'nglay olmadi. Angliya esa Yevropaning buyuk davlatiga va dengiz hukmdoriga aylandi. Angliya uchun XVI asr ana shunday yakunlandi. Reformatsiya nihoyasiga yetdi. Yelizavetaning o'limi bilan Tyudorlar sulolasining hukmronligi ham barham topdi. Taxtga Tyudorlar sulolasiga qarindosh Shotlandiya qiroli Yakov VI

Styuart o'tqazildi. Shu tariqa Angliyada Styuartlar sulolasi hukmronligi boshlandi.



Veto (lotincha – *taqiqlayman*) – davlat boshlig'ining biror qonunni yoki qarorni kuchga kirishdan to'xtatib qo'yish huquqi.

Kontrreformatsiya – XVI–XVII asrlar o'rtalarida Yevropada Rim Papasi rahnamoligida reformatsiyaga qarshi qaratilgan diniy-siyosiy harakat.

Monarxiya (yunoncha – *yakka hokimlik*) – cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan yakka shaxs boshqaradigan davlat.



Savol va topshiriqlar

1. Mutlaq monarxiya haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Angliyaning bugungi to'liq rasmiy nomini ayting. U davlat tuzumiga ko'ra qanday davlatligini aniqlang.
3. Angliyadagi reformatsiya va kontrreformatsiyalar haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. XVI asr Angliya tarixida qanday ahamiyatga ega?
5. Yelizaveta I ichki va tashqi siyosatda qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?

Mustaqil ish

«O'zbekiston davlati va huquqi asoslari» fani o'qituvchingizdan bugungi kunda monarxiyaning qanday shakllari borligini bilib oling. Ularga misollar keltiring.

6- §. Fransiyada mutlaq monarxiya



Fransiya mutlaq monarxiyasining o'ziga xos xususiyatlari. XVI–XVIII asrlarda Fransiyada mavjud bo'lgan siyosiy hokimiyatning mazmuni quyidagi iborada o'z ifodasini topgan edi: «Xudoning irodasi shuki, har qanday qaram bo'lib tug'ilgan o'ylab o'tirmasdan bo'ysunmog'i lozim». Fransiyada mutlaq monarxiya qaror topishi bilan General shtatlar o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotdi.



General shtatlar nima ekanligini eslang.



6- rasm. Lyudovik XIV.

Qirollarning o'ziga qolsa, vakillik organlarini butunlay yo'q qilardilar. Biroq buning iloji yo'qligi uchun ularning mamlakat siyosiy hayotiga ta'sirini kamaytirishga urinar edilar. Bunga erishganlar ham.

Angliya parlamentidan farqli o'laroq, Fransiyada General shtatlar doimiy faoliyat ko'rsatuvchi davlat organiga aylana olmadi. Keyinchalik u juda kamdan kam holatlarda, faqat kuchli zarurat tug'ilganidagina chaqiriladigan bo'ldi.

1614-yildan boshlab butun XVII asr davomida esa biror marta ham chaqirilmadi. Bu hodisa Fransiyada qirol hokimiyati Angliya qirol hokimiyatidan ham kuchliroq bo'lganligini ko'rsatar edi. Qirol ayni paytda hukumat boshlig'i ham edi. Uning huzurida hukumat kengashi tashkil etilgan. Kengash a'zolari qirol tomonidan tayinlangan. Ichki va tashqi siyosatga doir barcha masalalarni shaxsan o'zi hal etgan. Shu tariqa butun mamlakatda qirolning shaxsiy hukmronligi o'rnatilgan. Shunday bo'lsa-da, parlament butunlay tugatilmagan. Fransiya viloyatlarida ham parlament mavjud edi. Mamlakat fuqarolariga bu parlamentlarga viloyatlar sudlari ustidan shikoyat qilish huquqi berilgan. Ayniqsa, Parij parlamenti katta ta'sirga ega bo'lgan. Uning vakolati mamlakat hududining 1/3 qismida amal qilgan. Parij parlamenti taxt vorisi yosh bo'lsa, regent tayinlash huquqiga ham ega bo'lgan.

Qirol saroyi hayotining asosiy mazmunini qirol shaxsini ilohiy deb hisoblovchi tushuncha tashkil etgan. Fransiya qirol Lyudovik XIV bekorga «Davlat – bu men!» demagan edi. Qirol qarorgohidagi bog'larga o'rnatilgan haykallar ham uning buyukligini eslatib turishi lozim bo'lgan. Hatto Jupiter haykali Lyudovik XIV ning yuziga o'xshatib ishlangan. ✓

Fransiyada protestantlikning tarqalishi. Fransiya qirolligida har ikki cherkov ham faoliyat ko'rsata boshladi.

XVI asr boshlarida M. Lyuter ta'limotiga mos g'oya tarqaldi. Mamlakatda «Injil»ning fransuzcha tarjimalari paydo bo'ldi. Ibadatxonalarda duolar ona tilida o'qila boshlandi. Shu tariqa, vaqtlar o'tishi

bilan Fransiya ikki dushman lagerga – katoliklar va protestantlar lageriga bo‘linib qoldi. Fransiya protestantlar gugenotlar deb atalgan.

Mamlakat shimoli va qiroli xonadoni katoliklar tomonida, Janubiy Fransiya esa gugenotlar bo‘lib qoldi. Gugenotlar hammani o‘z dinlariga tortishga intildilar. Ular bosmaxonalar tashkil etib, varaqalar chop etdilar va uni butun mamlakat bo‘ylab tarqata boshladilar. Reformatsiya Fransiya shu tariqa kirib keldi.

Diniy urushning yuz berishi. Katolik cherkovi protestantlikning tarqalishini dushmanlik bilan qarshi oldi. 1562-yilda qirolning qarindoshi, katoliklar rahnamosi gersog Giz o‘zining ko‘p sonli qo‘riqchilari bilan Vassida protestant gimnini ijro etayotgan protestantlarga hujum qildi. Oqibatda 20 dan ortiq protestant o‘ldirildi, 100 dan ortig‘i esa yarador qilindi. Bu voqea Fransiya 30 yil davom etgan diniy urushning boshlanishiga turtki bo‘ldi.

Bu diniy urush mamlakat boshiga katta kulfat keltirdi. Mamlakatda yovuzlik, jaholat kuchaydi.

Gugenotlarga juda katta talafot yetkazildi. Shunday bo‘lsa-da, gugenotlar qirolni yon berishga majbur etdilar. Urushning oldini olish uchun qiroli Karl IX gugenotlar yetakchisi Genrix Burbonga o‘z singlisi Margaritani turmushga berishga qaror qildi. To‘y marosimi 1572-yilning avgustiga belgilandi. Biroq katolik mutaassiblari shu voqeadan foydalanib, gugenotlarning barcha rahbarlarini qirib tashlashni zimdan rejalashtirdilar.

24-avgust kechasi gugenotlar qirg‘ini uyushtirildi. 3 kunlik qotillik davomida 30 mingga yaqin kishi qurbon bo‘ldi. Bu voqea Fransiya tarixiga «Varfolomey kechasi» nomi bilan kirdi. Shu voqealardan keyin Fransiya protestantlik taqiqlandi. Rim Papasi bu xabarni quvonch bilan kutib oldi.

Urushning davom etishi. «Varfolomey kechasi» mamlakatdagi diniy urushga chek qo‘ymadi. Urushning davom etishi muqarrar edi. Chunki gugenotlar taqdirga tan bermadilar. Gugenotlar Fransiya bo‘lib tashlashga qaror qildilar va mamlakat janubida o‘z davlatlarini tuzdilar. Bu davlatni qiroli xonadonining qarindoshi, gugenotlar yetakchisi Genrix Burbon (u Genrix Navarrrskiy deb ham atalardi) boshqardi. Gugenotlar yaxshi qurollangan qo‘shin tuzishdi.

Genrix Giz esa qattiq harbiy intizom o‘rnatilgan katolik liga tuzdi. Katoliklar fitna tayyorlay boshladilar. Unga ko‘ra, yangi qiroli Genrix III

olib qochilar va majburan monax qilindirdi. Taxtni esa Genrix Giz egallashi lozim edi. Biroq qirol Genrix III fanat Genrix Gizni o'ldirtirishga muvaffaq bo'ldi.

Katolik cherkovi Genrix III ning bu ishini kechira olmas edi. O'ldirilganlar «azob chekkan avliyolar» deb e'lon qilindi. Cherkov dindorlarga qirol sog'lig'i uchun duo o'qishni taqiqladi. Ayni paytda barcha fuqarolarning Genrix III ga sodiqlik qasamyodidan ozod qilinganliklarini e'lon qildi.

1589- yilda Genrix III katoliklar tomonidan o'ldirilgach, qirol xonadonining qarindoshlari gugenotlar rahbari Genrix Burbon (Genrix Navarrskiy) Genrix IV nomi bilan taxtni egalladi. U katoliklikni qabul qilmasdan Parijga borib taxtga o'tira olmasligini yaxshi bilardi. Shuning uchun ham u protestanlikdan chiqib katoliklikni qabul qildi. Genrix IV o'zining kuchi, qobiliyati va ta'siridan har ikki cherkov qavmlarini murosaga erishtirish yo'lida foydalandi. U katolik amaldorlarni ehsonga ko'mib tashladi. Diniy urushlarni to'xtatish va mamlakat yaxlitligiga erishish uchun 1598- yilda Nant ediktini imzoladi.

Ediktda katoliklik davlat dini deb e'lon qilingan bo'lsa-da, gugenotlar quvg'in qilinmaydigan bo'ldi. Mamlakatda diniy murosasozlikka erishildi.



Jaholat (arabcha) – ilm-ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik.
Fanat (lotincha) – diniy e'tiqodiga yoki biror ta'limotga qattiq yopishib oluvchi.
Edikt – qirolning alohida muhim farmoni.



Savol va topshiriqlar

1. Fransiyada mutlaq monarxiya qay tariqa qaror topdi?
2. Fransiyada reformatsiya qay tariqa tarqaldi?
3. Fransiyada nega diniy urush yuz berdi?
4. Katoliklar bilan protestantlar (gugenotlar) o'rtasidagi urush qanday natija bilan tugadi?

Mustaqil ish

Fransiya va Angliya mutlaq monarxiyalarini taqqoslang, ularning o'xshash va o'ziga xos tomonlarini aniqlang. So'ng jadval tuzib, javoblaringizni unda aks ettiring.

7- §. XVI–XVII asrlarda Rossiya



Rusni birlashtirishning tugallanishi. Siz VII sinf «Jahon tarixi» darsligidan Rusning 240 yil davomida Oltin O‘rdaga qaram bo‘lib kelganligini, bu qaramlik 1480- yilda barham topganligini bilib olgan edingiz.



Sohibqiron Amir Temurning Rusning ozod bo‘lishi onlarining tezlashuviga qo‘shgan hissasi haqida nimalar yodingizda qolgan?

Moskva knyazligi rahbarligida mustaqillikdan so‘ng ham Rusni birlashtirish jarayoni davom ettirildi. 1485- yildan boshlab Moskva knyazi Ivan III butun Rus hukmdori unvonini qabul qildi. Bu davlat bora-bora Rossiya deb ataladigan bo‘ldi. Nihoyat, 1521- yilda yagona, markazlashgan, poytaxti Moskva shahri bo‘lgan Rusni birlashtirish to‘la nihoyasiga yetkazildi.

Markazlashgan Rossiya davlatining tashkil topishi katta tarixiy ahamiyatga ega hodisa edi. Avvalo, endilikda Rossiya o‘zini tashqi hujum xavfidan himoya qila oladigan bo‘ldi. Ikkinchidan, markazlashish xalq xo‘jaligi va madaniyatning tezroq rivojlanishiga imkoniyat yaratdi. Mahalliy biqlik barham topdi. Mamlakat turli qismlarining o‘zaro aloqalari kuchaydi. Rossiya Yevropa davlatlari orasida muhim o‘rin egalladi.

Rossiya podshosi Ivan IV. 1547- yilda Rossiya tarixida o‘ziga xos voqea yuz berdi. Rossiyada ichki nizolar, boshboshdoqliklar kuchayib ketgan bir davrda Rus pravoslav cherkovining boshlig‘i mitropolit Makariy vafot etgan Buyuk knyaz Vasiliy III ning o‘g‘li Ivan IV ga Rossiya tarixida birinchi bor podsholik tojini kiydirdi. Bu voqea juda katta xalqaro ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki Rusda uzoq yillar davomida faqat Oltin O‘rda xonlari podsho deb atalib kelingan.

Rus davlati hukmdorlari esa bu davrgacha Buyuk knyaz deb atalib kelingan. Ivan IV ga podsholik unvonining berilishi uni G‘arbiy Yevropa davlatlari qirollari bilan bir qatarga qo‘ydi. Yosh podsho Ivan IV o‘z huzurida «Saylanma rada» deb ataluvchi maslahat kengashini tuzdi. Ivan IV ichki siyosatining vazifasi dvoryanlar tabaqasini kuchaytirish orqali boyarlar mavqeini zaiflashtirishdan iborat edi. Shu maqsadda 1549- yilda Ivan IV feodallar turli qatlamlari vakillarining birinchi yig‘ilishini – Zemstvo soborini – chaqirdi. Keyinchalik bu sobor ishida shaharlarning savdogar (posad



kishilar), shuningdek, davlatga qaram dehqonlardan (chernosot) ham saylangan vakillar qatnashadigan bo'ldi.

Shu tariqa Rossiya toifaviy vakillik monarxiyasiga aylana bordi.

Ivan IV Zemstvo soborida boyarlar hokimiyatini keskin qoraladi. Sobor yangi Sudebnik tuzish haqida qaror qabul qildi. Unga ko'ra, dvoryanlarning bundan buyon ayblari va nojo'ya qilmishlari uchun boyar-noiblar sudiga borishlari taqiqlandi. Dvoryanlardan ming nafariga Moskva uyezdidan yer-mulk ajratib beriladigan bo'ldi. Davlat lavozimlarini kelib chiqishining zodagonligiga qarab egallash tartibiga chek qo'yildi.

Boyar-noiblarning o'zlari uchun aholidan yig'adigan soliqlari bekor qilindi. Joylarda boyar-noiblar boshqaruvi o'miga Zemstvo (mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari) tuzildi. Ularga dvoryanlar, posad va chernosotlar vakillari ham saylanishi huquqi berildi. Podsho hokimiyati endilikda ana shu tabaqa vakillariga tayanadigan bo'ldi. Sudebnik krepostnoy dehqonlarning bir yer egasidan boshqasiga o'tishini yiliga bir kun – Yurev kuni (26-noyabr) bilan cheklab qo'ydi.

Oprichnina. 1565- yilda Ivan IV davlat yerlaridan katta qismini ajratib oldi. Bu yerlar oprichnina deb ataldi. Boyarlarning yerlari ham oprichninaga qo'shib yuborila boshlandi. Oprichnina podsho yerlari deb ham atalib, ularga dvoryanlar joylashtirildi. Oprichnina yerlari ularga bo'lib berildi. Endi ular dvoryan oprichniklar deb atala boshlandi. Ivan IV bundan buyon boyarlarni Boyarlar dumasisiz o'zi sud qilishini va o'zi jazo belgilashini e'lon qildi. Davlat yerlarining oprichninaga tortilmagan qismiga katta miqdorda soliq joriy etdi. Oprichnina o'z qo'shiniga ega edi. U podshoning o'z raqiblarini jazolash quroliga aylantirildi.

Oprichniklar otlarining egalariga it kallasi va supurgini osib olardilar. It kallasi ularning podshoga itdek sadoqatli ekanliklarini, supurgi esa har qanday sotqinlikni davlatdan supurib tashlashga ahd qilganliklarini anglatishini ko'z-ko'z qilishi kerak edi. Shu tariqa mamlakatda shafqatsiz terror, qatl va surgun davri boshlandi. Shuning uchun Ivan IV «Grozniy» («Dahshatli», «Qo'rqinch-li») laqabi bilan ataldi.



Oprichnina – podsho hokimiyati dushmanlarini zo'rlik va terror vositalari bilan bostirishga urinish siyosati edi.

Oprichnina boyarlarga va feodal tarqoqlik qoldiqlariga kuchli zarba berdi. Ayni paytda oprichnina mamlakat xo'jaligiga katta talafot yetkazdi. O'n minglab dehqonlar va hunarmandlarni xarob qildi.

Bu esa jamiyatning turli qatlamlarida oprichninadan norozilikni kuchaytirdi. Natijada Ivan IV oprichninani bekor qilishga majbur bo'ldi. Biroq mamlakatda terror, ayovsiz qatl davom etaverdi. Krepostnoylik tartiblari kuchaygandan-kuchaydi.

Tashqi siyosat. Rossiya bosqinchilik urushlari olib borish hisobiga sharqqa va janubga tomon kengayib bordi. Chunonchi, XVI asrning ikkinchi yarmida Qozon, Astraxan (Ashtarxon) va Sibir xonliklari bosib olindi. Shu tariqa 1533- yilda 2,8 mln km² ni tashkil etgan Rossiya hududi XVI asr oxiriga kelib 5,4 mln km² ga yetdi.

Notinch, alg'ov-dalg'ovli yillar. 1584- yilda Ivan IV Grozniy vafot etdi. Taxtga uning o'g'li Fyodor Ivanovich o'tqazildi. U kasalmand bo'lganligi uchun amalda hokimiyatni qaynisi, boyar Boris Godunov boshqardi. Fyodor 1598- yilda vafot etdi. Lekin Ivan IV o'g'illaridan taxt vorisi qolmadi. Shu tariqa Rossiyani 700 yil boshqargan Rurikoylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Shunday sharoitda Zemstvo sobori Boris Godunovni podsho etib sayladi.

Boris Godunov 1605- yilda vafot etgach, Rossiya tarixida notinch, alg'ov-dalg'ovli yillar boshlandi. Qisqa vaqt ichida bir nechta podsho almashdi. Ayni paytda Rossiyada boyarlar ta'siri yana kuchaydi. Bundan tashqari, chet davlatlar – Polsha va Shvetsiya Rossiya ichki ishlariga zo'r berib aralasha boshladilar. Polsha hatto 1609- yilda

Moskvani bosib oldi. Hokimiyat Boyarlar guruhi qo'liga o'tdi. Ular Rossiya taxtiga Polsha qirolining o'g'lini o'tqazishga urindilar. Shu orqali o'z imtiyozlarini saqlab qolmoqchi bo'ldilar. Ana shunday og'ir sharoitda Rossiyaning asl vatanparvar kuchlarining yetakchilari posad oqsoqoli Kuzma Minin va sarkarda Dmitriy Pojarskiylar xalq lashkari to'plashga kirishdilar.

1612- yilda Moskva uchun bo'lgan janglarda Polsha qo'shini mag'lubiyatga uchratildi. Shu tariqa Moskva chet el bosqinchilaridan tamomila ozod qilindi. Rossiya ichki va tashqi



7- rasm. M. F. Romanov.

ahvoli qiyinligiga qaramay o'z mustaqilligini saqlab qola oldi. Endi Rossiyaning yangi podshosini saylash masalasini hal etish kerak edi.

1613- yilda Moskvada chaqirilgan Zemstvo sobori Ivan IV Grozniy xotinining qarindoshi Mixail Fyodorovich Romanovni Rossiya podshosi etib sayladi. Shu tariqa Rossiyada yangi sulola – Romanovlar sulolasi hukmronligi davri boshlandi. Bu sulola vakillari 1917- yilgacha hokimiyatni qo'llarida saqlab turdilar.



Boyarlar dumasi – Rus davlatida dastlab knyazlar, so'ng podsho huzuridagi (1547- yildan) Oliy davlat kengashi.

Sudebnik – qonunlar to'plami.

Teror (lotinch –, qo'rqinch, dahshat) – raqiblarni yoqotish yoki qo'rqitish, aholi o'rtasida vahima keltirib chiqarish.



Savol va topshiriqlar

1. Rusni markazlashgan davlatga aylantirish qachon tugallandi va uning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat bo'ldi?
2. Rossiyada qanday boshqaruv tizimi qaror topdi?
3. Ivan IV Grozniy joriy etgan oprichnina nima va undan qanday maqsad ko'zlangan edi?
4. Nega oprichnina siyosati bekor qilindi?
5. Rossiyada Romanovlar sulolasi hukmronligi qay tariqa o'rnatildi?

Mustaqil ish

Angliya, Fransiya qirollari va Rossiya podshosi o'z siyosatlarida amalga oshirgan eng muhim ishlarining ro'yxatini tuzing.

8- §. Niderlandiya inqilobi ✓



Niderlandiya haqida. Niderlandiya XVI asrda hozirgi Belgiya, Lyuksemburg, Gollandiya hududlaridan hamda Fransiyaning bir qismidan iborat bo'lgan. Antverpen shahri (hozirgi Belgiyada) Niderlandiyaning iqtisodiy va savdo markazi edi. U, ayni paytda, jahon savdosining markazi ham bo'lgan. Antverpen Niderlandiyani daryo orqali Germaniya va Fransiya bilan, dengiz orqali esa Angliya hamda Skandinaviya mamlakatlari bilan bog'lar edi. Antverpen ko'chalaridan har kuni kamida 2 mingta savdo furgonlari o'tgan. Turli



mamlakatlardan yuzlab kemalar shahar portiga kirib kelardi. Bir so'z bilan aytganda, Niderlandiya sanoati, savdosi, qishloq xo'jaligi rivojlangan boy mamlakat bo'lgan. Biroq u mustaqil bo'lmagan. Ispaniya uni o'z mulkiga aylantirgan edi.

Qaramlikning oqibatlari. Ispaniya iqtisodiy jihatdan Niderlandiyaga qaraganda qoloq davlat edi. Biroq Ispaniya hamon harbiy qudratini saqlab kelardi. Ispaniya monarxiyasi bu yerda o'zining qoloq boshqaruv tartibini o'rnatdi. Aholi juda katta miqdorda soliq to'lashga majbur etildi. Ispaniya qiroli xazinasiga Niderlandiyadan yig'iladigan soliq miqdori uning Amerikadagi mustamlakalaridan keladigan daromaddan 4 marta ortiq bo'lgan. Niderlandiyada «isloh qilingan din» (protestantlik) tarqala boshlagach, qirol yuqori diniy lavozimlarga ispanlarni tayinlay boshladi. Bu yerda ham inkvizitsiyani va qonli qonunlarni joriy etdi. Ommaviy qirg'inlar uyushtirdi. Bu omillar Niderlandiya xalqining keskin g'azab-nafratini qo'zg'atdi.

Ispaniya zulmiga qarshi qo'zg'olon. Ispaniya qiroli Filipp II ning shafqatsiz siyosati niderland xalqining kuchayib borayotgan noroziligini to'xtata olmadi. Aksincha, xalqning ispan zulmiga qarshi harakati tobora kuchaydi. Bu harakatda aholining keng qatlamlari – burjuaziya, hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar va hatto dvoryanlarning bir qismi qatnashdi. Burjuaziya, ayni paytda, qo'zg'olonga rahbarlik qildi. Ispaniya zulmiga qarshi kurash 1566- yilda qo'zg'olonga aylandi. Qo'zg'olonchilar qisqa vaqt ichida Ispaniya zulmining tayanchi bo'lgan cherkov va monastirlarni vayron qildilar. Katolik ruhoniylar va ispan amaldorlari quvib yuborildi.

Terror tartibining o'rnatilishi. Qo'zg'olonni bostirish uchun Ispaniya qiroli Filipp II gersog Alba boshchiligida saralangan qo'shin yubordi. Alba Niderlandiya hukmdori etib tayinlandi. Alba boshqaruv ishida terrorni, jallod qilichini va inkvizitsiyani qo'lladi. Barcha masalalar «Isyonlar bo'yicha Kengash»da hal etildi. Niderland xalqi Albaning yovuzligi tufayli bu Kengashni «Qonli kengash» deb atadi. Alba shafqatsiz jazo choralari bilangina cheklanib qolmadi. U «o'ndan bir» deb ataluvchi yangi soliq ham joriy etdi. Unga ko'ra, savdogarlar har qanday savdo bitimidan keladigan daromadning 1/10 qismini qirol xazinasiga to'lashga majbur edi.

Biroq Albaning dahshatli jazo choralari ham ozodlik harakatini to'xtata olmadi. Aksincha, niderlandlar kichik-kichik partizan guruhlarini

tuzdilar. Niderlandiyani partizanlar kurashi chulg‘ab oldi. Partizanlar Ispaniya qo‘shiniga qo‘qqisidan hujum qilardi. Tez orada qo‘zg‘olonga Niderlandiya savdo flotining dengizchilari ham qo‘shilishdi. Ular Ispaniyaga qarshi dengiz urushi olib bordilar. Niderlandiya xalqining qo‘zg‘oloni mamlakat shimoliy qismining mustaqillikka erishishi bilan yakunlandi. Burjuaziya 1572- yilda Niderlandiyaning eng boy va obro‘li katta yer egasi Vilgelm Oranskiyni shimoliy hududlar hukmdori deb e‘lon qildi. Ispaniyaning Niderlandiyadagi mavqei tobora zaiflashib bordi. Natijada 1573- yilda Alba Niderlandiyani tark etishga majbur bo‘ldi.

Filipp II faqat janubiy Niderlandiyani o‘z qo‘lida saqlab qola oldi.

Gollandiya Respublikasining tashkil topishi. Ispaniya istalgan vaqtda shimolga qarshi yana hujum qilishi mumkin edi. Bunga qarshi tura olish uchun mamlakat shimolidagi viloyatlar 1579- yilda ittifoq tuzdilar. Bu ittifoq «Utrent uniyasi» deb ataldi. Uniya a‘zolari xuddi yagona viloyat kabi abadiy birlashishga va Ispaniyaga qarshi birgalikda ozodlik uchun kurashishga va‘da berdilar. Ayni paytda Uniya Filipp II ni taxtdan tushirilgan, deb e‘lon qildi.

Bu haqda Uniya qabul qilgan hujjatda, jumladan, bunday deyilgan edi: «Xudo odamlarni hukmdor uchun emas, aksincha, hukmdorni odamlar manfaatlari uchun yaratadi. O‘z fuqarolari manfaati uchun qayg‘urmagan hukmdor endi hukmdor emas. U bo‘ysunishi lozim bo‘lmagan zolimdir». Uniya a‘zolari ichida eng aholisi ko‘pi va eng badavlati Gollandiya edi. Mustaqillikka erishgan shimol shu viloyat nomi bilan Gollandiya Respublikasi deb atala boshlandi. Respublika o‘z mustaqilligini Ispaniyaning tan olishi uchun uzoq vaqt kurash olib borishga majbur bo‘ldi. Faqat 1609- yildagina Ispaniya Gollandiyaning mustaqilligini tan oldi.

Gollandiya Respublikasining tashkil topishi inqilobiy hodisa edi. Bu – Gollandiyada feodal tuzum butunlay barham topdi, degani edi. Endi hokimiyat burjuaziya qo‘liga o‘tdi. Gollandiyada kapitalizm gurkirab rivojlana boshladi. Shu tariqa Gollandiyada jamiyat bir sifat holatidan ikkinchi sifat holatiga o‘tdi. Respublikaning Amsterdam shahri esa Antverpen o‘rniga jahon savdosining markaziga aylandi.



Inqilob (arabcha) – jamiyat rivojlanishida ro‘y beradigan tub sifat o‘zgarishi, eski jamiyatning agdarilishi.

Partizan (fransuzcha) – dushman bosib olgan joylarda ozodlik uchun ko'ngilli ravishda qurolli kurash olib boruvchi.
Furgon – savdo aravasi.



Savol va topshiriqlar

1. XVI asrdagi Niderlandiya o'rnida bugun qanday davlatlar mavjudligini qayd eting va «Dunyo siyosiy xaritasi»dan ularni toping.
2. Niderlandiyaning o'z davrida eng rivojlangan davlatga aylanishini ta'minlagan omillarni qayd eting.
3. Ispaniyaning niderland xalqiga o'tkazgan jabr-zulmlariga misollar keltiring.
4. Niderlandiya xalqining mustaqillik uchun kurashi qanday natijaga olib keldi?
5. Gollandiya Respublikasining tashkil etilishi tarixi haqida nimalarni bilib oldingiz?

9- §. Yevropada Uyg'onish davri madaniyati



Uyg'onish davri haqida. Uyg'onish davri deyilganda ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat va tafakkur yuksalgan davr tushuniladi. Bunday davr dastlab Markaziy Osiyoda IX–XII va XIV–XV asrlarda yuz bergan. Bu haqda Siz VII sinf «O'zbekiston tarixi» darsligi kitobidan ma'lumot olgansiz. XIV–XVII asrlarda G'arbiy Yevropada ham bu hodisa yuz bergan va u Renessans deb atalgan. Bu masala bilan shug'ullanuvchi olimlar Uyg'onish davrini O'rta asrlar turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholaganlar. G'arbiy Yevropada Uyg'onish davri o'z-o'zidan yuz berib qolmagan. U O'rta Osiyo Uyg'onish davrining bevosita ta'sirida yuz bergan. G'arbiy Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilarini quyidagilar tashkil etgan:

- jaholat va mutaassiblikni rad etish;
- insonni ulug'lash; uning iste'dodi, aqliy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish;
- antik davr (qadimgi Yunon va Rim) madaniyatini tiklash va boyitish;
- adabiyot va san'atda narigi dunyoni emas, hayotdagi go'zallikni kuylash;
- inson erki uchun kurash.

Uyg'onish davri yuz berishining sabablari. Ilm-fan sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar va Buyuk geografik kashfiyotlar odamlarning olam haqidagi tasavvurlarini o'zgartirib yubordi. Ayni paytda madaniy aloqalarning kengayishiga imkon yaratdi.

Shunday sharoitda bu davrning ilg'or allomalari havas qilsa arziydigan, bekami-ko'st namunani izlaganlar. Bunday namuna vazifasini qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati o'ynagan. Shu tariqa qadimgi Yunon va Rim madaniyati qayta «tiriltirilgan».


Uyg'onish davrining vatani Italiya bo'ldi. Bu bejiz emas edi. Chunki G'arbiy Yevropaning boshqa davlatlariga nisbatan Italiyada kapitalizm ertaroq vujudga kelgan va tezroq rivojlana boshlagan.

Boy savdogarlar, manufaktura egalari, bank egalari bo'sh vaqtlarini sayohatlar, savdo kelishuvlari, o'qish va ilm o'rganish bilan o'tkazganlar. Kundalik hayotlarini foydali va chiroyli qilishga, narigi dunyoni emas, bu yorug' dunyoning hayotiy ne'matlaridan bahramand bo'lishga intilganlar. Burjuaziyaning ma'lumoti tobora ortib bordi. U nafaqat pulni, balki ilmni ham qadrlardi, san'atni tushunardi. Ayni paytda, ular ilm-fan va san'at ravnaqiga homiylik ham qilardi.

Badavlat kishilarning buyurtmasi bilan mahobatli binolar qurildi. Ular suratlar, devor bezaklari va haykallar bilan bezatildi. Noyob san'at asarlarini yig'a boshladilar. Odamlar hayotida teatr katta rol o'ynay boshladi. Badavlat kishilar kiyinishi ularning asketizmdan voz kechganligini namoyish etadigan bo'ldi.

Adabiyot. Uyg'onish davri adabiyoti va san'atida o'z davrining buyuk kishilari ijod qildilar. Saxiy tabiat ularning har biriga ko'p qirrali noyob qobiliyat in'om etgan edi.

Bunday noyob qobiliyat egalaridan biri Uilyam Shekspir (1564–1616) bo'lgan. U: «Inson – tabiatning ajoyib mo'jizasi», deb hisoblardi. U. Shekspir teatrga muhabbat qo'ydi. Ham aktyor, ham dramaturg sifatida ijod qildi. U. Shekspir insonlarni o'rab turgan olamni sahna, odamlarni esa aktyorlar deb tasavvur qilardi.



8- rasm. Uilyam Shekspir.

Teatrning odamlarni taqdir zarbasidan bukilmalikka o'rgatuvchi, sotqinlik va ikkiyuzlamachilikdan nafratlanish hissini tarbiyalovchi, tubanlikka qarshi kurashga o'rgatuvchi maktab bo'lib qolishiga astoydil ishonib yashadi. U. Shekspir asarlarining qahramonlari dono va mashhur kishilar edi. Ular sevganlar va azob chekkanlar. Xato qilganlarida esa hafsalasi pir bo'lgan. Biroq, ular o'z baxtlari uchun kurashganlar va bu kurashda, afsuski, yengilganlar. Chunonchi, «Otello» tragediyasida tuhmatga ishongan Otello o'z sevgilisi Dezdemonani bo'g'ib o'ldiradi. «Gamlet» tragediyasida esa zaharlangan xanjar Gamletni halok qiladi.

«Qiroli Lir» asari qahramoni qiroli Lir esa o'z qizlari tomonidan daydib yurishga va gadolikka mahkum etiladi. «Romeo va Julyetta» asarida esa o'rta asr jaholati oqibatida Romeo va Julyettalar halok bo'ladilar. Lekin hech narsa U. Shekspir qahramonlarini erkinlikdek yuksak va yorug' tuyg'ulardan voz kechishga majbur eta olmaydi. Shu tariqa mag'lubiyat va o'limga qaramasdan, Shekspiring: «Inson – tabiatning ajoyib mo'jizasi!» degan fikri uning asarlarida o'z tasdig'ini topadi.

Bu davr madaniyatining yana bir yirik arbobi, ispan yozuvchisi Migel de Servantesdir (1547–1616). Uning mashhur «Don Kixot» asari qahramoni, jahongashta Don Kixot adolatsizlik olamidagi so'nggi olijanob ritsar. U odamlar hayoti biroz bo'lsa-da, yaxshi bo'lishiga yordamlashish yo'lida qo'lidan kelganicha harakat qiladi. Bu ish uning hayotdagi: «Erkinlik uchun xuddi shon-sharaf uchun qilinganidek, jonni xavfga qo'yish kerak» shiorining amaldagi ifodasi edi.

Tasviriy san'at. Uyg'onish davri madaniyatining yana bir buyuk namoyandasi Italiyalik Leonardo da Vinchidir (1452–1519). U bir vaqtning o'zida ham rassom, ham shoir, ham me'mor, ham haykaltarosh, ham musiqachi, ham ixtirochi edi. Leonardo rasm ehizish san'atini «san'atlar malikasi» deb atagan. Buyuk rassom bir paytning o'zida zehni izlanuvchan olim ham edi. Uning asarlari qahramonlari xudolar va avliyolar emas, balki oddiy odamlar edi. «Chaqaloq tutgan Madonna» rasmi buning yorqin dalilidir. Ona go'dagini ko'kragiga bosib, avaylab quchoqlab turibdi va unga yengil yarim tabassum qilmoqda, yer esa onaning o'z go'dagiga cheksiz muhabbatini anglatib turibdi. Leonardoning «Maxfiy kecha» deb nomlangan devoriy rasmi ham mashhurdir. Injildagi rivoyatga ko'ra, Iso payg'ambar o'limidan oldin shogirdlarini oxirgi marta to'plagan. Isoning shogirdlariga hozirgina

aytgan «Sizlardan biringiz meni sotasiz», degan bashorati tasviri. Shogirdlar uning bu soʻzidan qotib qolishgan. Ularning yuzida hayrat, qoʻrquv, gʻazab va ishonchsizlik. Iso esa xotirjam, ayni paytda qaygʻuli. Faqat uning holsiz qoʻllari taqdirga boʻysunganligini, soʻzsiz halokat muqarrarligini ifodalab turibdi.

✦ Bu davrning buyuk Italiyalik rassomlaridan yana biri **Rafael Santi (1483–1520)** edi. U atigi 37 yil umr koʻrdi, xolos. Lekin shu qisqa davr ichida oʻz nomini abadiylikka muhrlagan asarlar yarata oldi. U yaratgan asarlar ichida «Sikstin madonnasi» mashhurdir.

Zamondoshlari «Sikstin madonnasi» asariga «shu xildagilarning yagonasi» deb baho berishgan edi. Unda oyoqyalang Bibi Maryam goʻyo bulutlarni bosmaganday, ohista ularning ustida uchib yurganday. U oʻz qismatiga peshvoz chiqmoqda. Hali goʻdak Isoning nigohlari kattalarnikidek jiddiy. U goʻyo kelajakdagi azoblar va oʻlimni oldindan sezayotganday. Onaning qarashlarida ham qaygʻu va xavotir bor. U oldindan nima boʻlishini biladi. Shunga qaramasdan oʻgʻlining hayoti evaziga haq yoʻllari ochiladigan odamlar tomon oldinga yuradi.

✦ Gollandiyalik mashhur rassom Rembrandt (1606–1669) yaratgan asarlar ichida eng mashhuri «Adashgan oʻgʻilning qaytishi» rasmi edi.

Bu asarni muallif hayotining eng ogʻir damlarida – oʻgʻlining oʻlimidan soʻng yaratgan. Injilda oilasini tashlab ketib, uzoq vaqt sangʻib yurgan, barcha boyliklari tugagach, ortga qaytgan oʻgʻilni ota kechiradi va uyiga qabul qiladi. Rembrandt oʻz asarida ota va oʻgʻilning uchrashuv paytini aks ettirgan. Adashgan oʻgʻil uy ostonasi oldiga tiz choʻkib turibdi. Yirtiq kiyim va sochsiz bosh oʻtgan umr kulfatlarining guvohi. Koʻr, keksa otaning barmoqlari oʻgʻilning yelkasiga tegayapti. Qoʻl harakati bu dunyodan qariyb umidini uzgan odamning yorqin quvonchini va cheksiz muhabbatini anglatadi.



Blesk. 9- rasm. Adashgan oʻgʻilning qaytishi.

Rembrandt asari

Haykaltaroshlik. Bu davr haykaltaroshlari haykaltaroshlik san'atini san'atlarning birinchisi, u insonni, uning go'zalligini hamma boshqa san'at turlaridan yaxshiroq sharaflaydi, deb hisoblaganlar. Ularning eng mashhuri **Italiyalik Mikelanjelo (1475–1564)** edi. U o'zining o'lmas asarlari bilan tarixda abadiy iz qoldirdi. U san'at haqida bir she'rida, jumladan, quyidagilarni bitgan: «Tiriklikdan, borliqdan ko'ra, san'atning qismati buyukdir har dam, uni yenga olmas vaqt ham, o'lim ham». San'atkor yaratgan «**David**» haykali asari uning nomini abadiylikka «mahkum» etdi. Injil rivoyatlariga ko'ra, yosh cho'pon yigit David dahshatli devsfat Goliat bilan jangga tushishga jur'at qiladi va uni tosh bilan urib o'ldiradi. Haykaltarosh Mikelanjelo esa jang oldida turgan Davidni tasvirlagan. Uning yuzi g'azabga to'la. Bu haykal o'zining balandligi va go'zalligi bilan o'zigacha yaratilgan barcha asarlarni ortda qoldirdi.

Pyotr sobori Rimning va Yevropaning bosh katolik ibodatxonasidir. Yuz yildan ortiq davr mobaynida bunyod etilgan bu sobor qurilishini Mikelanjelo nihoyasiga yetkazdi.



Asketizm (yunoncha) — ~~tuyg'u va istaklarni cheklash yoki bostirish, azab tortish, hayot na'matlaridan voz kechish.~~

Renessans (fransuzcha) – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq) – G'arbiy Yevropada Uyg'onish davrini anglatuvchi atama.



Savol va topshiriqlar

1. «Uyg'onish davri» atamasiga izoh bering.
2. G'arbiy Yevropada Uyg'onish davrining o'ziga xos asosiy belgilarini qayd eting.
3. Uyg'onish davri yuz berishining sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Uilyam Shekspir ijodi haqida so'zlab bering.
5. Leonardo da Vinchi, Rafael va Rembrandt ijodlarini taqqoslang.

Mustaqil ish

«O'zbekiston tarixi» darsligi kitobingizdan foydalanib, XVI asrda G'arbiy Yevropada Uyg'onish davri davom etayotgan bir paytda, O'rta Osiyo madaniyati va ilm-fanida qanday jarayon yuz berganligini aniqlang.

10- §. Ilm-fan taraqqiyoti



Tabiat fanlari sohasidagi buyuk o'zgarishlar. XVI–XVII asrlarda ilm-fan taraqqiyotida katta yutuqlarga erishildi. Bu davrda fizika va astronomiya fanlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk olimlar Nikolay Kopernik (1473–1543), Jordano Bruno (1548–1600) va Galileo Galiley (1564–1642)lar yashab ijod qildilar.

Nikolay Kopernik o'z davri uchun har tomonlama chuqur bilim oldi. Krakov (Polsha) va Italiya universitetlarida o'qidi. Tasviriy san'at, matematika, falsafa, huquqshunoslik va tibbiyot kabi fanlarni o'rgandi. Maxsus moslamalar yordamida 30 yil davomida osmon jismlarini kuzatdi.

N. Kopernik o'z tadqiqotlariga suyanib, ming yillardan beri davom etib kelayotgan Yerning harakatsizligi haqidagi ta'limotdan voz kechdi. *Yerning Quyosh va o'z o'qi atrofida aylanishini isbotlab berdi. Bu xulosa o'sha davr fanidagi haqiqiy buyuk kashfiyot edi.* Ayni paytda u cherkov aqidalariga mutlaqo zid xulosa ham edi. U o'z xulosalarini 1543- yilda chop etilgan «Osmon jismlarining aylanishi haqida» deb atagan kitobida bayon etdi. N. Kopernikning xulosalari cherkovni g'azablantirdi. Kitob chop etilgan davrda u o'lim to'shagida yotardi. Faqat o'lingina uni inkvizitsiyadan asrab qoldi. Keyinchalik, 1616- yilda cherkov Kopernik ta'limotini rasman taqiqladi.




VII sinf «Jahon tarixi»dan olgan bilimlaringizga tayanib inkvizitsiya nima ekanligini tushuntirib bering.

Jordano Bruno. 1600- yil 17- fevral kuni Rim shahrida erkinlik va hurfikrlik dushmani inkvizitsiya hukmi bilan italiyalik faylasuf, astronom va shoir Jordano Bruno gulxanda kuydirilib o'ldirildi.

Xo'sh, nega shunday bo'ldi? Jordano Bruno dunyoqarashiga ko'ra, panteizm tarafdori edi. Yoshligidan xristian dini asoslari bilan birgalikda N. Kopernik ta'limotini o'rgandi. U turli ta'limotlar bo'yicha o'zining mustaqil fikriga ega shaxs bo'lib voyaga yetdi. Shu tufayli u har qanday ta'limotga tanqidiy ko'z bilan qarardi. Uning qarashlari xristian cherkovi aqidalarini shubha ostiga qo'ya boshladi.

J. Bruno o'z qarashlarini «Nola falsafasi» deb atadi. Unda olamning cheksizligi to'g'risidagi ta'limot ilgari surildi. U bunday deb yozgan edi: «Olam cheksiz, o'lchovsiz, uning oxiri yo'q. Olam markazga ega emas. Yer ham, Quyosh ham olamning markazi emas. Olam – son-sanoqsiz yulduzlardir



10- rasm. Jordano Bruno.

va har bir yulduz yiroqdagi bir quyoshdir. Ularning har biri atrofida o'z yo'ldoshlari aylanadi. Olam abadiy mavjud va u yo'q bo'lmaydi».

Inkvizitsiya uni gulxanda yoqib o'ldirishga hukm qildi. Keyingi avlod unga haykal o'rnatdi. Haykal ostiga esa: «*U barcha xalqlar uchun fikr erkinligini talab qildi va shu talabi uchun qatl etildi*», deb yozib qo'yildi.

Galileo Galiley. G. Galiley ham italiyalik (1564–1642) buyuk astronom edi. U osmon jismlarini kuzatuvchi asbob – *teleskopni* yaratdi va shu

teleskop bilan osmonni kuzatgan Yevropaning birinchi olimi edi. Uning tadqiqot ishlari Kopernikning ta'limotini tasdiqladi. G. Galiley bundan tashqari Oyda ham Yerdagi kabi tog'lar borligini va hatto Quyoshda dog'lar mavjudligini qayd etdi.

G. Galiley o'z qarashlarini «Yulduzlar axboroti» kitobida bayon etdi. Cherkov bu kitobni taqiqlangan adabiyotlar ro'yxatiga kiritdi. Inkvizitsiya esa uning kashfiyotlarini qoraladi.

Keksa, kasalmand Galiley besh oy davomida tergov qilindi. Tergov uning tinka-madorini quritdi. Manbalarda bunday deb yozilgan edi: «Bu xo'rliklar olimning buyuk g'oyalaridan voz kechishi va uqubatlardan yengilgan odanning azoblanishiga olib keldi». Oxir-oqibatda, inkvizitsiya uni o'z g'oyalaridan voz kechishga majbur etdi.

BUNI O'QING

«Nikolay Kopernik hamda keyinchalik uning izidan borib, johil va aqidaparast ruhoniylar tomonidan o'tga tashlangan Jordano Bruno, qanchadan qancha ta'na va malomatlarga giriftor etilgan Galileo Galiley kabi allomalarning jasoratiga... haqiqatga sadoqat, e'tiqod uchun kurashning yorqin namunasi yaqqol namoyon bo'lganini ko'ramiz». I. Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T., «Ma'naviyat», 2008 y., 162- bet»

«**Yashash, erkinlik va mulkka egalik huquqi**». Bu davrda falsafa fani ham rivojlandi. Bu borada Angliyada katta muvaffaqiyatlarga erishildi.

Ayniqsa, XVII asrda ijod qilgan Jon Lokk ilgari surgan g'oyalari keyingi asr faylasuflariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Uning asosiy xizmati *insonning yashash, erkinlik va mulkka egalik qilish huquqlari haqidagi ta'limotni yaratganligi bilan* belgilanadi.

Lokk, shuningdek, davlat hokimiyatini bo'lish, ya'ni ijro etuvchi hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni ham ilgari surdi. Siz O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini o'rganish jarayonida bunday bo'linish nima ekanligini bilib olasiz.

Yangi ixtirolar. XVI–XVII asrlar yangi ixtirolar davri ham bo'ldi. Odamlar uchun energiyani yangi manbalari juda zarur edi. Busiz ishlab chiqarishni yanada rivojlantirishning iloji yo'q edi.

XVI asrdan boshlab odamlar suv va shamoldan energiyani yangi manbai sifatida foydalanishni o'rganib oldilar. Chunonchi, shu davrdan boshlab shamol-tegirmon ixtiro qilindi. Shunday tegirmon g'ildiragi beradigan energiya yordamida teriga ishlov berildi va ruda maydalandi. Bu davrda tokarlik dastgohining ixtiro qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, ixtirolarning anchagina qismini tog'-kon sanoati sohasidagi ixtirolar tashkil etdi. Chunki shaxta konlari chuqurligi 200 metrdan 800 metrgacha yetgan edi. Bu esa shaxtalardagi suvni chiqarib tashlash ishini dolzarb muammoga aylantirib qo'ydi. Inson aqli bu muammoni o'sha davr sharoitida hal etishning yo'lini topdi ham. Chunonchi, shaxtalardagi suvni tortib oladigan pompa deb ataluvchi nasos ixtiro qilindi. Bu ixtiro shaxtadan suvni qo'l kuchi bilan chiqarishga jalb etilayotgan 600 kishining o'rmini bosdi.

XVII asrda ruda portlatish yo'li bilan olina boshlandi. Olingan ruda esa yog'och izlarda yuruvchi kichik vagonchalarda tashila boshlandi. Bu davrning yana bir yangiligi – toshko'mirdan foydalanish bo'ldi. Tog'-kon sanoati va metallurgiya rivojlangan hududlarda o'rmonlar maydoni tobora qisqarib bordi. Bu omil toshko'mirdan foydalanishning o'ylab topilishiga olib keldi. Angliya ko'mir qazib chiqarish markaziga aylandi.

1540-yildan 1640-yilgacha o'tgan yuz yil ichida ko'mir qazib chiqarish 250 ming tonnadan 1,5 mln tonnaga yetdi. Toshko'mir mamlakat hayotida kumushdan kam baholanmas edi. Yangi-yangi ixtirolar kitob chop qilish borasida ham yangilik yaratilishiga olib keldi. Chunonchi, endi suratli kitoblar ham chop etila boshlandi.



Panteizm – xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi, deb hisoblovchi ta'limot.



Savol va topshiriqlar

1. N. Kopernik qanday olamshumul kashfiyotni amalga oshirdi?
2. Nega inkvizitsiya J. Brunoni gulxanda kuydirib o'ldirishga hukm qildi?
3. G. Galileyning ijodi va ayanchli taqdiri haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Cherkov ilm-fan namoyandalari qarshi kurashda qanday usullardan foydalangan?
5. XVI–XVII asrlarda qanday yangi ixtirolar amalga oshirildi?

BUNI O'QING

1992- yilda Rim Papasi Ioann Pavel II (marhum) G. Galileyga nisbatan inkvizitsiya sudi qarori bekor qilinganligini va G. Galileyning oqlanganligini e'lon qildi. Ayni paytda u inkvizitsiyaning buyuk olimga nisbatan o'tkazgan zulmi uchun kechirim so'radi.

11 §. Angliyada burjua inqilobining boshlanishi



Angliya inqilob arafasida. XVI asr Angliya uchun muvaffaqiyatli yakunlandi. Dengizdagi yakka hukmronlik uning chet ellar bilan savdo-sotiq ishlarini tobora kengaytirib bordi. London tashqi savdoda monopol huquqni qo'lga kiritdi. Natijada bu shaharda badavlat savdogarlar guruhi vujudga keldi. Ichki savdo ham rivojlandi. 1600- yilda Londonda dastlabki *birja* ochildi. Qishloq xo'jaligida ham bozor munosabatlarining qaror topishi tezlashdi. Bu omillarning barchasi katta mavqega ega bo'lgan o'rta tabaqaning shakllanishiga olib keldi. Ular, asosan, «isloh qilingan din»ga e'tiqod qilar edilar.



Isloh qilingan din qanday nom bilan atalganligini eslang.

O'rta tabaqa vakillari qirol hokimiyatini inkor etmagan. Aksincha, uning parlament bilan hisoblashishining tarafdori bo'lganlar. Burjuacha hayot tarzi – tejamkorlik, mehnatsevarlik va izlanuvchanlik jihatlari tobora chuqur ildiz otib bordi.

Inqilobning sabablari. Angliya qirol mamlakat parlamenti va «isloh qilingan din» cherkoviga qarshi kurash boshladi. Buning oqibatida vujudga

kelgan qarama-qarshilik inqilobning asosiy sababiga aylandi. Qirol Yakov I ning maqsadi parlament mavqeini yo'qqa chiqarish va eski feodal tartiblarni saqlab qolish edi. Qirol mahsulot sifati yomonlashadi, degan bahona bilan yangi ixtirolarni qo'llashni taqiqlab qo'ydi. Bu esa manufaktura ishlab chiqarishi rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hukmron tabaqa, davlat amaldorlari o'rtasida davlat xazinasini talon-taroj qilish kuchaydi. Qirol hatto ba'zi tovarlarni ishlab chiqarish va sotish uchun ruxsatnomani tadbirkor va savdogarlarga xohlagan narxda o'zi sotar edi. Oqibatda savdogarlar xarajatlarni qoplash uchun narx-navoni oshirishga majbur bo'lardilar. Yakov I ning tashqi siyosatidan ham burjuaziyaning noroziligi kuchayib bordi. Bunga bosh raqib Ispaniya bilan murosasozlik qilinayotganligi asosiy sabab bo'ldi.

Karl I qirolligi davrida (1625–1649) ham vaziyat o'zgarmadi. U jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarni tushunish va ularni qabul qilishni istamadi. Aksincha, Karl I Fransiya monarxi kabi cheklanmagan huquqqa ega bo'lishga intildi. Ayni paytda yangi – kapitalistik jamiyat tarafdorlari ham qo'l qovushtirib o'tirmadi. Parlament amalda ularning qo'lida edi. 1628- yilda parlament qirolning «Huquqlar to'g'risidagi bill» va «Huquqlar to'g'risidagi petitsiya»ni imzolashiga erishdi. Bu ikki hujjat qirolga parlament roziligisiz birorta yangi soliq joriy etmaslik va sudning ruxsatisiz qamoqqa olishlarni taqiqlash majburiyatini yukladi. Bunga javoban qirol parlamentni tarqatib yubordi. Shu tariqa mamlakatda qirolning yakka hukmronligi o'ratildi.



Bu hujjatlardan bir necha o'n yillar avval qabul qilingan «Erkinlikning buyuk xartiyasi» hujjati va uning mazmuni yodingizdami?

Burjuaziya vakillari, savdogarlar, yangi dvoryanlar, hurfikrli dindorlar ham davlat ishlaridan chetlatildi. Mamlakatda senzura kuchaydi. Mavjud siyosiy raqiblar sud ta'qibiga duchor etildi. Natijada fuqarolarning chet ellarga chiqib ketishlari kuchaydi. Qirol o'z tarafdorlariga ichki va tashqi savdoda katta monopol huquqlar berdi. Bu siyosat narx-navoning ko'tarilishiga olib keldi.

Bundan savdogarlar, yangi dvoryanlar, hunarmandlar va barcha oddiy kishilar jabr ko'rdilar. Buning ustiga shu orada Shotlandiya Angliyaga hujum qildi. Bu esa vaziyatni yanada og'irlashtirib yubordi. Yuqorida qayd etilgan barcha omillar Angliyada inqilob yuz berishini muqarrar qilib qo'ydi.

Inqilobning boshlanishi. Shunday sharoitda qirol muxolifatning talabi bilan parlamentni chaqirishga majbur bo'ldi. 1640- yilning 3- noyabrda parlament ish boshladi. Bu sana Angliya burjua inqilobining boshlanishi kuni bo'ldi. Jamoalar palatasining katta qismini eski tuzumga qarshi tabaqa vakillari tashkil etdi. Parlament birinchi navbatda favqulodda sudlarni tarqatib yubordi. Cherkov sudini ruhoniylar bo'lmagan shaxslarni sud qilish huquqidan mahrum etdi. Qirol huzuridagi «Maxfiy kengash»ning Oliy sudni amalga oshirish vakolati bekor qilindi. Siyosiy mahbuslar ozodlikka chiqarildi. Matbuot mustaqilligi e'lon qilindi. Qonunsiz to'lovlar va jarimalar bekor qilindi. Qirol parlamentning jamoalar palatasini shu palataning roziligisiz tarqatmaslik to'g'risidagi qonunni imzolashga majbur etildi.

Karl I ning o'zi istamagan holda bularga rozilik berishdan boshqa iloji qolmadi, biroq u qulay fursat poylardi. 1641- yilda parlamentning «Buyuk remonstratsiya» deb nomlangan hujjatni qabul qilishi qirol va parlament munosabatlarini yanada keskinlashtirib yubordi. Bu hujjatda, jumladan, bunday deb yozilgan edi: «Barcha kulfatlarning ildizi – asosiy qonunlarni yo'qqa chiqarish maqsadida qilinayotgan yovuz niyatli badkirdor urinishlar va ingliz qirolligining dinni hamda adolatni ko'mib tashlagan boshqaruvi asoslaridir». Bu hujjat qirol oldiga juda muhim talablarni qo'ydi. Lekin Karl I bu talablarni bajarmadi.

Shu tariqa 1642- yilning boshlariga kelib Karl I bilan parlament o'rtasida uzil-kesil ajralish ro'y berdi. Endi qirol isyonkor parlamentni jazolashga va muxolifat rahbarlarini hibsga olishga qaror qildi. Shunday sharoitda, Londonning yuz ming aholisi parlamentni himoya qilib ko'chaga chiqdi. Yangi dvoryanlarning 5 ming kishilik qurollangan guruhi Londonga yuborildi. Bu omillar qirolni chekinishga va Londondan qochib ketishga majbur etdi. Shu tariqa Angliya ikki dushman lageriga bo'lindi.



Bill (inglizchga) – Qonun loyihasi, Konstitutsiyaga tenglashtirilgan hujjatlarning nomi.

Birja (nemischa – hamyon) – tovarlar va qimmatbaho qog'ozlar ulgurji savdosi bozori.

Muxolifat (arabcha – kelishmovchilik, munosabatning teskarilashuvi) – amaldagi hukumat, uning siyosati bilan kelishmay boshqacha faoliyat yuritish tarafdorlari.

Monopol huquq – yagona, yakka, davlatning yoki shaxsning savdo qilish va ishlab chiqarishga egalik qilishi.

Petitsiya (lotincha) – oliy davlat yoki hukumat boshlig'iga ko'pchilik tomonidan birgalikda beriladigan rasmiy ariza, iltimosnoma.

Remonstratsiya (lotincha) – norozilik hujjati.

Siyosiy mahbus – mavjud tuzumga yoki hukmdorga qarshiligi uchun qamoqqa tashlangan shaxs.

Favqulodda sud – alohida voqealar, hodisalar yoki sharoit talabi bilan joriy etiladigan sud.

Senzura (lotincha – ro'yxatga olaman) – mavjud hokimiyat siyosatiga zid bo'lgan g'oya va ma'lumotlarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik yoki uni cheklash maqsadida matbuot ustidan o'rnatiladigan davlat nazorati.

O'rta tabaqa – aholining o'ziga to'q qatlami.



Savol va topshiriqlar

1. Angliya burjua inqilobining sabablarini «birinchidan»; «ikkinchidan» degan tartib asosida qayd eting.
2. Nega o'rta tabaqa vakillari qirol hokimiyatining butunlay tugatilishini istamagan?
3. Inqilob qay tarzda boshlandi?
4. 1642- yilda qirol bilan parlament o'rtasida yuz bergan uzil-kesil ajralishning sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz va u qanday natijaga olib keldi?

Mustaqil ish

«Iqtisodiyot va biznes asoslari» darsligingiz materiallari asosida «Bozor iqtisodiyoti» tushunchasiga berilgan ta'rifni va bozor iqtisodiyotining asosiy belgilarini aniqlang hamda ularni daftaringizga yozib oling.

12- §. Angliyada fuqarolar urushi va uning oqibatlari



Fuqarolar urushining boshlanishi. Angliyada burjuaziya boshchiligidagi yangi tuzum tarafdorlari bilan qirol va uning tarafdori bo'lgan katta yer-mulk egalari o'rtasida 1642- yilning yozida fuqarolar urushi boshlandi. 1643- yilda burjuaziya qo'lida bo'lgan parlament bilan Shotlandiya o'rtasida ittifoq tuzildi. Ikki tomonning birlashgan qo'shini qirol qo'shinining ustidan g'alaba qozondi. Bu g'alabada Oliver Kromvelning qo'mondonlik mahorati katta rol o'ynadi.



11- rasm. Oliver Kromvel.

Parlament o'z qo'shinini mustahkamlash to'g'risida qaror qabul qildi. Bu qaror natijasida parlament intizomli va yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan qo'shinga ega bo'ldi. 1645- yilning 14- iyunida Neyzbi qishlog'i yaqinidagi hal qiluvchi jangda qirol qo'shini tor-mor etildi. Qirolning o'zi qochib ketdi. 1646- yilda qirol yashiringan Oksfordning taslim bo'lishi bilan fuqarolar urushi tugadi. Bu urushda parlament to'la g'alaba qozondi. Parlament hokimiyatni qo'lga olgach, qator islohotlar o'tkazdi. Chu-

nonchi, yangi dvoryanlar feodal to'lovlardan ozod etildi. Ularning qo'lidagi yer-mulklar o'zlariga xususiy mulk qilib berildi. Savdogarlar savdo ishlarini yuritish uchun ruxsatnoma olib o'tirmaydigan bo'ldi. Qirol, qirol tarafdorlari va yepiskoplarning yerlari musodara qilindi. Cherkov parlamentga bo'y-sundirildi.

Respublikaning tashkil etilishi. 1649- yilda parlament qirollik hokimiyatini «keraksiz, xalq farovonligi uchun zararli va xavfli» bo'lganligi uchun bekor qildi. Lordlar palatasi ham tarqatib yuborildi. 19- may kuni esa **Angliya Respublika deb e'lon qilindi.** Barcha hokimiyat to'laligicha o'zini «ingliz ozodligining asrovchisi» deb hisoblovchi bir palatali parlament qo'lga o'tdi. Ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiruvchi Kengash tuzildi. Oliver Kromvel bu Kengash rahbari etib tayinlandi. Kromvel Angliya hududini kengaytirish siyosatini yuritdi. Chunonchi, 1649- yilda Irlandiyani, biroz fursatdan so'ng Shotlandiyani bosib oldi. Ularning mustaqilligi tugatildi. Bu xizmatlari uchun parlament uni sovg'alarga ko'mib tashladi.

Harbiy diktaturaning o'rnatilishi. Inqilobdan so'ng parlament mamlakatda fuqarolar totuvligini ta'minlay olmadi. Bunga aholining quyi tabaqalari manfaatlarini hisobga olmaslik hamda narx-navoning o'sishi va ommaviy ishsizlikning kuchayishi sabab bo'ldi. Parlament o'z obro'sini yo'qota boshladi. Shunday sharoitda hukmron tabaqalar mamlakatdagi tartibsizliklarga barham bera oladigan kuchli yakka shaxs hokimiyati o'rnatilishi zarur, degan qarorga keldilar. Hukmron tabaqa fikricha, Kromvel ana shunday shaxs edi.

1653- yilda hukmron tabaqaning xohish-istagi bilan Kromvel parlamentni tarqatib yubordi va butun hokimiyatni o'z qo'lga oldi. U «Ozod davlat



Angliya, Shotlandiya va Irlandiyaning Lord-protectori» deb eʼlon qilindi. Shu tariqa mamlakatda Kromvelning harbiy diktaturasi oʻrnatildi. Bu esa amalda davlat toʻntarishi edi. Kromvel avvalgi parlamentning yangi dvoryanlar va burjuaziya manfaatlarini himoya qiluvchi barcha qarorlarini tasdiqladi.

Kromvel vijdon erkinligini ham eʼlon qildi. Bu uning eng katta xizmatlaridan biri edi.

Kromvelning tashqi siyosati ham hukmron tabaqa manfaatiga toʻlmas keldi. Chunonchi, 1654- yilda dengiz savdosidagi asosiy raqib – Gollandiyaning magʻlubiyatga uchratilishi, keyinchalik Ispaniya ustidan ham gʻalaba qozonishi buning yorqin dalillari boʻldi. Bu gʻalabalardan soʻng Kromvel haqida manbalarda: «Qitʻaning kalitlari uning belida osigʻliq», degan jumlar ham qayd etildi.

1688- yilgi saroy toʻntarishi. (1658- yilda) Kromvel vafot etdi. Uning oʻlimidan ikki yil oʻtgach Respublika tuzumi ham barham topdi. Yangi dvoryanlar va burjuaziya mamlakatda Respublika tuzumidan norozi boʻlgan katta yer egalari kayfiyatini ham hisobga olib monarxiyani qayta tiklashga qaror qildi. Boʻlajak monarx oldiga inqilob oqibatida yangi dvoryanlar va burjuaziya qoʻlga kiritgan imtiyozlarni tan olish hamda parlament bilan kelishib ishlash sharti qoʻyildi. 1660- yilda monarxiya qayta tiklandi. Taxtga qatl etilgan qirol Karl I ning oʻgʻli Karl II oʻtqazildi.

1685- yilda uning ukasi Yakov II taxtni egalladi. U mamlakatda katolik dinini tiklashga kirishdi. Bu esa aholi oʻrtasida keskin norozilikni vujudga keltirdi. Burjuaziya va yangi dvoryanlar shunday sharoitda Yakov II ni taxtdan mahrum qilishga, uning kuyovi – Gollandiya hukmdori Vilgelm III Oranskiy ni Angliya taxtiga oʻtqazishga qaror qildilar. Vilgelm Oranskiy protestant edi. Uning Angliya taxtiga oʻtirishi mamlakatda katoliklikning kuchayishi xavfini butunlay bartaraf etardi.

1688- yilda Vilgelm III Oranskiy oʻz qoʻshini bilan Londonga kirib keldi. Yakov II esa Fransiya ga qochib ketdi. Shu tariqa Angliya tarixida navbatdagi saroy toʻntarishi amalga oshirildi. Bu toʻntarish «Sharafli inqilob» deb ataldi. «Sharafli inqilob» uzoq davom etgan qirol va parlament oʻrtasidagi oʻzaro kurashga chek qoʻydi. Vilgelm III Oranskiy parlament shartlariga rozi boʻlganligi tufayligina taxtni egallay oldi. Parlament qirolga parlamentning, qirolning hamda hukumatning huquq va majburiyatlari yozilgan «Huquqlar deklaratsiyasi» deb nomlangan hujjatni taqdim etdi.

Qiro l bu hujjatni imzoladi. Unga ko'ra, qiro l qo'shin, sud, mamlakat moliyasi ustidan bo'lgan hukmronlikdan mahrum bo'ldi. Shu tariqa parlament bilan qiro l o'rtasidagi kurash parlamentning g'alabasi bilan yakunlandi. Endi Angliyada kuchli parlamentli – cheklangan monarxiya tuzumi o'rnatildi.

Topshiriq

VIII sinf «O'zbekiston davlati va huquqi asoslari» darsligingizdan cheklangan monarxiya yana qanday boshqacha nom bilan atalishini toping.

Angliya burjua inqilobining tarixiy ahamiyati. Inqilob mutlaq monarxiyani yo'q qildi. Angliyada bozor munosabatlariga asoslangan yangi jamiyat – kapitalizmning to'la qaror topishi uchun sharoit yaratdi. Natijada sanoat ishlab chiqarishining gurrakab rivojlanishiga to'siq bo'lib turgan hunarmandlarning sex birlashmalari yo'q qilindi. Sanoat inqilobi uchun qulay sharoit yuzaga keldi. Aholi tarkibida yangi qatlam – sanoat burjuaziyasi va yollanma ishchilar sinfining shakllanishiga yo'l ochdi. Inqilob qishloq xo'jaligida ham bozor munosabatlarining tez rivojlanishini ta'minladi.

Inqilob natijasida parlamentning yetakchi o'rin egallashi lozimligi, qonun oldida barcha fuqarolarning tengligi g'oyasi Yevropaning boshqa mamlakatlari aholisining ilg'or qismini ham to'liqlantira boshladi.



Vijdon erkinligi – har bir fuqaroning xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqi.

Deklaratsiya (lotincha – ma'lum qilaman) – hukumatning, biror tashkilotning muhim bir hujjatni, qonunni, voqeani ko'pchilik e'tiboriga yetkazuvchi bayonoti.

Diktatura (lotincha – cheklanmagan hokimiyat) – hokimiyatning bir shaxs yoki shaxslar guruhi qo'lida to'planishi. Siyosatda zo'ravonlik va terrorga tayanilishi.

Protectorat – (lotincha – homiy, himoyachi) – mustamlaka qaramligi shakllaridan biri. Protectorlik qiluvchi davlat o'ziga qaram davlatga ayrim ishlar bo'yichagina mustaqillik beradi. Ichki ishlar bo'yicha maslahatchi yoki rahbar tayinlaydi.



Savol va topshiriqlar

1. Angliyada nega fuqarolar urushi ro'y berdi?
2. Fuqarolar urushining oqibatlari nimalardan iborat bo'ldi?
3. Angliyada harbiy diktatura qay tariqa o'rnatildi?
4. O.Kromvelning Angliya tarixida tutgan o'rniga baho bering.
5. 1688- yilgi saroy to'ntarishi ro'y bermasligi mumkin edimi?
6. Angliya taxtini Vilgelm III Oranskiy egallagan 1688- yilda Vatanimiz tarixida qanday voqea yuz berdi?
7. Angliya burjua inqilobining tarixiy uhamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mustaqil ish

Angliya, Fransiya qirollari va Rossiya podshosi o'z siyosatlarida amalga oshirgan eng muhim ishlarining ro'yxatini tuzing.

13- §. Angliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga aylanishi



Davlat tuzumi. XVIII asrda Angliya cheklangan monarxiya davlati edi. Davlat boshlig'i qirol bo'lib, hukumatni parlament saylovida g'olib chiqqan ikki siyosiy partiyadan biri tuzgan. Yangi saylangan parlamentning vakolat muddati 3 yil edi. Parlamentning Jamoalar palatasida torilar va vigilar partiyalari faoliyat ko'rsatgan.

Torilar qirolning huquq va manfaatlarini himoya qilar hamda mavjud tartiblarning buzilmasligi uchun kurashar edi.

Vigilar esa parlament huquqlarini himoya qilardi. Mamlakatda muhim iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazilishining tarafdori edi.

1707- yilda parlament Angliya va Shotlandiya o'rtasidagi uniyani qonunlashtirdi. Endi mamlakat Buyuk Britaniya deb ataladigan bo'ldi.

1716- yilda parlament vakolati 6 yillik qilib belgilandi. Shu tariqa professional parlamentga asos solindi.

Tashqi siyosat. Bu davrda Buyuk Britaniya tashqi siyosatini ikki bosh yo'nalish belgilab bergan. Ularning birinchisi – Yevropa qit'asida hech qaysi davlatning kuchayib ketishiga yo'l qo'ymaslik bo'lsa, ikkinchisi – yangi-yangi mustamlakalar egallash edi.

XVIII asrda Buyuk Britaniyaning asosiy raqibi Fransiya bo'ldi. Ikki davlat o'rtasida ispan taxti tufayli kelib chiqqan urush (1701–1714) Buyuk

Britaniya uchun foydali sulh tuzilishi bilan yakunlandi. Unga ko'ra, Gibraltar Buyuk Britaniyaga o'tdi. Butun XVIII asr Buyuk Britaniya va Fransiyaning qizg'in kurashi ostida kechdi. Bu kurash hatto «ikkinchi yuz yillik urush» deb ham ataldi. 1763- yilda Fransiya Kanadadan ham siqib chiqarildi. Hindistonni egallash borasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. XVIII asrning 60- yillari davomida Shimoliy Amerikada 13 ta shtat, Kanada, Karib dengizi orollari, Hindistonning bir qismi Buyuk Britaniyaning mustamlakasiga aylandi.

Shu tariqa Britaniya mustamlakachilik imperiyasiga asos solindi.

Qishloq xo'jaligidagi o'zgarishlar. Buyuk Britaniya qishloq xo'jaligida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. Xususan, barcha yerlar yirik mulkdorlar qo'lida to'plandi. Qishloq xo'jaligida faqat yollanma mehnat qo'llaniladigan bo'ldi. Feodallar va dehqonlar sinf sifatida butunlay barham topdi, Bu haqiqiy agrar inqilob edi. Yer egalari (lendlordlar) yerlarini yirik tadbirkor (fermer)larga ijaraga berardi. Butun xo'jalikni ular yuritishardi. Yerga ishlov berish uchun yollanma ishchilar yollashardi.

Sanoat. Sanoat – mamlakat xo'jaligining mashina texnikasi asosida xomashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va yer osti boyliklarini qazib olish bilan shug'ullanuvchi tarmog'i, shu tarmoqning asosini tashkil etuvchi korxonalar (zavod, fabrikalar, elektrostansiyalar, shaxtalar, konlar) yig'indisidir. Sanoat industriya deb ham ataladi.

Sanoat og'ir va yengil sanoatga bo'linadi. Og'ir sanoat deyilganda, sanoatning ishlab chiqarish qurollari va vositalarini ishlab chiqaradigan tarmog'i tushuniladi. Bunga sanoatning mashinasozlik, metallurgiya, energetika, kimyo, neft tarmoqlarini misol keltirish mumkin.

Yengil sanoat esa sanoatning keng iste'mol buyumlari ishlab chiqaradigan tarmog'idir. Masalan, oziq-ovqat, kiyim-kechak, gazlama mahsulotlari ishlab chiqarish bunga misol bo'la oladi. Sanoat bugungi kunda shunday ko'rinishga ega. Xo'sh, XVIII asrda u qanday edi? Sanoat to'ntarishi qay tariqa ro'y berdi va uning oqibatlari nimalarga olib keldi?

Sanoat to'ntarishi uchun shart-sharoitning yetilishi. Sanoat to'ntarishi deyilganda, qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura ishlab chiqarishdan mashinalar keng qo'llaniladigan fabrika ishlab chiqarishiga o'tish tushuniladi. XVIII asrda Buyuk Britaniyada shunday to'ntarish yuz berishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud edi.

Birinchidan, agrar islohot ortiqcha ishchi kuchini vujudga keltirdi. O'z navbatida, ortiqcha ishchi kuchi sanoatda yollanib ishlashga tayyor edi.


Ikkinchidan, tovar sotish bozori shakllandi. Qolaversa, mamlakat aholisining nufuzi va shaharlar soni tobora o'sib bordi.

Uchinchidan, mamlakatda yer oldi-sotdisi, mustamlakalardan kelayotgan boylik hisobiga katta sarmoyaga ega bo'lib olgan burjuaziyaga fabrikalar qurish va ularda texnikani qo'llash imkonini berdi. Shu tariqa mashinalar ixtiro qilish hayotiy zaruratga aylandi. 1761-yilda «Sanoat va sanoatni rivojlantirish jamiyati»ning yigiruv mashinasini kashf etgan kishiga katta mukofot va'da qilganligi bejiz emas edi.

Sanoat to'ntarishining yuz berishi. Sanoat to'ntarishi dastlab to'qimachilik sohasida yuz berdi. Bunga sex ishlab chiqarishning barham topganligi va sifatli matolarga talabning tobora ortib borishi sabab bo'ldi. Bu talabni faqat mashinalar yordamidagina qondirish mumkin edi. 1733-yilda mexanik va to'quvchi **Jon Keyning** to'quv dastgohi ixtiro qilishi bu talabning birinchi aks sadosi bo'ldi. Ungacha to'quvchi g'altak iplari orasidan o'rmakni o'zi o'tkazib turishga majbur bo'lgan bo'lsa, endi bu ish oyoq qurilmasini bosib turish orqali bajariladigan bo'ldi. Ixtiro mehnat unumdorligini ikki marta orttirishga imkon berdi. Jamiyatda endi yigirilgan ip tanqisligi ham yuzaga keldi. Bu muammoni 1765-yilda **Jeyms Xargrivs** hal etdi. U bir yo'la 15–18 yigirgich ishlaydigan mexanik urchuq ixtiro qildi. Bu ixtironi qizining nomi bilan «Jenni» deb atadi. Ixtiro arzon va ishlatish juda oson bo'lganligi uchun tezda shuhrat qozondi. 1767-yilda charxpalak bilan harakatga keltiriladigan yigiruv mashinasi yaratildi. Yigiruvdagi yutuqlar mexanik to'quv dastgohi yaratilishiga turtki bo'ldi. **Edmund Kartrayt** tez orada bunday dastgohni yaratishga muvaffaq bo'ldi. Bu dastgoh mehnat unumdorligini 40 marta oshishiga imkon berdi. Shu tariqa mashinali ishlab chiqarishning butun bir tizimi – fabrikalar paydo bo'ldi.

1775-yilda **Jeyms Uatt** tomonidan bug' mashinasining yaratilishi fabrika ishlab chiqarishining yanada rivojlanishiga olib keldi.

1784-yilda **T. Modslining** to'karlik dastgohini ixtiro qilishi nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Tez orada cho'yan olishning va uni quyishning yangi usullari yaratildi. Bu ixtiro **Abraxam Darbining toshko'mirdan koks olishni ixtiro qilishi bilan bevosita bog'liq**



12-rasm. «Jenni» mexanik ip yigirish mashinasi.

edi. A. Darbi pechga tashlangan toshko‘mir uyumini toki u mayda, yaltiroq, qattiq zarrachaga aylanmagunicha sekinlik bilan qizdirgan. Natijada mayda uyumlar sekin yonib, bir-biriga yopishib koksga aylangan. So‘ng Darbi pechga yuboriladigan havo hajmini oshirgan va pechda katta harorat – issiqlik hosil bo‘lgan. Unda cho‘yan bimalol suyultirilgan hamda turli shakldagi buyumlar quyilgan. Uning o‘g‘li Abraxam Darbi II shaxtalardan suvni chiqarishda ishlatiladigan bug‘ mashinasini yaratdi. Uning yordamida domna pechining parraklarini harakatga keltiruvchi suv charxi zabod hovuziga suv chiqardi. Bu ixtiro hatto ariqlar qurib qolganda ham pechga doimiy havo berilishini ta‘minladi.

Darbilar oilasi vakillari 1779 yilda dunyoda birinchi cho‘yan ko‘prik ixtiro qildilar. Ko‘prikning qismlari bir-biriga birinchi marta boltlar bilan ulandi. Bunday ko‘priklar daryolar ustiga qurila boshlandi.

1774 yilda Jon Uilkinson cho‘yan bo‘lagi markazidan o‘q chiqadigan teshik ochishga imkon beruvchi tokarlik dastgohi ixtiro qildi. Bu zamonaviy to‘p yasash imkonini berdi. ✓

1788 yilda dastlabki cho‘yan quvurlar yasashga muvaffaq bo‘lindi.

Shu tariqa sanoat inqilobi oqibatida manufaktura o‘rnini fabrika ishlab chiqarishi egalladi. Mehnat unumdorligi tez sur‘atlar bilan o‘sa boshladi. Ayni paytda aholi tarkibida yangi qatlamlar – yollanma ishchilar va sanoat burjuaziyasi shakllandi. XVIII asr oxiriga kelib Buyuk Britaniya dunyoning birinchi sanoat mamlakatiga aylandi. Buyuk Britaniyada kapitalizm shiddat bilan rivojlana bordi.



Professional parlament – deputatlari doimiylik asosida ishlaydigan, asosiy vazifasi qonun yaratishdan iborat bo‘lgan parlament.

Siyosiy partiya – o‘z oldiga davlat hokimiyatini boshqarish huquqini saylov yo‘li bilan qo‘lga kiritish uchun kurashuvchi u yoki bu sinfning, qatlamning ilg‘or, ongli, uyushgan qismini birlashtirgan tashkilot.

Uniya – yagona birlik. ✚



Savol va topshiriqlar

1. «Sanoat» va «Sanoat to‘ntarishi» tushunchalariga izoh bering.
2. Buyuk Britaniyada nima uchun sanoat to‘ntarishi ro‘y berishi muqarrar edi?

3. Sanoat to'ntarishi qay tariqa boshlandi va dastlab ixtiro qilingan mashinalarni qayd eting.
4. Sanoat to'ntarishining tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?
5. Buyuk Britaniyada ro'y bergan sanoat to'ntarishining sabablarni daftaringizga tartib bilan yozing.

Mustaqil ish

«O'zbekiston tarixi» darsligingizdan foydalanib, Buyuk Britaniya tashkil topganidan so'ng ikki yil o'tgach yurtimizda qaysi davlat vujudga kelganligini va u nimaning oqibati bo'lganligini aniqlang.

14- §. Amerika Qo'shma Shtatlarining tashkil topishi



Shimoliy Amerikadagi ingliz mustamlakalari. XVIII asrning o'rtalaridan boshlab Buyuk Britaniyaning mustamlakasi bo'lgan Shimoliy Amerikada yagona ichki bozor shakllana boshladi, savdo aloqalari rivojlandi. Ayni paytda Amerikaga yevropaliklarning ko'chib kelishi boshlangan davrdan keyingi ikki asr davomida ko'chib kelganlarning yagona tarixiy taqdiri ham yuzaga keldi. Chunonchi, ingliz tili umumiy tilga aylandi. Yevropadan ko'chib kelganlar endi o'zlarini «amerikalik» deb atay boshladilar. Amerikaliklarning o'ziga xos turmush tarzi ham shakllandi. Hududning umumiyligi, mustamlakalarning iqtisodiy va xo'jalik manfaatlari, til va dinning yagonaligi yangi xalq – amerika xalqining shakllanishiga olib keldi.

Mustaqillik uchun kurash. Buyuk Britaniya qirollik hukumati mustamlakalardan olinadigan daromadni tobora ko'paytirishga urindi. Bu esa metropoliya va mustamlaka shtatlar o'rtasidagi nizoni tobora kuchaytira boshladi.

1763- yilda qirol mustamlakalardagi yevropaliklarning Amerika g'arbiga siljishini taqiqlovchi qaror chiqardi. Bu qaror mahalliy hindular bilan urush kelib chiqishining oldini olishi kerak edi. Mamlakat g'arbida juda ko'p yerlar bo'sh yotardi. Ko'chib borgan yevropaliklar qirol hukumatining taqiqlov qarorini o'zlarining haq-huquqlarini nazar-pisand qilmaslik, deb qabul qildilar.

Metropoliyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashish maqsadida 1765- yilda amerikalik inglizlar «Ozodlik farzandlari» deb ataluvchi tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot metropoliyadan olib kelinayotgan ingliz



13- rasm. Jorj Vashington.

tovarlarini boykot qilish harakatini bosh-qarib turdi. Bunga javoban metropoliya hukumati mustamlakalar savdo portlarini yopib tashladi. Bu hol mustamlaka shtatlar iqtisodiy ahvolidan yomonlashuviga olib keldi.

Mustaqillik uchun urushning boshlanishi. 1774- yilda 13 shtat vakillari Filadelfiya shahrida I Kontinental Kongressga yig'ilishdi. Kongress metropoliyaning majbur etuvchi qonunlariga itoat etish majburiy emasligi haqida qaror qabul qildi. Qirol hukumati mustamlaka shtatlar hukumatlari bilan kelishuv yo'lini

izlash o'rniga mustamlakalarni taslim etish siyosatini yuritdi va 1775-yilning aprelida qirol qo'shinlari ularga qarshi urush harakatlarini boshladi. Shunday sharoitda Filadelfiya shahrida II Kontinental Kongress chaqirildi. Kongress qatnashchilari urush boshlashga rivoj berdilar va virginialik polkovnik Jorj Vashingtonni (1732–1799) Amerika Qurolli Kuchlarining Bosh qo'mondoni etib tayinladilar. Shu tariqa mustaqillik uchun urush boshlandi.

Mustaqillik Deklaratsiyasi. 1776- yilda Kongress Buyuk Britaniyadan ajralishga va mustaqil davlat tuzishga chaqiruvchi qaror qabul qildi. Bu qarorni rasman e'lon qiluvchi Bayonotnoma ham tayyorlandi. 1776-yilning 4- iyulida e'lon qilingan bu hujjat «Mustaqillik Deklaratsiyasi» deb ataldi. Deklaratsiya yangi davlat – Amerika Qo'shma Shtatlarining tuzilganligini butun dunyoga ma'lum qildi.



1776- yildan 4- iyul Amerika Qo'shma Shtatlarining Mustaqillik kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Amerika inqilobining xarakteri va o'ziga xos xususiyatlari. Mustaqillik urushi ayni paytda burjua inqilobi ham edi.

Taqqoslang

Amerika burjua inqilobi va Angliya burjua inqilobi ham urush orqali amalga oshdi. Bu ikki urushning bir-biridan farq qiluvchi asosiy xususiyatini aniqlang.

Bu inqilob, birinchidan, milliy mustaqillikni ta'minladi, ikkinchidan esa bozor munosabatlarining rivojlanishiga g'ov bo'layotgan barcha to'siqlarni yo'q qildi. Inqilobga burjuaziya va plantator – quldorlar boshchilik qildi. Xalq ommasi esa uning harakatlantiruvchi kuchi bo'ldi. Amerika burjua inqilobining o'ziga xos xususiyati – bu uning milliy-ozodlik urushi shaklida o'tganligida edi.

Yevropa davlatlarining urushga munosabatlari. Mustaqillik urushi davrida AQSH chet el davlatlari madadiga ham tayandi. 1776-yilda Benjamin Franklin Fransiya elchi sifatida jo'natildi. Fransiyaning asosiy maqsadi, o'zining azaliy va xavfli dushmani – Buyuk Britaniyani zaiflashtirish edi. Shu tufayli Fransiya vaqtini boy bermay AQSHga yordam ko'rsata boshladi. Hatto bu ikki davlat o'rtasida «Do'stlik va Tijorat Bitimi», keyinroq esa «Ittifoq Shartnomasi» ham imzolandi. Buyuk Britaniyaning zaiflashuvidan Ispaniya va Rossiya ham manfaatdor edi. Shuning uchun ham ular AQSHga nisbatan do'stona yo'l tutishdi. Bu esa AQSHga ham harbiy, ham moddiy, ham ma'naviy madad bo'ldi.

Urushning tugallanishi. 1782-yilda Amerika va Fransiya qo'shinlari Buyuk Britaniya asosiy kuchlarini taslim etdi. Natijada Buyuk Britaniya qiroli hukumati muzokaralar boshlashga majbur bo'ldi. Shu tariqa urush tugadi. Tinchlik muzokaralari Parij shahrida o'tkazildi. Nihoyat, 1783-yilda AQSH va Buyuk Britaniya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Buyuk Britaniya AQSH davlatining tuzilganligini, uning mustaqilligini va suverenitetini tan oldi.

AQSH Konstitutsiyasining qabul qilinishi. 1787-yili Filadelfiya shahrida mamlakat shtatlari vakillarining Ta'xis Konventi chaqirildi. Uning ishida barcha shtatlardan saylangan 55 nafar vakil qatnashdi. Ular AQSH Konstitutsiyasini tayyorlash ishini nihoyasiga yetkazishlari lozim edi. Shunday bo'ldi ham. Uzoq davom etgan fikr-mulohaza va tortishuvlardan so'ng AQSHning qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – Kongressning, federal hukumatning, Oliy Sudning vakolatlari hamda shtatlar bilan markaziy hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar xususida yagona kelishuvga erishildi. Va nihoyat, 1787-yilda AQSH Konstitutsiyasi qabul qilindi.

Davlat tuzumi. Konstitutsiya AQSHda respublika tuzumini o'rnatdi. Ijro etuvchi hokimiyatni 4 yil muddatga saylanadigan Prezident boshqaradigan bo'ldi. Prezident keng vakolatlar (armiya va flotning Oliy bosh qo'mondoni, xalqaro shartnomalar tuzish, barcha

vazirlarni lavozimiga tayinlash va lavozimidan ozod qilish va hokazo)ga ega bo'ldi. 1789- yilda Jorj Vashington AQSHning birinchi Prezidenti etib saylandi. Oliy Qonun chiqaruvchi hokimiyatning ikki palatali Kongress tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Yuqori palata «Senat», quyi palata esa «Vakillar palatasi» deb ataldi. Senatga har bir shtatdan ikki kishi, Vakillar palatasiga esa deputatlar shtatlar aholisining soniga mos ravishda saylanardi. Oliy Sudga katta vakolatlar berildi. Chunonchi, Oliy Sudga AQSH qonunlarining va Prezident farmonlarining Konstitutsiyaga mos kelishini nazorat qilib borish huquqi ham berilganligi buning tasdig'i bo'ldi.

Amerika burjua inqilobining tarixiy ahamiyati. Bu inqilob tufayli yangi mustaqil davlat – Amerika Qo'shma Shtatlari tashkil topdi. Inqilob mamlakatda erkin raqobatga, iqtisodiy hayotda tashabbusga, faollikka va ishbiarmonlikka keng yo'l ochib berdi. Bu esa qisqa tarixiy davr ichida o'rta tabaqaning shakllanishi yuz berishini muqarrar qilib qo'ydi. Inson baxt-saodatining asoslaridan birini o'z mulkidan erkin foydalanish huquqi tashkil etadi. AQSHda fuqarolar ana shunday huquqqa erishdilar. Ayni paytda AQSHning janubiy shtatlarida plantatsiya qulchiligi tugatilmay qoldi. Mustaqillik Deklaratsiyasi va AQSH Konstitutsiyasi Yevropaning ilg'or tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi.



Boykot (inglizcha – chora) – biror-bir davlat yoki korxonada tovarlarini xarid qilishdan voz kechish.

Kontinental Kongress (qit'a Kengashi) – AQSHda mustaqillik urushi davrida oliy qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirgan organ.

Metropoliya (yunoncha) – o'zga mamlakatlarni bosib olib, o'z mustamlakasiga aylantirgan mustamlakachi davlat.

Davlat suvereniteti (fransuzcha – oliy hokimiyat) – hokimiyatning mamlakat ichida oliyligi va tashqi munosabatlarda to'la mustaqilligi.

Yagona ichki bozor – bir xil o'lchov (metr), og'irlik (kg) va yagona pul birligining qaror topganligi.



Savol va topshiriqlar

1. Ingliz burjua inqilobi va Amerika burjua inqiloblarining o'xshash hamda o'ziga xos belgilarini, oqibatlarini, yakunlarini aniqlang.

2. *Buyuk Britaniyaning Shimoliy Amerikadagi mustamlakalari qay tariqa tashkil etildi?*
3. *Nega Yevropa (asosan, Buyuk Britaniya)dan ko'chib borib o'rnashgan yevropaliklar Buyuk Britaniya tarkibida qolishni istamay qolganlar?*
4. *AQSH qay tariqa tashkil etildi?*
5. *Shimoliy Amerikadagi mustaqillik urushi qanday natija bilan tugadi?*
6. *AQSH Konstitutsiyasining qabul qilinishi haqida nimalarni bilib oldingiz?*
7. *Amerika burjua inqilobining tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?*

Mustaqil ish

AQSH bayrog'idagi 7 ta qizil va 6 ta oq chiziqlar nimani anglatishini aniqlang.

15-§. Buyuk fransuz burjua inqilobi va monarxiyaning tugatilishi



Inqilobning sabablari. XVIII asr oxirlarida ham Fransiyada hamon o'rta asr feodal tartiblari hukm surardi. U qishloq xo'jaligi mamlakati edi. Dehqonlar yashayotgan va mehnat qilayotgan yerlar feodallarning mulki sanalgan. Ular ijaraga yer olib kun kechirar edilar. Soliqlarning soni tobora ko'payib borardi. Buning ustiga, cherkovga ham soliq to'lash davom etardi. Oqibatda qishloqlar tobora kambag'allashib, dehqonlarning esa tilanchi va daydilarga aylanishi kuchaygan. Bu hol tez-tez «non isyonlari»ni keltirib chiqargan. O'rta asr feodal tartiblari sanoat va savdoning rivojiga ham to'siq bo'lgan. Mamlakatda manufaktura ishlab chiqarishi Buyuk Britaniyaga tenglasha olmagan.

XVIII asr oxirida ham Fransiyada hali sanoat inqilobi yuz bermagan edi. Manufaktura ishchilariga faqat yakshanba kunigina korxonaga tashqarisiga chiqishga ruxsat berilardi, xolos. Ichki savdo bojxona chegara siquvi va har bir viloyatning o'zlari o'rnatgan yo'l solig'idan aziyat chekardi. Buning ustiga, burjuaziya qanchalik boy bo'lmasin, u siyosiy huquqqa ega emas edi. Davlatni boshqarish amalda mamlakat aholisining atigi 4 foizini tashkil etuvchi ruhoniylar va dvoryanlar qo'lida edi. Ular soliq to'lashdan ozod edilar. Mamlakat qurolli kuchlarida zobitlik lavozimini faqat dvoryanlar egallashgan.

Butun mamlakatni boqayotgan uchinchi toifa mamlakatni boshqarish ishiga yaqinlashtirilmas edi.

Topshiriq

VII sinf «Jahon tarixi» darsligida o'rgangan Fransiyadagi aholi-ning uch toifasini eslang va ularning nomlarini qayd eting. Uchinchi toifani kimlar tashkil etganligini aniqlang.

Mamlakatda mutlaq monarxiya hukm surardi. Inson huquqlari tushunchasi qirollar uchun qog'ozdagi g'oyalar edi, xolos.

Bundan tashqari, Fransiya XVIII asr oxirlarida tashqi siyosatda ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Bu esa uning xalqaro obro'sini pasaytirib yubordi. Bu hodisa mamlakat sarmoyasining katta qismi ulkan qo'shin va flotni saqlab turishga sarflanayotgan bir davrda yuz berdi. Urush va soliqlardan qiynalib ketgan xalqning ahvoli tobora og'irlashib bordi. Yuqorida qayd etilgan omillar Fransiyada inqilob ro'y berishini muqarrar qilib qo'ydi.

Inqilobning boshlanishi. Vaziyat inqilob yuz berishining oldini olishni talab etardi. Shunday sharoitda Lyudovik XVI 1789- yilda General shtatlarini chaqirdi.



Fransiyada General shtatlar qachon tashkil etilgan edi?

Barcha toifalarga General shtatlarga o'z talablarini yozma ravishda topshirish huquqi ham berildi. Qirol bo'shab qolgan mamlakat xazinasini to'ldirish uchun yangi soliqlar joriy etilishini va General shtatlar uni tasdiqlashi zarurligini ma'lum qildi. Biroq uchinchi toifa yuqori imtiyozli toifalarning mol-mulkini soliqqa tortishni talab qildi. Oqibatda parlamentda bo'linish yuz berdi. Parij aholisi uchinchi toifaning talabini qo'llab-quvvatladi. 1789- yilning 17- iyunida uchinchi toifa deputatlari o'zlarini butun millat vakillari deb e'lon qildilar. Shuningdek, yangi parlament – Milliy Kengash tuzdilar.

9- iyulda Milliy Kengash o'zini «Ta'sis majlisi» deb e'lon qildi. Xalq qurollana boshladi. 14- iyul kuni *Fransiya mutlaq monarxiyasining tayanchi Bastiliya (davlat qamoqxonasi) egallandi.* Qattiq qo'rqib ketgan Lyudovik XVI yon berishga majbur bo'ldi. U Ta'sis majlisining qonuniyligini tan oldi. Poytaxtda hokimiyat inqilobchilar vakillaridan tuzilgan Parij Kommunasi (Parij Kengashi) qo'liga o'tdi. Shu tariqa Fran-



14- rasm. Bastiliyaning ishg'ol etilishi.

siyada mutlaq monarxiya quladi. Hokimiyat tepasiga yirik burjuaziya – savdo-sanoat burjuaziyasi keldi. Bu burjuaziya Buyuk Britaniyadagidek cheklangan monarxiya tarafdori edi.

Feodal tartiblarning bekor qilinishi. Mutlaq monarxiyaning qulashi mamlakatda tinchlik o'rnatilishiga olib kelmadi. Aksincha, butun mamlakatni endi dehqonlar qo'zg'oloni qamrab oldi. Ular

feodal majburiyatlarini bajarishdan bosh tortdilar. Oziq-ovqat omborlarini egallab oldilar, feodallarning qo'rg'onlariga o't qo'yib, yoqib yubordilar. Natijada Ta'sis majlisi «Imtiyozlarni tugatish haqida dekret» chiqarishga majbur bo'ldi. Unga ko'ra feodal tartiblar bekor qilindi.

Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi. 1789- yilda Ta'sis majlisi yana bir muhim hujjat – «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»ni qabul qildi. U «barcha odamlar ozod va teng huquqli bo'lib tug'iladilar» degan so'zlar bilan boshlanardi. Deklaratsiya xalqni «hokimiyatning manbai» deb e'lon qildi. Shuningdek, feodal va toifa imtiyozlarini bekor qildi. So'z, matbuot erkinligini e'lon qildi. Fuqarolarning qonun qabul qilishda ishtirok etishi erkinligini hamda xususiy mulkning daxlsiz va muqaddasligini belgilab qo'ydi. Ayni paytda qirol huquqlari cheklandi.

Konstitutsiyaning qabul qilinishi. 1791- yilda Fransiya tarixida birinchi marta mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya 25 yoshga to'lgan barcha erkak kishilarga saylash huquqini e'lon qildi. Konstitutsiyaga ko'ra parlament – Qonun chiqaruvchi majlis tuzildi. Shu davrdan boshlab parlamentda siyosiy partiyalar faoliyat ko'rsata boshladi. Ularning ichida eng yetakchilari «jirondachilar» va «yakobinchilar» partiyalari edi. Parlamentga o'tkazilgan saylovda «jirondachilar» partiyasi g'alaba qozondi va parlamentda ko'pchilik o'rinni egalladi. Partiya qirol bilan murosasiz yo'lini tanladi. Bu paytga kelib ichki og'ir vaziyatga tashqi xavf ham qo'shildi. Qo'shni monarxiya davlatlar Fransiyaga hujum uyushtirdilar. Bular Avstriya, Ispaniya va Buyuk

Britaniya edi. 1792- yilda Qonun chiqaruvchi Majlis «Vatan xavf ostida» chaqirig‘i bilan xalqqa murojaat qildi. Jirondachilar mamlakat mudofaasini uyushtira olmadilar. Bu esa mamlakatda keskin norozilik keltirib chiqardi. 1792- yil 10- avgust kuni esa Parijda qurolli qo‘zg‘olon boshlandi. Bunday sharoitda parlament qirolni hokimiyatdan mahrum etish va yangi parlament – Milliy Konventga saylov o‘tkazish haqida qaror qabul qilishga majbur bo‘ldi. Lyudovik XVI esa hibsga olindi. Shu tariqa 1792- yilning 10- avgustida Fransiyada monarxiya ag‘darib tashlandi. Yakobinchilar qirolni darhol sud va qatl qilishni, Respublika e‘lon qilinishini, feodal qaramlikni butunlay tugatishni va chet ellik bosqinchilarga qarshi inqilobiy urush olib borishni talab etdilar. Yakobinchilarning ko‘zga ko‘ringan arboblari M. Robespyer, J.P. Marat, J. Danton, Eber va Shomettlar edi. 21- sentabrda Fransiya Respublika deb e‘lon qilindi. Lyudovik XVI esa qatl etildi. Respublika feodal-toifaviy tengsizlikni bekor qildi. Mamlakat shiori erkinlik, tenglik, birodarlik bo‘lib qoldi.



Dekret (lotincha – farmon, qaror) – Oliy hokimiyat chiqargan qonun kuchiga teng qaror.

Kommuna (fransuzcha – umumiy) – shaharning o‘zini-o‘zi boshqarish organi.

Ta‘sis majlisi – mamlakat hayotiga oid biror-bir muhim masalani hal etish uchun oliy vakolat berilgan va shu tufayli parlament vazifasini ham bajaruvchi majlis.



Savol va topshiriqlar

1. Buyuk fransuz burjua inqilobi sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Angliya va Fransiya burjua inqiloblarini taqqoslang. Ularning o‘xshash va farq qiluvchi tomonlarini aniqlang.
3. Buyuk fransuz inqilobi ro‘y berishidan 19 yil avval Xiva xonligida qanday tarixiy voqea yuz bergandi?
4. 1792- yilning 21- sentabrigacha Fransiyada yuz bergan tarixiy voqealarning xronologik jadvalini tuzing.
5. 1789- yilda qabul qilingan «Inson va fuqaro huquqlari Deklaratsiyasi»ning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat edi?
6. Fransiya parlamentida faoliyat ko‘rsatgan jirondachilar va yakobinchilar partiyalari haqida nimalarni bilib oldingiz?

16-§. Buyuk fransuz burjua inqilobining yakunlari va tarixiy ahamiyati



Yakobinchilarning hokimiyat tepasiga kelishi. Lyudovik

XVI qatl etilgach, Ispaniya, Angliya va Avstriya monarxlarining bosqinchilik hujumi kuchaydi. Jirondachilar mamlakat mudofaasini yetarli darajada tashkil eta olmadilar. Buning ustiga, mamlakat janubida yerlarning shahar burjuaziyasiga sotilayotganligidan norozi bo'lgan dehqonlarning isyoni boshlandi. Isyonchilar qirolning qatl etilishini jinoyat deb hisoblardilar. Yakobinchilar mamlakatdagi bu og'ir vaziyat uchun jirondachilarni aybladi. Ular Parij aholisini qo'zg'olonga chaqirdi. Boshlangan qo'zg'olon 1793- yilning 2- iyun kuni jirondachilar hokimiyatining ag'darilishi bilan yakunlandi.

Hokimiyat yakobinchilar qo'liga o'tdi. M. Robespyer boshchiligida yangi hukumat – jamoat qutqaruv qo'mitasi tuzildi.

Favqulodda sudlar yangi kuch bilan ishlay boshladi.

Yakobinchilarning ichki siyosati. 1793- yilda Fransiyada yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Feodal to'lovlar butunlay bekor qilindi. Dehqonlar endilikda o'z yerlarining ozod egalari aylandilar.

Feodallarning huquqlarini tasdiqlovchi hujjatlar yoqib yuborildi. Chet ellarga qochib ketgan dvoryanlarning yerlari mayda bo'laklarga bo'linib sotildi. Cherkov davlatdan ajratildi. Birinchi iste'mol buyumlariga qat'iy narxlar o'rnatildi. Biroq bu tadbir kutilmaganda aks sado berdi. Savdogarlar hukumat belgilagan narxda tovarlarini sotmay qo'ydi. Endi ular yashirincha savdo qilishga o'tdilar. Oqibatda narx-navo ko'tarilib ketdi. Hukumat ish haqining eng yuqori darajasini ham belgilab qo'ydi. Biroq bu tadbir yaxshilikka olib kelmadi. Natijada ishchilarning ish tashlashi boshlandi. Hukumat esa uni shafqatsizlik bilan bostirdi. Chet el bosqinchilarining hujumi va birinchi iste'mol mahsulotlarining yetishmasligi sharoitida ahvolning g'oyatda og'irlashuvi yakobinchilarni diktatura o'rnatishga majbur etdi.

1793- yil sentabrda Konvent «Shubhali kishilar to'g'risida» qonun qabul qildi. Bu qonun, yakobinchilar fikricha, «shubhali» deb hisoblangan barcha kishilarni to'rtinchi o'rnatilgunicha qamoqqa olish va saqlashni ko'zda tutardi. Aslida yakobinchilar o'z raqiblaridan terror yo'li bilan qutilmoqchi edi. Buning tasdig'i o'laroq, Konventdagi barcha jirondachi-deputatlar qamoqqa olindi va qatl qilindi.

Mamlakat ichkarisidagi isyonlar ham o‘ta rahmsizlik bilan bostirildi. Yakobinchilarning shafqatsizligi chegarasiz, ayovsiz va ma’nosiz edi. Yakobinchilar, ayni paytda, qo‘shinni mustahkamlash choralarini ko‘rdilar. Bu tez orada o‘z samarasini berdi. 1794- yilda bosqinchilar mamlakat hududidan surib chiqarildi. Bu ozodlik urushlarida yosh kapitan Napoleon Bonapart shuhrat qozondi.

Yakobinchilar partiyasi. Yakobinchilar ichida ichki siyosat borasida yagona birlik yo‘q edi. Ular aslida turli guruhlariga bo‘linib ketgan edilar. Yakobinchilarni birlashtirib turgan omil – bu chet el bosqinchilariga qarshi kurash va mamlakat ichkarisidagi isyonlarni bostirish zarurati edi, xolos. Bu ikki xavf bartaraf etilgach, guruhlar o‘rtasida kurash boshlanib ketdi. Eber va Shomet rahbarligidagi yakobinchilar «hech kim boy ham, hech kim o‘ta kambag‘al ham bo‘lmaydigan, hamma barcha narsaga yetarlicha ega bo‘lishini ta’minlaydigan» jamiyat tarafdori edilar.

1794- yilda M. Robespyer tarafdorlari ularni qamoqqa oldilar va o‘lim jazosiga hukm etdilar. M. Robespyer tarafdorlari yakobinchilarning Danton boshchiligidagi «shafqatlilar» guruhini ham xavfli deb hisoblaganlar. Danton mamlakatda faoliyat ko‘rsatayotgan guruhlarining o‘zaro murosasi tarafdori edi. U barcha partiyadagi yaxshi niyatli kishilarning ittifoqini tuzish yo‘li bilan o‘zaro ziddiyatlarni bartaraf qilishni taklif etdi. Danton inqilobiy diktaturani to‘xtatishni, konstitutsiyaviy tartibga qaytishni, terrordan voz kechishni talab qila boshladi. M. Robespyer guruhi Danton talablarini rad etdi. Danton hamda uning tarafdorlari qamoqqa olindilar va qatl etildilar.



15- rasm. M. Robespyer.

Mamlakatda o‘rnatilgan terror siyosati dahshatlari hammaning tinkamadorini quritdi. Bu esa, Robespyerning obro‘cini tushirib yubordi.

M. Robespyer siyosiy kurashda qonli usul orqali raqiblarini yo‘qotish bilan o‘z shaxsiy halokatini ham tayyorlab bordi. Xalq qonli boshqaruvga asoslangan respublikani yomon ko‘rib qoldi. Endi M. Robespyerning barcha dushmanlari yagona ittifoqqa birlashdilar.

Yakobinchilar diktaturasining ag'darilishi. Konventda M. Robespyer va uning tarafdorlariga qarshi fitna tayyorlandi. 1794- yilning 27- iyulida Konvent unga qarshi ayblov e'lon qildi va M. Robespyerni qamoqqa oldi. Shuningdek, Konvent uni qonundan tashqari deb ham e'lon qildi. Bu – sudsiz qatl etish degani edi. Hammasi bo'lib yuzga yaqin kishi qatl etildi. Shu tariqa yakobinchilar diktaturasi quladi. Bu inqilobning tugashi ham edi.

Hokimiyat tepasiga inqilob yillarida boyib ketgan yangi boylar deb ataluvchi yirik burjuaziya keldi. Hokimiyat tepasiga kelgan kuchlar termidorchilar deb nom olganlar. Ular mulkni va erkinlikni, tadbirkorlikni himoya qiladigan Respublika tarafdori edilar.

1795- yilda Konvent yangi Konstitutsiya qabul qildi. U mamlakatda respublika tuzumini mustahkamladi. Inqilobning feodal tartiblarni tugatish haqidagi barcha qarorlarini tasdiqladi. Mamlakatda ikki palatali parlament tashkil etildi. Ijroiya hokimiyat besh kishidan iborat Direktoriyaga topshirildi. U 1795–1799- yillar mobaynida mamlakatni boshqardi. Bu davrda monarxiya tarafdorlari isyon ko'tardilar. Ularning maqsadi monarxiyani qayta tiklash edi. Biroq general Napoleon Bonapart Konventning xaloskori bo'ldi. U isyonchilar kuchini tor-mor etdi. Bu xaloskorlik unga yorqin kelajak sari yo'l ochdi.

1799- yil 9- noyabrdagi davlat to'ntarishi. Direktoriya Shimoliy Italiyani Avstriya qo'shinidan ozod qilishi uchun Napoleon Bonapartga umid bog'ladi. 26 yoshli general bu vazifasini sharaf bilan uddaladi.

U Avstriyani tinchlik shartnomasi tuzishga va Fransiyaning g'alabasini tan olishga majbur qildi. Shu tariqa Napoleon Italiyadan Parijga shon-shuhratga ko'milgan holda qaytib keldi.

Endi hukmron tabaqalar Fransiya Napoleondek qattiqqo'l siyosatchining hokimiyatini o'rnatishga fursat yetdi, degan xulosaga keldilar va davlat to'ntarishi tayyorladilar. Napoleon Bonapart bunga rozi bo'ldi.

1799- yil 9- noyabrda Davlat to'ntarishi amalga oshirildi. Parlament Konsullik deb ataluvchi hukumat tuzishga majbur etildi. Uning tarkibi 3 kishidan iborat bo'ldi va ularning har biri «Fransiya Respublikasining konsuli» unvoniga ega bo'ldi. Uch konsuldan biri Napoleon Bonapart edi. Aslida butun hokimiyat uning qo'lida to'plandi.

Buyuk fransuz burjua inqilobining tarixiy ahamiyati. Gap fransuz burjua inqilobi haqida ketganida, unga nisbatan «Buyuk» so'zi



qo'shib ishlatiladi. Xo'sh, nega shunday? Chunki bu inqilob o'rta asr feodal tartiblarini to'la bekor qilgan edi. Kishining kishiga shaxsan qaramligini tugatdi. Monarxiyaning hech qanday ko'rinishi bilan murosa qilmadi.

Fransiyada respublika tuzumi qaror topdi. Angliya burjua inqilobi burjuaziya va dvoryanlar kelishuvi bilan yakunlangan bo'lsa, Fransiyada burjuaziya dvoryanlarni yengdi. Eski jamiyat va davlat tuzumini to'la buzib tashladi. Sanoat inqilobi uchun sharoit hozirladi.



Direktoriya (lotincha – boshqarma, rahbarlik) – Fransiya Respublikasining 1795 – 1799- yillardagi hukumati.

Konsul (lotincha – maslahatchi) – 1) 1799 - yilda Fransiya-da tashkil etilgan oliy ijroiya, sud va qisman qonun chiqaruvchi hokimiyatni o'z qo'lida to'plagan oliy mansabdor shaxs;

2) bir davlatning boshqa davlat hududida o'z mamlakati fuqarolari manfaatlarini himoya qilish, ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy aloqalarni rivojlantirishga yordam berish uchun tayinlanadigan mansabdor shaxs.

Termidor – yakobinchilar joriy etgan yangi kalendaridagi iyul oyining nomi.

Favqulodda holat – tashqi xavf, ichki qurolli mojarolar va turli tabiiy ofatlar ro'y berganida joriy etiladigan va fuqarolarning huquq hamda erkinligi maxsus qonunlar bilan cheklab qo'yiladigan holat.



Savol va topshiriqlar

1. Yakobinchilar kimlarning manfaatini aks ettirganlar va ular qay tariqa hokimiyat tepasiga kelgan edilardir?
2. Yakobinchilar qanday tadbirlarni amalga oshirdilar?
3. Nega yakobinchilar partiyasida bo'linish yuz berdi?
4. Yakobinchilar hokimiyati ag'darilmasligi uchun ular nimalar qilmasliklari kerak edi?
5. Direktoriya haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Buyuk fransuz burjua inqilobining tarixiy ahamiyatining mazmunini so'zlab bering.

Mustaqil ish

«Angliya va Fransiya burjua inqiloblari» jadvalini to'ldiring.

T/r	Davlatlar	Inqilob boshlangan yil	Inqilob tugagan yil	Inqilob amalga oshirgan tadbirlar	Inqilob yakunlari	Tarixiy ahamiyati
1.	Angliya					
2.	Fransiya					

17- §. XVI–XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi



Iqtisodiy ahvol. Germaniya iqtisodiy taraqqiyotda Angliya, Gollandiya va Fransiya kabi davlatlardan orqada qoldi. Hatto XVI asming ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy tushkunlik ham boshlandi.

Bu, avvalo, Germaniyaning 300 dan ortiq mayda-mayda knyazlik (davlat)larga bo'linib ketganligi oqibati edi. Siyosiy tarqoqlik yagona ichki bozorning vujudga kelishiga imkon bermadi.

Bundan tashqari, bu davrda dengiz savdo yo'llarining Atlantika okeaniga ko'chganligi oqibatida Germaniya orqali o'tadigan dengiz savdo yo'llari o'z ahamiyatini ham yo'qotdi. Vaholanki, XVI asr o'rtalarigacha Shimoliy Italiya va uning vositachiligida butun Sharqning G'arbiy Yevropa bozorlari bilan aloqalari Germaniya yerlaridan o'tgan.

Germaniyaning xalqaro miqyosdagi iqtisodiy roli – uning mis ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallab kelganligi bilan belgilanib keldi. Mis savdoda asosiy vosita hisoblanardi. Biroq Amerikadan Yevropaga oltin va kumushning katta-katta miqdorda keltirilishi Germaniya misining ahamiyatiga jiddiy putur yetkazdi. Shuningdek, nemis sanoat mahsulotlari chet davlatlar sanoat mahsulotlari bilan raqobat qila olmadi. Chunki Germaniyada manufaktura ishlab chiqarishi faqat shahar bilan cheklanib qolgan edi. U qishloqqa yoyilmadi, ya'ni natural xo'jalik munosabatlari hukm surgan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi sanoat mahsulotlariga nisbatan talabni qondirmadi.

1524–1526- yillarda bo'lib o'tgan Buyuk dehqonlar urushi va bu urushda dehqonlarning yengilishi o'rta asr feodal munosabatlarining yana uzoq saqlanib qolishiga olib keldi. Qo'zg'olonchilarning talablari feodal

tartiblarini butunlay bekor qilishni ko'zda tutmagan edi. Dehqonlar bor-yo'g'i bu tartiblarni yumshatishni, dehqonlarga shaxsan ozodlik berilishini nazarda tutardi.

Qo'zg'olonning mag'lubiyatga uchrashi siyosiy tarqoqlikning davom etaverishiga ham sabab bo'ldi. Va nihoyat, Germaniyaning O'ttiz yillik urushda (1618–1648) mag'lubiyatga uchrashi ham uning qoloqlik botqog'iga botib qolaverishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

O'ttiz yillik urush Yevropaning ikki ittifoqqa bo'lingan davlatlari (1-ittifoq: Avstriya, Ispaniya va Germaniyaning katolik knyazliklari; 2-ittifoq: Germaniyaning protestant knyazliklari, Fransiya, Daniya va Shvetsiya) o'rtasida bo'lib o'tdi. Bu urush 1648- yilda Vestfaliya tinchlik shartnomasining imzolanishi bilan tugadi. Urushda ikkinchi ittifoq g'alaba qozondi. Bu g'alaba tufayli Yevropada siyosiy gegemonlik Fransiyaga o'tdi. Shvetsiya esa Yevropaning buyuk davlatlaridan biriga aylandi. Boltiq bo'yida hukmronlik o'rnatishi borasida katta imkoniyatni qo'lga kiritdi.

Gollandiya Respublikasining davlat mustaqilligi tan olindi.

Germaniya esa bu urush oqibatida iqtisodiy va siyosiy tanazzulga yuz tutdi. Siyosiy parokandalik yanada kuchaydi.

Siyosiy tuzum. Germaniya rasman yagona imperiya hisoblanar, uni nomiga bo'lsa-da, imperator boshqarardi. Aslida esa uning birligi faqat qog'ozda edi. 1806- yilgacha «Germaniya millatining Muqaddas Rim imperiyasi» deb ataladigan bu davlat aslida muqaddas emasdi. Hatto imperiyada yagona fuqoralik ham yo'q edi. Nemislar imperiyaning emas, balki knyazliklarning fuqarolari edilar.


Germaniya imperatori, amalda hokimiyatsiz imperiator ham edi. Gabsburglar sulolasidan bo'lgan imperator o'zining Avstriyadagi yerlaridan tashqarida hech qanday real hokimiyatga ega bo'lmagan. Imperiya Reyxstagi esa amalda barcha knyazliklarga majburiy bo'lgan yakuniy qarorlar qabul qila olmagan. Qabul qilgan taqdirda ham u amalda bajarilmagan. Imperator saroyi Vena (hozirgi Avstriya davlati poytaxti), Reyxstag (parlament) binosi Regensburg, imperiya sudi binosi esa Vetslar shaharlarida joylashgan. Bunday sharoitda har bir knyazlik nafaqat ichki ishlarda, balki tashqi siyosatda ham mustaqillikka intilar edi.

Germaniyaning xalqaro ahvoli. Ichki siyosiy tarqoqlik XVII asrning ikkinchi yarmida Germaniyani Yevropaning buyuk davlatlari qo'lida

qo'g'irchoqqa aylantirib qo'ydi. Bu davrda Shvetsiya, Fransiya va Turkiya Germaniyaga dushmanlik kayfiyati bilan qarovchi davlatlar edi. Fransiya oxir-oqibatda Strasburg va Reyn daryosining chap qirg'oq yerlariga ega bo'lib oldi. Germaniya knyazliklari 1683-yilda Turkiya bosqiniga qarshi kurashish uchun tarixda birinchi marta yakdil qaror qabul qildilar va milliy ozodlik qo'shinini tuzdilar. Shu yili Vena ostonalarida turklarning qo'shini tor-mor keltirildi. Germaniyaning bu g'alabasi Markaziy Yevropani turklar bosqinidan saqlab qoldi.

Prussiya qirolligining tashkil topishi. Germaniya knyazliklari ichida Avstriya va Brandenburg eng kuchlilari edi. XVII–XVIII asrlar shu ikki knyazlikning Germaniyada gegemonlik uchun kurashi ostida o'tdi. Avstriyani Gabsburglar sulolasi, Brandenburgni esa Gogensollernlar sulolasi boshqarardi. Birining poytaxti Vena shahri, ikkinchisniki esa Berlin shahri edi. XVII asrda Brandenburg knyazligida Prussiya gersogligi yetakchi mavqega ega bo'lib oldi.

1701-yilda Branderburg knyazligi o'rnida Prussiya qirolligi tashkil topdi. Brandenburg knyazi Fridrix III Fridrix I nomi bilan Prussiya qiroligini deb e'lon qilindi. Shu davrdan boshlab qulay xalqaro sharoit va boshqa nemis knyazliklarining kuchsizligidan foydalanган Prussiya qudratli davlatga aylana bordi. Prussiya qudratli qo'shin ham tuza oldi.



16- rasm. Fridrix II.

XVIII asr oxirida Prussiya maydoni jihatidan Yevropada uchinchi, qo'shini soni jihatidan esa to'rtinchi o'rinni egalladi. Fridrix II hukmronligi davrida (1740–1786) Prussiya mutlaq monarxiyaga aylandi. Prussiya keyinchalik hatto Germaniyani yagona davlatga birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Bu haqda Siz IX sinf «Jahon tarixi» darsligidan ma'lumot olasiz.



Real (ruscha) – haqiqatan ham mavjud bo'lgan; amalga oshadigan; bajarilishi mumkin bo'lgan.



Savol va topshiriqlar

1. Germaniya imperiyasining iqtisodiy taraqqiyotda orqada qolishining sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Germaniyada hukm surgan siyosiy tarqoqlik qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Buyuk dehqonlar urushi va O'ttiz yillik urush Germaniya taqdirida qanday rol o'ynadi?
4. Prussiya qay tariqa Yevropaning eng qudratli davlatlaridan biriga aylana oldi va bu qudrat keyinchalik Germaniya tarixida qanday rol o'ynadi?

18- §. Rossiya imperiyasining tashkil topishi



XVII asr Rossiya iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyati.

XVII asrdan Rossiya iqtisodiyotida yangi alomatlar paydo bo'la boshladi. Bu, avvalo, tovar ishlab chiqarishning, ya'ni bozorda sotish uchun mahsulot ishlab chiqarishning rivojlanishida namoyon bo'ldi.

Shahar hunarmandchiligi yoppasiga mayda tovar ishlab chiqarishga aylana boshladi. Mamlakat ehtiyoji uchun zarur mehnat qurollari ishlab chiqarishga mo'ljallangan manufakturalar vujudga keldi. Endi hunarmandlar buyurtmaga ishlashdan bozor uchun ishlashga o'tdilar. Ayni paytda o'zlari ham bozordan xomashyo sotib oladigan bo'ldilar. Bu jarayondan qishloq xo'jaligi ham chetda qolmadi. Tirikchilik uchun eng zarur narsa – g'alla hamma yerda tovarga aylandi. Ayrim pomeschiklar (feodallar) qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi bilan shug'ullana boshladilar. Krepostnoylardan endi obrok mahsulot bilan emas, balki pul bilan ham olina boshlandi. Yuqorida qayd etilgan omillar natural xo'jalik negizlariga zarba bera bordi.

Topshiriq

VII sinf «Jahon tarixi» darsligida natural xo'jalikka qanday ta'rif berilganligini aniqlang.

Rossiya tarixida XVII asr shaharlarning rivojlanishi boshlangan asr hamdir. Shaharlar tobora mamlakatning savdo-sanoat markazlariga aylana bordi. Ular orasida Novgorod, Yaroslavl, Pskov, Qozon, Nijniy Novgorod

va boshqalar ajralib turardi. Eng katta shahar Moskva bo'lib, unda hunarmandchilikning 250 turi bilan shug'ullanilar edi.

Hunarmandchilikning rivojlanishi mamlakatning rivojlanishiga va bu, o'z navbatida, turli viloyatlar o'rtasida xo'jalik aloqalarining kengayishiga olib keldi. Bu esa, oxir-oqibatda hunarmandlarning bozorga qaramligini oshirdi. XVII asrda Rossiyada manufakturalar ham paydo bo'ldi. Bular birinchi bo'lib qora metallurgiya shahasida paydo bo'lgan manufakturalar edi.



Manufaktura deb nimaga aytilganligini eslang.

Manufaktura ishlab chiqarishi mehnat unumdorligining o'sishiga olib keldi. Savdogar, davlat, podsho xonadoni va ayrim yirik pomeshchiklar ham manufaktura egalari edilar.

XVII asrda tashqi savdo ham rivojlana boshladi. Astraxan (Ashtarxon) va Arxangelsk shaharlari mamlakat tashqi savdosida muhim rol o'ynadi.

Boltiq va Qora dengizga chiqish imkoni bo'lmagan Rossiya dengiz savdo flotiga ega emas edi. Shuning uchun ham G'arbiy Yevropa davlatlari bilan savdo-sotiq ishlari Buyuk Britaniya va Gollandiya savdogarlari vositachiligida amalga oshirilardi. Shunga qaramay, davlat Rossiya savdogarlarining manfaatini chet el savdogarlaridan himoya qilishga qaratilgan qator choralami ko'rdi. Chunonchi, 1667- yilda «Yangi savdo Nizomi» joriy etildi. Unga ko'ra, chet el savdogarlarining rus bozorlarida chakana savdo qilishlari taqiqlandi.

Shu tariqa Rossiya iqtisodiyotida ham asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, yangi – kapitalistik munosabatlar shakllana bordi.

Ichki savdoning rivojlanishi oxir-oqibatda butun Rossiya yagona ichki bozorining tarkib topishiga olib keldi.

Topshiriq

«Yagona ichki bozor» tushunchasiga izoh bering.

Biroq Rossiya iqtisodiy taraqqiyotda G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan orqada edi. Bunga krepostnoylik tartiblarining tobora mustahkamlanishi asosiy sabab bo'lgan.

Sobor nizomi. Buning yorqin isboti 1649- yilda Zemstvo sobori qabul qilgan yangi nizom edi. Nizomga ko'ra, dvoryanlar o'zlari egalik qilayotgan

yer-mulklarni votchinaga aylantirish va meros qoldirish huquqiga ega bo'ldilar.

Dehqonlar dvoryanlarga uzil-kesil birlashtirilgan bo'ldi. Ularning xo'jayindan xo'jayinga o'tishi taqiqlandi. Krepostnoylik nasldan naslga o'tadigan bo'ldi. Shu tariqa Sobor nizomi Rossiyada krepostnoy huquqning shakllanishi jarayonini tugalladi.

Mutlaq monarxiyaning qaror topib borishi. Rossiyada mutlaq monarxiyaning to'la qaror topishi Aleksey Mixaylovichning o'g'li Pyotr I nomi bilan bog'liqdir. U 1689- yilda taxtga o'tirdi.

Pyotr I tashqi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri, Rossiyani kuchli harbiy-dengiz flotiga ega davlatga aylantirish edi. U bu vazifani muvaffaqiyat bilan amalga oshirdi. Pyotr I Polsha va Daniya bilan Shvetsiyaga qarshi kurash uchun ittifoq tuzishga erishdi, Shundan so'ng Pyotr I Boltiq dengiziga chiqish uchun Shvetsiyaga qarshi urush boshlashga qaror qildi.

1700- yilda Rossiya – Shvetsiya urushi boshlandi. Bu urush tarixga «Shimoliy urush» nomi bilan kirdi. Urushgacha Rossiya kuchli harbiy- dengiz floti yaratishga muvaffaq bo'lgan edi. Urush taqdirini Poltava (hozirgi Ukraina davlati hududidagi shahar) jangi hal etdi. 1709- yilda bo'lib o'tgan bu jangda rus qo'shini Shvetsiya qo'shinini tor-mor etdi. Bu mag'lubiyat Shvetsiya qudratiga o'nglanmas putur yetkazdi. U endi buyuk davlat maqomini yo'qotdi. Nihoyat, Shimoliy urush 1721- yilda Rossiyaning g'alabasi bilan tugadi. Shu yili Finyandiyaning Nishtadt shahrida Rossiya – Shvetsiya tinchlik shartnomasi imzolandi.

Urush yakuni Pyotr I ga o'z orzusini amalga oshirish imkonini berdi. Rossiya Boltiq dengiziga chiqish yo'liga ega bo'ldi. Ayni paytda Rossiya Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi. 1721- yilda Pyotr I imperator deb e'lon qilindi. Rossiya imperiyaga aylandi va Rossiyada mutlaq monarxiya ham to'la qaror topdi.

Pyotr I islohotlari. Rossiya ma'muriy boshqaruv jihatidan gubernyalarga bo'lindi. Ular podsho tomonidan tayinlanadigan, general-gubernator tomonidan boshqariladigan bo'ldi. Podsho huzuridagi Boyarlar dumasi tugatildi. Uning o'rniga Senat tuzildi. Senatga qonun



17- rasm. Pyotr I.

chiqarish va hukumatni boshqarish vakolati yuklatildi. Pyotr I zamonaviy qo'shin ham tuzdi. Qo'shinda harbiy xizmat umrbod muddatda o'taladigan bo'ldi. Qo'shin rekrutlikka olish yo'li bilan shakllantirildi va zamon ruhiga mos ravishda qurollantirildi.

Pyotr I islohotlari Rossiyaning taqdirida muhim rol o'ynadi.

Pyotr I vafotidan so'ng XVIII asr oxirigacha (1725–1800) yana 8 nafar Romanovlar sulolasi vakillari imperatorlik qilishdi.

Bu o'tgan 75 yillik davr islohotlarning mustahkamlanishi davri bo'ldi. Ayniqsa, Yekaterina II hukmronligi davri (1762–1796) Rossiya tarixida alohida iz qoldirdi. Biroq, Rossiyada krepostnoy tuzum hukmron bo'lib qolaverdi. Dehqonlar og'ir hayot kechirdilar. Oxir-oqibatda ular bir necha marta qo'zg'olon ko'tarishga majbur bo'lganlar. Ularning ichida eng mashhuri Ye. Pugachev boshchiligidagi qo'zg'olon edi (1773–1775). Qo'zg'olon Yekaterina II tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Ye. Pugachev esa qatl etilgan.

Rossiyaning tashqi siyosati. XVII–XVIII asrlarda ham Rossiya tashqi siyosatining asosini unga tutash bo'lgan yerlar hisobiga kengaytirish uchun kurash tashkil etgan. Chunonchi, 1654-yilda Ukraina va Sharqiy Belorussiya Rossiyaga qo'shib olindi. XVII asr davomida Rossiya G'arbiy Sibirdan Tinch okeani qirg'oqlariga, Kamchatka va Kuril orollariga qarab siljishni davom ettirdi. ➤

XVII asr oxiridan boshlab Rossiyani kuchli dengiz davlatiga aylantirish uchun kurash boshlandi. Bu vazifa ham bosqichma-bosqich amalga oshirila borildi. Pyotr I o'z tashqi siyosatining tig'ini O'rta Osiyoga ham qaratdi. O'rta Osiyo oltiniga ega bo'lish maqsadida 1714-yilda Xiva xonligiga harbiy ekspeditsiya yubordi.

Topshiriq

Bu ekspeditsiya qanday natija bilan tugaganligini «O'zbekiston tarixi» darsligingizdan toping.

✘ XVIII asrning ikkinchi choragida Qozog'istonning bir qismi Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.

1768-yilda Rossiya – Turkiya urushi kelib chiqdi. 1774-yilda Turkiyani Rossiya o'ziga qulay kuchukqaynarji shartnomasini imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, Rossiya Qora dengiz bo'yida harbiy flot qurish huquqini qo'lga kiritdi. Shuningdek, uning savdo

kemalari O'rta Yer dengiziga olib chiquvchi Qora dengiz bo'g'ozlaridan hech qanday to'siqsiz o'ta olish huquqiga ega bo'ladi. 1783- yilda Qrim xonligi qo'shini tor-mor etildi va u Rossiya tarkibiga qo'shib olindi.



Rekrut – soni oldindan belgilab qo'yilgan dehqonlar va posad xonadonlaridan bittadan kishini soldatlikka olish.

Chakana savdo – tovarlarni donalab yoki maydalab tortib sotish va sotib olish.



Savol va topshiriqlar

1. XVII asr Rossiya iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini qayd eting.
2. 1649- yilgi «Sobor nizomi» haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Rossiyada mutlaq monarxiya qay tariqa qaror topa bordi va u qachon nihoyasiga yetdi?
4. Pyotr I ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari haqida so'zlab bering.
5. XVIII asr ikkinchi yarmida Rossiya tashqi siyosatda qanday muvaffaqiyatlarga erishdi?

Mustaqil ish

XVIII asr Rossiya va O'zbekiston tarixida qanday o'rin tutganligini aniqlang.

II BOB. XVI – XVIII ASRLARDA OSIYO MAMLAKATLARI

19- §. XVI – XVIII asrlarda Hindiston



Boburiylar imperiyasining tashkil topishi. XVI asrda Hindistonda siyosiy tarqoqlik hukm surardi. O'zaro ichki nizolar va urushlar mamlakatni kuchsizlantirgan edi. Hindistondagi ichki siyosiy ahvolni sinchkovlik bilan kuzatib turgan Kobul hukmdori Zahiriddin Muhammad Bobur vaziyatdan foydalanishga qaror qildi va Hindistonni egallash uchun harbiy yurish boshladi.

Bu davrda Shimoliy Hindistondagi Dehli sultonligida *Hindistondagi afg'on qabilalaridan chiqqan* lo'diyar sulolasi hukmronlik qilardi.



18- rasm. Humoyunshoh. ✓

Bobur Mirzo 1526- yilning 21- aprelida Panipat jangida Ibrohim Lo'diy qo'shinini tor-mor keltirdi.

27- aprel kuni esa Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa tarixda 332 yil yashagan yangi imperiya – Boburiylar imperiyasiga asos solindi. Bobur Hindistonda o'zi bilan qolgan qo'shinga jogir tarqatdi. Bu yerlarda xo'jalik yuritish ishlariga rahbarlik qilish mahalliy urf-odatlarini yaxshi biladigan hindlarga topshirildi.

Bobur imperiya taxtida uch yil o'tirdi. 1530- yilda Boburning o'limidan so'ng imperiya taxti katta o'g'li Humoyunga o'tdi.

Imperiyadagi siyosiy ahvol. Humoyun imperiya sarhadlarini yanada kengaytirishga intildi. Bu kurashda uning asosiy raqibi Bixor va Bengaliyada joylashib olgan afg'on qabilalarining yetakchisi Sherxon Sur bo'ldi.

Ikki sarkarda qo'shinlari o'rtasidagi jangda Sherxonurning qo'li baland keldi. Mag'lubiyatga uchragan Humoyun Eronga qochib ketdi. Sherxon Sur Hindiston taxtini egalladi va shoh deb e'lon qilindi. Bu hodisa 1540- yilda yuz berdi. Surlar davri shiddatli va shafqatsiz ichki kurashlar bilan o'tdi. Oqibatda Hindistonda og'ir siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bundan Humoyun ustalik bilan foydalandi. Taxtdan ayrilgan yillarda u turk, fors, turkman va o'zbeklardan iborat kuchli qo'shin tuza olgan edi. 1555- yilda Humoyun Hindiston taxtining da'vogarlarini tor-mor etib, yana hokimiyatni o'z qo'liga qaytarib oldi. Unga taxtda uzoq o'tirish nasib etmadi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Humoyun tasodifiy falokat tufayli halok bo'ldi.

Imperiya Akbarshoh davrida. Boburiylar sulolasi hukmdorlari ichida «Buyuk Akbar» degan unvonga sazovor bo'lgan Humoyunning o'g'li Akbarshoh 1556- yilda otasi taxtini egalladi. Akbarshoh hamisha uzoqni ko'zlab siyosat yuritdi. Shu tufayli u Hindistonda o'z hukmronligini to'la va uzil-kesil o'mata oldi. Shuning uchun ham uni Hindistondagi Boburiy hukmdorlar ichida eng ulug'i – «Buyuk Akbar» deb atashgan.





Akbar Hindiston tarixidagina emas, balki jahon tarixida ham eng buyuk shohdir. Agar yevropalik hukmdorlar bilan taqqoslanadigan bo'lsa, Akbar ulug'vorlikda ham, omadbarorlikda ham ulardan ustun turadi.

Ishvari Prasad, hind tarixchi olimi.

Akbarshoh bunday buyuklikka osonlikcha erishgan emas. Uning asosiy raqibi Hindistondagi afg'on qabilalari yetakchilari edi. Akbarshoh qo'shini 1556- yilda afg'on qabilalari qo'shinini tor-mor etdi.

1559- yilga kelib taxt uchun boburiylarga qarshi kurashning yetakchi kuchlari – afg'onlarning Sur sulolasi butunlay yanchib tashlandi.



Akbarshohning hukmronlik yillari imperiyaning oltin davri bo'lgan.

Akbarshoh zukko davlat arbobi, mohir sarkarda bo'lishi bilan bir qatorda, itoatkor o'g'il, g'amxo'r ota ham edi. Qo'l ostidagi xalqlarning turmush farovonligi doimo uning e'tiborida turgan. Kambag'al, beva-bechoralarga muntazam moddiy yordam ko'rsatgan.

Akbarshoh falsafa, din, adabiyot va tarix ilmini yaxshi egallagan.

U boshqa din vakillariga nisbatan ham adolatli siyosat yuritgan.



19- rasm. Akbarshoh.



Akbarshoh musulmon bo'lmaganlardan undiriladigan «jizya» solig'ini bekor qilgan.

Hindlarning ziyoratgohlaridan olinadigan soliqni man etgan. Imperiya hududida yagona savdo solig'i joriy etilgan. Ham xolisa, ham jogirdorlar yerlaridan teng miqdorda soliq undirilgan. Davlat idoralaridagi lavozimlar, dini va mazhabidan qat'i nazar, shaxsning salohiyatiga qarab taqsimlangan.



Akbarshoh barcha fuqarolarga din erkinligi bergan.

Bir soʻz bilan aytganda, Akbarshoh hindlar bilan musulmonlarning yonma-yon, tinch-totuv yashashlariga erishgan. Akbarshoh yuritgan bunday adolatli siyosat boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi va amaldorlar tomonidan qoʻllab-quvvatlanishida katta rol oʻynadi. Bu esa, oʻz navbatida, imperiyaning qudrati va shon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qilgan.

Akbarshoh Hindistonda yuritgan adolatli siyosati evaziga «Milliy podshoh», «Xalq hukmdori» nomlariga ham sazovor boʻlgan. Akbarshoh 1605- yilda vafot etgan.

XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab imperiyada toju taxt uchun kurash avj oldi. Oxir-oqibatda, bu kurashda 1627–1658- yillarda hukmronlik qilgan Shoh Jahon (Akbarshohning nabirasi)ning oʻgʻli Avrangzeb gʻalaba qozondi. U 1658- yilda Dehli shahrini egalladi va oʻzini shoh deb eʼlon qildi. Avrangzeb hukmronligi davrida (1658–1707) imperiya hududi yanada kengaydi. Ayni paytda, Avrangzeb hukmronligi yillarida imperiya inqirozi uchun zamin ham yetila bordi.

Xoʻsh, bu nimalardan iborat edi? Avvalo, Avrangzebning hech kimga ishonmasligi, hamma narsaga shubha bilan qarashi davlati arkon hamda mahalliy hind hukmdorlarining undan koʻnglini sovitti.

Ikkinchidan, u oʻzini faqat mamlakatni idora qilish uchungina emas, balki islom dinini himoya qilish va uning yoyilishi koʻlamini yanada kengaytirish uchun ham taxtga chiqqan hukmdor deb hisoblardi. Shu tufayli musulmon boʻlmagan fuqarolarni islom diniga oʻtkazish uchun hech narsadan qaytmadi. Bunday siyosat oqibatida mamlakatning musulmon boʻlmagan aholisi uning itoatkor fuqarosiga emas, balki gʻazablangan raqibiga aylandi.

1679- yildan hindlar qaytadan «jizya» soligʻini toʻlashga majbur etildi. Hatto hindlarning muqaddas ziyoratgohlarga boruvchilaridan ham soliq olinadigan boʻldi. Musulmon savdogarlari soliqdan ozod qilingani holda, hind savdogarlariga tovarning pesh folzi miqdorida soliq joriy etildi. Soliq yigʻuvchi idoralardagi mansabdor hindlar asta-sekinlik bilan lavozimlaridan boʻshatila boshlandi. Avrangzebning bu siyosati oxir-oqibatda Boburiylar imperiyasining chok-chokidan soʻkilib ketishiga olib keldi.

Buyuk Britaniya va Hindiston. Avrangzebning vafotidan soʻng imperiyada ichki nizolar yanada kuchaydi. Shunday sharoitda Hindistonga yevropaliklarning kirib kelishi kuchaydi. Yevropa davlatlari

hukmron doiralaringining maqsadi, Hindistonning bitmas-tuganmas boylıklariga, unumdor yerlariga ega bo'lish edi. Yevropa davlatlari hukumatlari endilikda o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishga kirishishdi. Chunonchi, 1757- yilda Buyuk Britaniya Bengaliyani bosib oldi. Bu boy hudud Buyuk Britaniyaning keyingi bosqinchilik rejalarini amalga oshirishda tayanch vazifasini o'tadi. Shu tariqa Buyuk Britaniyaning Hindistonni asta-sekin o'z mustamlakasiga aylantirish davri boshlandi.



Jogir – harbiy xizmat evaziga in'om etilgan yer.
Xolisa – davlat yerlari.



Savol va topshiriqlar

1. Hindistonda Boburiylar imperiyasi qay tariqa vujudga kelgan?
2. Akbarshoh qaysi xislatlari evaziga «Buyuk Akbar», «Milliy podshoh», «Xalq hukmdori» deb ulug'langan?
3. Akbarshoh va Avrangzebning imperiyada yurgizgan siyosatini taqqoslang, ularning o'xshash va farqli tomonlarini toping.
4. Boburiylar imperiyasi inqirozi boshlanishiga sabab bo'lgan omillarni qayd eting.
5. Qanday omillar yevropaliklarni Hindistonning ichki ishlariga aralashuviga imkon yaratdi?
6. Hindistonda Akbarshoh hukmronligining so'nggi yillarida Buxoro xonligida qanday muhim o'zgarish yuz berdi?

20- §. XVI–XVIII asrlarda Xitoy



Siyosiy hayot. XVI asrda ham Xitoyda Min sulolasi hukmronlik qilardi.



Xitoyda Min sulolasining hukmronligi qachon va qay tariqa o'rnatilgan edi?

Ayni shu asrda mamlakatda siyosiy ahvol keskinlashdi. Buning sabablari nimalardan iborat edi? Avvalo, jamiyat hayotini o'rta asr ishlab chiqarish munosabatlari chuqur qamrab olgan. Bu jamiyat hayotida natural xo'jalikning

ustunligida yaqqol namoyon bo'lmog'da edi. Bundan tashqari, asosiy ishlab chiqaruvchi kuch – dehqonlarni holdan toydiruvchi ijaraga yer olib ishlash tartibi hamon chuqur ildiz otganligicha qolavergan edi. Ijara haqi hosilning 50 foiz qismini tashkil etardi. ✓

Despotik davlat hokimiyati esa barcha eski tartiblarning bosh tayanchiga aylanib qolgan.

Davlat hokimiyati amalda har qanday yangilikning ashaddiy dushmaniga aylangan. Buning ustiga, XVI asrga kelib davlat hamda dehqonlar yerlarining katta yer egalari qo'lga o'tish jarayoni kuchaydi. Ular bu yerlarni o'z mulklariga aylantirishda hech narsadan qaytmadilar. Eng ko'p miqdordagi yer imperator xonadonining qo'lida to'plandi. Buning ustiga, ular hosildor yerlar ham edi.

Ijara shartining og'irligi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch – dehqonlarni xonavayron qila boshladi. Bu esa butun imperiya hududida dehqonlar qo'zg'oloni boshlanishiga olib keldi va bu qo'zg'olon butun mamlakatni qamrab oldi.

Ichki siyosiy kurash. Dehqonlar qo'zg'olonining keng quloch yoyishi Min imperiyasining siyosiy parchalanish jarayonini kuchaytirdi. Hukmron tabaqalarning manfaatiga xizmat qiluvchi hukumat jamiyatda yetilgan eng dolzarb vazifalarni hal etishga qodir bo'lmay qoldi. Davlat idoralari amaldorlari o'rtasida o'zboshimchalik, *korrupsiya* hamda davlat mansablarini sotish avj oldi. Imperator xonadoni turli xil ko'ngilochar tadbirlar va zebu ziynat buyumlari uchun davlat xazinasini sovurdi. Bu omillar mamlakat aholisining turli qatlamlarida keskin norozilik uyg'otdi. Natijada Min sulolasi va uning tayanchlariga qarshi *muxolifat kuchaya bordi.*

Muxolifatning asosiy kuchini o'rta va mayda yer egalari, shahar aholisining o'ziga to'q qismi, shuningdek, mamlakat ziyolilari tashkil etdi. Muxolifat imperatordan davlat mansablariga amaldorlarning qobiliyatiga qarab tanlanishini, eskitib qolgan qonunlarni o'zgartirishni talab qildi. Biroq saroy a'yonlari muxolifat talablariga quloq ham solmadi va aksincha, ularni ta'qib etishga kirishdi.

Muxolifat kurashni to'xtatmadi. Buning ustiga dehqonlar qo'zg'oloni ham tobora keskin tus ola boshladi.

Manjurlar hukmronligi. XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Xitoy uchun o'ta xavfli tashqi raqib ham paydo bo'ldi. Bu imperiyaga chegaradosh hududlarda tashkil etilgan Manjuriya davlati edi.



Manjuriya hozirgi Xitoy Xalq Respublikasining shimoli-sharqiy qismi. Hozir bu hudud Dunbey (Shimoli-Sharq) deb ataladi.

Bu davlat hukmdori Abaxay davrida (1626 – 1643) Xitoy hududlarini bosib olishda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Kuchsizlanib, holdan toygan Min sulolasi manjurlarga jiddiy qarshilik ko'rsata olmadi. Manjurlar imperiyaning katta qismini bosib oldilar. 1636- yilda Abaxay o'zini imperator deb e'lon qildi. O'z sulolasini Sin (toza, tiniq) nomi bilan atay boshladi.

Min sulolasining halokati. Sulolaning tashqi bosqinchi kuchlar oldidagi taslimchilik siyosati mamlakatda keskin norozilikni keltirib chiqardi.

Mamlakatni dehqonlar qo'zg'oloni qamrab oldi. Dehqonlar qo'shinlarining yetakchilari barcha harbiy kuchlarni birlashtirdilar. Ularga Li Szi-chen qo'mondonlik qildi.

1643 yilda qo'zg'olonchilar harbiy kengashi Pekinga hujum boshlash haqida qaror qabul qildi. Li Szi-chen imperator deb e'lon qilindi.

Xitoyning janubi-g'arbiy qismida esa dehqonlar qo'zg'olonining yana bir qo'mondoni Chjan Syan-chjun ham o'z davlatini tuzganligini e'lon qildi.



1644- yilda qo'zg'olonchilar Pekinni ishg'ol qildilar. Buning natijasida Min sulolasi taxtdan ag'darildi.

Bu davrda mamlakat shimolida hukumat qo'shinlari general U San-guy qo'mondonligida manjurlarga qarshi kurash olib borayotgan edi.

U San-guy Pekindagi yangi hukumatga katta tashvish keltirishi mumkin edi. Shuning uchun ham Li Szi-chen u bilan til topishishga qaror qildi.

Biroq U San-guy dehqonlar hokimiyatini tan olmadi. Ayni paytda u dehqonlar hukumatini o'z ixtiyoridagi qo'shin bilan ag'darishga ham o'zligini bilar edi. Shu tufayli u xoinlik yo'liga o'tdi va manjurlar vassali bo'lishga rozilik berdi.



1644- yilda manjurlar Pekinni ishg'ol qildilar. Abaxayning o'g'li Xitoy imperatori deb e'lon qilindi. Shu tariqa Xitoy tarixida manjurlarning Sin sulolasi hukmronligi boshlandi va u 1911- yilgacha davom etdi.

Dehqonlar qo'zg'olonlari shafqatsizlik bilan bostirildi. Li Szi-chen va Chjan Syan-chjunlar janglarda halok bo'ldilar.

Tashqi siyosat. Sin sulolasi bosqinchilik siyosati yuritdi. Dastlab, 1637-yilda Koreya vassal davlatga aylantirildi.

1757- yildan boshlab Guanchjou portidan boshqa barcha portlar Yevropa kemalari uchun yopib qo'yildi.

1758- yilda esa shimoliy va G'arbiy Mo'g'ulistonda tashkil topgan Jung'oriya (Oyrat) xonligi butunlay bosib olindi. Tez orada butun Mo'g'uliston va Qashqar ham egallandi.

Sin sulolasi hukmdorlari Xitoyni to'la bo'ysundirishda g'arbiy yevropaliklar madadiga tayandi. Shu tufayli ularga dastlab Xitoy portlari ochib berildi. Biroq g'arbiy yevropaliklarning Xitoyga kirib kelishi oxir-oqibatda nimalarga olib kelishi tobora oydinlasha borgach, o'zgacha yo'l tutishga majbur bo'lindi.

1792- yilda Nepal davlatiga Sin sulolasining vassali ekanligi majburan tan oldirildi.



Despotik – huquqi cheklanmagan, zo'ravonlikka asoslangan hokimiyat.

Korrupsiya – mansabdor shaxslarning shaxsiy boyish maqsadida sotilishi.



Savol va topshiriqlar

1. Nega XVI asrdan boshlab Min sulolasi og'ir siyosiy va iqtisodiy tanazzulni boshidan kechira boshladi?
2. Xitoydagi muxolifatchi kuchlar nima uchun kurashdilar?
3. Xitoyda manjurlarning Sin sulolasi hukmronligi qay tariqa o'rnatildi?
4. Sin sulolasining tashqi siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?

21- §. XVI – XVIII asrlarda Yaponiya



Siyosiy ahvol. XVI asrda Yevropada yangi jamiyat – kapitalizmning tarkib topish jarayoni davom etayotgan bir sharoitda Osiyo davlatlarida hamon o'rta asr davri feodal jamiyati munosabatlari davom etardi. Yaponiya ham bundan mustasno emas edi.

XVI asr boshlarida Yaponiya o'zaro ichki urushlar oqibatida amalda qator mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketgan.



1507- yildan boshlab Yaponiya tarixida notinch davr boshlandi. Bu davr Yaponiya tarixiga «Kurashuvchi viloyatlar davri» nomi bilan kirgan.

O'zaro ichki urushlar faqat 1573- yilda ikkinchi syogun Asikaga sulolasi hokimiyatining ag'darilishi bilan nihoyasiga yetdi.

Yaponiyani yagona davlatga birlashtirishdek tarixiy vazifani amalga oshirish ishiga qudratli xonadon yetakchilaridan biri Oda Nobunaga rahbarlik qildi. Shiddatli va shafqatsiz kurashlardan so'ng Oda Nobunaga 1573- yilda Asikagani syogunlikdan mahrum etdi.

XVI asr oxirlariga kelib u mamlakat viloyatlarining deyarli yarmini birlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Oda Nobunaga mamlakatda qator islohotlar o'tkazdi. Chunonchi, iqtisodiy taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgan mahalliy soliq va bojxona to'lovlarini bekor qildi. Savdo yo'llari va ko'priklar ta'mirlandi. Shaharlarga bozorlar ochish huquqi berildi. Shaharlarning tashqi savdo faoliyati rag'batlantirildi.

Ayni paytda filla va kumush tangalarni muomalaga kiritdi. Oda Nobunaga o'tkazgan islohotlar Yaponiyaning siyosiy birlashuvi va iqtisodiy taraqqiyotiga yordam berdi.

Yevropaliklarning kirib kelishi. XVI asrning 40 yillaridan boshlab Yaponiyaga birinchi bo'lib Portugaliya savdogarlari kirib keldilar.

1543- yilda portugaliyalik Mendish Pintu Bungo viloyati hukmdori bilan Yaponiyaga turli tovarlar qatori qurol-aslaha, porox olib kelish va ularni oltin hamda kumushga ayirboshlash to'g'risida shartnoma imzoladi. Yevropaliklarning Yaponiyaga kirib kelishining eng ahamiyatli jihati, o'qotar qurolning Yaponiyaga keltirilishi hamda shu yerda ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishi bo'ldi. Mendish Pintu yaponlarga o'qotar qurollar yasash san'atini o'rgatdi. Ayni paytda Yaponiyaga yevropalik savdogarlar ortidan katolik cherkovi ruhoniylari ham kela boshladilar.

Ular yaponlar orasida xristian dinini targ'ib etishga kirishdilar. Ulardan so'ng esa ispan katolik ruhoniylari ham bu mamlakatga kirib

kela boshladilar. Syogun Oda Nobunaga Yaponiyada xristian dinining tarqalishiga homiylik qildi. Chunki bu davrda budda dini peshvolari Oda Nobunagaga dushman bo'lgan kuchlarni qo'llab-quvvatlamogda edi. Ular Yaponiyani yagona davlatga birlashtirishga qarshi kuchlarning tayanchiga aylangan edilar. Bundan tashqari, Oda tezlik bilan qo'shinini Yevropa qurol-aslahasi bilan to'la qurollantirish maqsadida ham shunday qilgan edi.

Yaponiyani birlashtirish uchun kurashning davom etishi. 1582- yilda Oda Nobunaga fitna qurboni bo'ldi. Yaponiyani birlashtirish yo'lidagi ishni uning yaqin yordamchisi Toyotomi Xidayosi davom ettirdi. U Odaga qarshi til biriktirgan guruhni tor-mor etdi. Xidayosi Yaponiyani to'la birlashtirishga erisha olmagan bo'lsa-da, bu borada katta muvaffaqiyatlarga erishdi. Xidayosi 1587- yilda barcha xristian ruhoniylarining Yaponiyani tark etishi haqida qonun chiqardi. Mamlakatda faqat Portugaliya savdogarlarining qolishiga ruxsat etildi. Buning sababi har ikki tomonning o'zaro manfaatdorlikka asoslangan savdo munosabatlarining o'rnatilganligi edi.



20- rasm. Yapon jangchisi.

Yaponiyani birlashtirishning tugallanishi. 1598- yilda Xidayosi vafot etdi. Uzoq kurashlardan so'ng syogunlik hokimiyatini Tokugava Iyasu egalladi.



Shu tariqa 1603- yilda Yaponiyada uchinchi syogun sulolasi – Tokugava xonadoni hukmronligi boshlandi. Bu sulola Yaponiyada 1867- yilgacha hukmronlik qildi va Yaponiyani birlashtirish ishini tugalladi.

1603
Mamlakatda Tokugava sulolasining mutlaq hokimiyati o'rnatildi. Biroq bu sulola nomiga bo'lsa-da, imperator hokimiyati daxlsizligini saqlab qoldi. Chunki yapon xalqi uchun imperator xudoning avlodi hisoblanardi. Shuning uchun ham imperator hokimiyatini bekor qilgandan ko'ra, uning nomidan o'z siyosatini yuritish oson kechardi.

1603
O'zini-o'zi ajratib qo'yish. Tokugava Xidayosining xristianlikni ta'qib etish siyosatini davom ettirdi. 1614- yilda syogun xristian dinini taqiqlovchi qonun chiqardi. Qonun xristian dinini imperiya dushmani deb e'lon qildi. Budda dinini hurmat qilmaydigan barcha shaxslarning Yaponiyadan chiqib ketishi talab etildi. Shu tariqa Yevropa mustamlakachilari Yaponiyadan quvib yuborildi.

Bu hol Yaponiyaning Yevropa bilan munosabatlariga ta'sir etmay qolmadi. Natijada Yaponiya tashqi dunyodan o'zini-o'zi ajratib qo'ydi. Xo'sh, bunday siyosat yuritilishiga nimalar sabab bo'ldi? Avvalo, Tokugava xonadoni bunday siyosat tufayli markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka intilayotgan kuchlar harakatiga barham berib, Yaponiyani birlashtirish ishini nihoyasiga yetkazish mumkin, deb hisoblardi. Ayni paytda bu siyosat Yevropa bilan savdo-sotiq ishlarini to'la o'z qo'llariga olgan va shu tufayli markaziy hokimiyatga bo'y-sunishni istamagan kuchlarning iqtisodiy qudratini sindirishi ham kerak edi.



Syogun o'zini-o'zi ajratib qo'yish siyosati yo'li bilan Yaponiyaning yevropaliklar mustamlakasiga aylanib qolish xavfining oldini olish maqsadini ham ko'zlagan edi.

Syogunning bunday xavfsirashiga asos bor edi.

Yosimune islohotlari. Yosimune Tokugava sulolasining eng mashhur davlat arbobi sifatida tanildi. U bu suloladan chiqqan sakkizinchi syogun bo'lib, 1716–1745- yillarda hukmronlik qildi. U qo'riq yerlarni o'zlashtirish hisobiga dehqonchilik qiluvchilarni rag'batlantirish siyosatini yuritdi. Sug'orish inshootlari tizimini takomillashtirdi. Yerni sotish, sotib olish yoki garovga qo'yishni taqiqlovchi qonun chiqardi. Mamlakat va jamiyat hayotini tartibga solishda u joriy etgan «100 moddali Farmon» deb ataluvchi qonunlar to'plami katta ahamiyatga ega bo'ldi.



Savol va topshiriqlar

1. «Kurashuvchi viloyatlar davri» iborasining mazmunini izohlab bering.
2. Oda Nobunaganing Yaponiya tarixidagi xizmatiga baho bering.
3. Toyotomi Xidayosi va Tokugava Iayasularning Yaponiya oldidagi xizmatlarini taqqoslang.
4. Nega Xidayosi va Tokugava Yaponiyada xristian dinini taqiqlash siyosatini yuritganlar?

22- §. XVI – XVIII asrlarda Usmonli turklar imperiyasi



Imperiyaning yuksalishi. XVI asr boshlarida butun imperiya viloyatga, viloyatlar esa sanjoq (tuman)larga bo'lingan edi. Viloyatlarni vali, sanjoqlarni esa sanjoqbey boshqarardi.



Imperiyaning asosiy tayanchi uning qo'shini edi.

Imperiya bosib olgan hududlardagi yerlar ham davlat mulki deb e'lon qilingan. Sulton bu yerlarni o'z sipohlariga (oltiqlik askar) harbiy majburiyat evaziga taqsimlab bergan. Ularning miqdori har xil bo'lgan. Sipohlar shu tariqa o'z xo'jaliklariga ega bo'lganlar. Sipohlar yerni dehqonlarga ijaraga berganlar.

Ayni paytda sipohlar zimmasiga harbiy harakatlarda qatnashish zarurati tug'ilganida sulton farmon bergani zahotiyoq sanjaqbey qo'mondaligida belgilangan joyga yetib kelish majburiyati yuklatilgan. Bundan tashqari ular o'zi bilan birga yeridan oladigan daromadi miqdoriga mos ravishda qurolli askarlar ham olib kelishi shart bo'lgan. Sipohi xo'jaligining daromadini ijarachi dehqon to'laydigan soliq tashkil etgan. Sipohiga beriladigan yerning katta-kichikligiga qarab olinadigan daromad miqdori oldindan belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, imperiyaning doimiy qo'shini – yanicharlar (yangi qo'shin) shuningdek, kuchli harbiy dengiz floti ham bo'lgan. Bu omillar Usmonli turklar imperiyasiga keng ko'lamda bosqinchilik urushlari olib



21- rasm. XVI asr turk askari.

borish imkonini bergan. Bunday urushlar natijasida Usmonli turklar davlatining ulkan imperiyaga aylanganligi Sizlarga VII sinf «Jahon tarixi» darsligidan ma'lum. Imperiya XVI asrda ham bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. Bu davrda Eron imperiyaning Osiyodagi eng yirik raqibiga aylangan edi.

Sulton Salim I 1514- yilda Eron shohi Ismoil Safaviy qo'shini tor-mor etdi. Bu g'alaba sultonga shohning ittifoqchisi Misr sultonligiga qarshi yurish boshlashga yo'l ochdi.

Sulton Salim I dastlab, Suriya va Falastinni bosib oldi. 1517- yilda esa Misr poytaxti Qohira shahri egallandi.



Imperiya nafaqat Osiyo va Yevropada, hatto Afrikada ham mustamlakalarga ega bo'ldi.

Imperiya hududining kengayishi yirik savdo yo'llarining ham Turkiya qo'liga o'tishiga olib keldi. Bu omillar imperiya markaziy hokimiyatining hamda harbiy qudratining yanada kuchayishini ta'minladi. Oqibatda, Turkiyaning xalqaro ta'sir-e'tibori Yevropa, Osiyo va Afrika mamlakatlari taqdiridagi o'rnini yanada ortdi.

Ichki ahvol. Imperiya o'zining beqiyos qudratiga faqat sultonlarning oqilona siyosati tufayligina erishgani yo'q.



Bunday beqiyos qudratga mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilishni kuchaytirish, mustamlaka o'lkalardan tashib kelingan ulkan miqdordagi boyliklar hisobiga ham erishdi.

Ekspluatatsiyaning tobora kuchayishidan tinka-madori qurigan dehqonlar shaharlarga, tog'larga qochib keta boshladilar. Sulton buning oldini olish maqsadida yer egalarga qochib ketgan dehqonlarni

majburan qaytarib olib kelish huquqini beruvchi maxsus farmon chiqarishga majbur bo'ldi.

Unga ko'ra, qochib borgan joyida 15, shaharlarda esa 20 yildan kam yashagan dehqonlar avvalgi joylariga majburan qaytariladigan bo'ldi. Bu aslida Yevropada hukm surgan krepostnoy huquqning Turkiyadagi o'ziga xos bir ko'rinishi edi.



Krepostnoy huquq deb nimaga aytilgan?

Yer egalari zulmidan tinka-madori qurigan dehqonlar 1519- yilda qo'zg'olon ko'tardilar. Unga shayx Jalol rahbarlik qildi. Sulton Salim I qo'zg'olonni katta kuch bilangina bostira oldi. Keyinchalik Qalandar boshchiligida ko'tarilgan qo'zg'olon ham katta qiyinchilik bilan bostirilgan.

Dehqonlarning xonavayron bo'lishi va ko'plab qochib ketishi XVI asr o'rtalaridan boshlab qishloq xo'jaligining inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, ocharchilik ro'y berishiga olib keldi.

Shunday sharoitda dehqonlarni o'zlari tashlab ketgan yerlarga qaytarish har qachongidan ham muhim bo'lib qoldi. Buni amalga oshirish uchun sulton 1610- yilda maxsus farmon chiqarishga majbur bo'ldi. «Adolat farmoni» deb nomlangan bu farmon ocharchilik davrida tashlab ketilgan yerlarni dehqonlarga arzon haq evaziga qaytarishni ko'zda tutar edi. Ayni paytda harbiy majburiyat uchun beriladigan yer mulki tizimining yemirilishi ham kuchaydi. Buning asosiy sababi, davlat xazinasi taqchilligini to'ldirish maqsadida bunday yerlarni mayda-mayda bo'laklarga bo'lib sotishga majbur bo'linganligi edi. Shu tariqa Turkiya harbiy qudratining pasayish davri boshlandi. G'arbiy Yevropada markazlashgan davlatlar, kuchli markaziy hokimiyat qaror topgan bir sharoitda Turkiya kuchsizlana boshladi.



1684- yilda Yevropa davlatlari Turkiyaga qarshi «Muqaddas Liga» tuzdilar.

XVI asr oxiri – XVII asr boshlarida Turkiya avvalgidek hujumkor qudratga ega bo'lmay qoldi.

Yevropa davlatlariga qaramlikning boshlanishi. XVII asrning o'rtalaridan boshlab Turkiyadagi ichki ahvol yana keskinlasha boshladi. Davlat budjetida muntazam ravishda taqchilik holati yuz berdi. Endi Turkiyaning kuchsizlanishi jarayonini to'xtatishning oldini olish mumkin bo'lmay qoldi.

Og'ir ahvolda qolgan hukumat Yevropa madadiga tayanishni lozim ko'rdi. Yevropa davlatlari savdogarlariga juda katta yengillik va imtiyozlar berila boshlandi. Masalan, Fransiya savdogarlari uchun atigi uch foiz miqdorida bojxona to'lovi joriy etildi. Natijada Turkiya bozorlari Yevropa tovarlariga to'ldirib tashlandi. Bu esa mahalliy sanoatga o'nnganmas zarba bo'lib tushdi.

Turkiya tashqi siyosatda borgan sari, birinchi navbatda, Angliya va Fransiya bilan yaqinlasha boshladi. Sultonlar nazdida ular Turkiyaning Rossiyaga qarshi kurashida ittifoqchilari bo'lishlari kerak edi. Angliya va Fransiya hukumatlari ham mavjud vaziyatdan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib qolish ishtiyoqi bilan yondilar. Ularning madadidan umidvor bo'lgan Turkiya XVIII asrda Rossiya bilan bir necha bor urushga kirdi, biroq bu urushlarda Turkiya yengildi. Mag'lubiyat Turkiyada hukm surayotgan o'rta asrlarga xos munosabatlarning butunlay chiriyotganligining namoyishi bo'ldi.



Liga – ittifoq, birlashma.



Savol va topshiriqlar

1. XVI asr Usmonli turklar (Turkiya) imperiyasi tarixida qanday o'rin tutadi?
2. Nega imperiyada uzoq vaqt ichki notinchlik hukm surdi?
3. Turkiyaning Yevropa davlatlariga qaramligi qay tariqa sodir bo'ldi?
4. Turkiyadagi Fransiya savdogarlariga qanday imtiyozlar berildi va nima uchun shunday qilindi?
5. Turkiya – Rossiya munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
6. Siz mavzuni o'rganish jarayonida XVI asr Turkiya imperiyasi kuch-qudratining cho'qqisi asri bo'lganligini bilib oldingiz. XVI asr boshlarida yurtimizda qanday yirik tarixiy voqea yuz bergan edi?

23- §. XVI–XVIII asrlarda Eron



Safaviylar sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. XV asr oxirida Eron markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaydigan bir qancha mustaqil hududlarga bo‘linib ketgan edi. Buning oqibatida o‘zaro ichki urushlar tobora avj oldi. Bu esa mamlakat taraqqiyotiga katta salbiy ta‘sir ko‘rsata boshladi. Oqibatda mamlakat zaiflashdi. Eronning bu zaiflashuvi Turkiya bosqini xavfini tobora kuchaytira bordi.

Bu ikki omil Eronni yagona davlatga birlashtirishni hayotiy zaruratga aylantirib qo‘ydi. Bu tarixiy vazifa sarkarda, Eronda katta siyosiy nufuzga ega bo‘lgan Adabiy shahri hukmdori, diniy rahnomalardan biri Ismoil Safaviy tomonidan uddalandi.

Ismoil I Safaviy 1500–1501- yillarda olib borgan urushlari natijasida katta-katta hududlarni egalladi. 1502- yilda esa Tabriz shahrini ishg‘ol etgach, o‘zini ~~shohanshoh deb e‘lon qildi (1502–1524)~~. Shu tariqa tarixga «Safaviylar davlati» nomi bilan kirgan davlat vujudga keldi. Bu davlat tarkibiga Erondan tashqari Ozarbayjon, Armanistonning bir qismi, Afg‘oniston, janubiy sharqiy Iroq va boshqa hududlar kirgan. Tabriz shahri poytaxt etib belgilandi.

Ismoil I Safaviy markazlashgan davlat tuzibgina qolmay, uni o‘z davrining qudratli davlatlaridan biriga ham aylantira oldi.

Ismoil I Safaviy markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida yer egaligining suyurg‘ol shaklini deyarli butunlay bekor qildi. Uning o‘rniga tiyulni joriy etdi.

Topshiriq

VII sinf «O‘zbekiston tarixi» darsligidan qanday yer egaligiga suyurg‘ol deyilganligini aniqlang.

Biroq bu tadbir yirik yer-mulk egalarning markazga bo‘ysunmaslikka intilishlarini to‘xtata olmagan.

Safaviy hukmdorlar tinimsiz bosqinchilik urushlari olib borganlar. Shohlik tarkibiga kiruvchi qaram o‘lkalar xalqlarining ozodlik kurashini shafqatsizlik bilan bostirganlar.

Shoh Abbas I hukmronligi davri. Abbas I davrida (1587—1629) safaviylar davlati o‘z qudratining cho‘qqisiga erishdi. U bunga Eronga qaram bo‘lgan chekka o‘lkalardagi eng yirik yer-mulk egalarning mustaqilligini

tugatish hisobiga erishdi. Bu yer-mulk egalari bir vaqtlar safaviylarga katta yordam bergan, buning evaziga keyingi shohlar davrida ularning oliy hokimiyati ostida amalda mustaqil bo'lgan juda katta-katta hududlarga egalik qilib kelishardi. Ular amalda bu mustaqil hududlarning xonlari edi.

Abbos I mamlakat poytaxtini Tabriz shahridan (Ozarbayjon) Isfahon (Eron)ga ko'chirdi. Mamlakat soliq tizimida tartib o'rnatildi va soliqlar miqdori kamaytirildi. Savdo-sotiq va hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor berdi. Yangi-yangi karvonsaroylar va savdo yo'llari qurildi. Savdo karvonlari qaroqchilariga qarshi shafqatsiz kurashdi. Rossiya, Turkiya, Angliya, Niderlandiya, Fransiya va Venetsiya bilan keng ko'lamli savdo-sotiq yo'lga qo'yildi. Bu esa Eronning ichki va tashqi savdosi o'sishiga olib keldi. Yangi-yangi sug'orish inshootlari ham bunyod etildi. Natijada katta-katta maydonlarga suv chiqarib hosil olishga imkon tug'ildi.

Abbos I bundan tashqari o'z qo'shinini har tomonlama mustahkamlashga ham alohida e'tibor berdi. U muntazam qo'shin barpo etdi. Angliya harbiy mutaxassislari yordamida qo'shinda o'q otuvchi qurol va to'p joriy etdi. Bu islohot tezda o'z samarasini ko'rsatdi. 1602- yilda boshlangan Eron – Turkiya urushida Eron g'alaba qozondi. Oqibatda Eron Kavkaz ortida mustahkamlanib oldi. Tez orada Angliya yordamida Portugaliyani Fors ko'rfazidagi Ormuz orolidan quvib chiqarishga erishdi. Bu orol Eron uchun Yevropaga ipak eksport qilishda zarur edi. To'g'ri, Angliya bekorga yordam bermagan, albatta. Ko'rsatilgan bu yordam evaziga Angliyaning «Ost-Indiya» kompaniyasi Eron bilan savdo ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi.

Safaviylar davlatining barham topishi. XVIII asrdan boshlab Safaviylar davlatida iqtisodiy tushkunlik boshlandi. Buning asosiy sababi, yer egaligining tiyul shakli miqdorining ko'payib borganligi oqibatida davlatga qarashli yer miqdorining kamayishi edi. Bu hol davlat xazinasiga tushadigan daromadning kamayishiga olib kelgan. Buning oldini olish uchun keyingi hukmdorlar dehqonlar to'laydigan soliq miqdorini oshirganlar. Bu esa, o'z navbatida, dehqon xo'jaliklarini xonavayron qilib, savdogarlar va hunarmandlar ahvolini ham yomonlashtirgan. Buning ustiga jon solig'i (jizya) miqdori ham oshirilgan.

Natijada dehqonlar uchun ijaraga olib tirikchilik qilishdan manfaat qolmagan. Endi ularning tirikchilik ilinjida boshqa joylarga ketishdan boshqa ilojlari yo'q edi. Biroq shoh Sulton Husayn bunga yo'l qo'ymaslik

uchun 1710- yilda dehqonlarning yerni tashlab ketishlarini taqiqlovchi farmon chiqargan. Dehqon xo'jaligining xonavayron bo'lishi ichki savdoning keskin kamayishiga olib keldi. Buning ustiga, yevropaliklarning Hindistonga boruvchi dengiz savdo yo'lidan tobora ko'proq foydalanishi Eronning tashqi va vositachilik savdosiga katta zarar keltirdi.

Afg'onlar istilosi. Iqtisodiy tushkunlik, o'z navbatida, siyosiy tushkunlikni ham keltirib chiqardi. Ya'ni, aholi turli tabaqalari orasida Safaviylardan norozilik kuchayib bordi. Yirik yer-mulk egalarning markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati va bosib olingan o'lka xalqlarining ozodlik uchun kurashi kuchaydi.

Ulardan biri afg'onlarning 1709- yilda ko'targan qo'zg'oloni bo'ldi.

1722- yilda afg'onlar o'z yetakchilari Mir Mahmud boshchiligida nurab qolgan Eronga hujum qildi. Eron shohi Sulton Husayn hokimiyatni Mir Mahmudga topshirishga majbur bo'ldi. Shu tariqa Eron tarixida afg'on istilosi davri boshlandi.

Nodirshohning hokimiyat tepasiga kelishi. Bu davrda Safaviylar sulolasi hukmronligi nomiga bo'lsa-da, hamon davom etardi. So'nggi hukmdor Taxmasp II amalda hech qanday hokimiyatga ega emas edi. Buning ustiga, unda xalqni turk va afg'on bosqinchilariga qarshi kurashga ko'tara oladigan qobiliyat ham bo'lmagan. Shunday sharoitda afshor qabilasining (turkman urug'udan bo'lgan) yetakchisi, shijoatkor, katta lashkarboshchilik qobiliyatiga ega Nodir Quli kurash maydoniga chiqdi. U 1730- yilda afg'on qo'shinini butunlay tor-mor etib, Eronni afg'on bosqinidan ozod etdi. 1736- yilga qadar Nodir Quli Safaviylar davlatining tarkibiga kiruvchi barcha hududlarda o'z hokimiyatini o'rnatdi. Nihoyat, 1736- yilda barcha qabilalar aslzodalarining qurultoyida o'zini Eron shohi deb e'lon qilishga erishdi. Shu tariqa Safaviylar sulolasi hukmronligi butunlay barham topdi.



22- rasm. Nodirshoh.

Nodirshoh katta bosqinchilik urushlari natijasida ulkan imperiya tuzdi. Biroq

uning hukmronligi uzoq davom etmadi. 1747- yilda o'zaro ichki nizolar natijasida Nodirshoh o'ldirildi.

Qojarlar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi. Nodirshoh halokatidan keyin imperiya bir necha qismlarga bo'linib ketdi. Eronda turli qabilalar o'rtasida toju taxt uchun kurash avj oldi. Bu kurashda asosiy rolni zend va qojar qabilalari o'ynadi. Ular o'rtasidagi toju taxt kurashi 1758- yilda zend qabilasi g'alabasi bilan tugadi. Bu qabila boshliqlari 1796- yilgacha hukmronlik qildilar.

Butun o'tgan davr turli qabilalar toju taxt uchun kurashi davri bo'ldi. Bu kurashda zendlarning asosiy raqibi qojarlar g'alaba qozondi. Bu qabila rahnamosi Og'a Muhammadxon 1796- yilda o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Shu tariqa Eronda yangi sulola – Qojarlar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Mamlakat poytaxti Tehron shahriga ko'chirildi. Og'a Muhammad o'zini shohanshoh deb e'lon qildi.

Yangi sulola Eronda 1925- yilgacha hukmronlik qildi.



***Tiyul** – amaldorlarga xizmat vazifasini bajarish muddatiga yo shoh oldidagi alohida xizmati uchun vaqtincha yoki umrbod muddatga beriladigan yer-mulk. Bunday yerlarni meros qoldirish mumkin bo'lmagan.*




Savol va topshiriqlar

1. Eronda Safaviylar sulolasi qay tariqa o'rnatildi?
2. Safaviylar markaziy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida qanday tadbirlarni amalga oshirganlar?
3. Safaviylar sulolasi hukmronligining barham topishi sabablarini qayd eting.
4. Nodirshoh qanday sharoitda hokimiyat tepasiga keldi va nega uning hokimiyati uzoqqa cho'zilmadi?
5. Qojarlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi qay tariqa yuz berganligi haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mustaqil ish

Eronda XVI–XVIII asrlarda hukmron sulolalar 4 marta almashganda, Buxoroda nechta sulola almashganligini «O'zbekiston tarixi» dasrligin-gizdan foydalanib aniqlang va u sulolalarning nomlarini hamda hukmronlik qilgan yillarini jadvalda aks ettiring.



II BO'LIM

XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA YEVROPA, AMERIKA, OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

III BOB. XIX ASRNING 70-YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA YEVROPA DAVLATLARI

24- §. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrdan Buyuk Britaniya



Sanoatning rivojlanishi. Bu davrda Buyuk Britaniyada sanoat gurkirab rivojlandi. To'qimachilik, metallurgiya, mashinasozlik, kon sanoati yetakchi o'rinni egalladi.



Mashinalashgan ishlab chiqarish oqibatida 1816- yilda Buyuk Britaniyada mashinalar 150 mln odamning qo'l mehnatiga teng ishni bajardi. Vaholanki, bu davrda Buyuk Britaniya aholisi 12 mln kishini tashkil etardi.

Sanoat taraqqiyoti transportning yangi turi paydo bo'lishini zaruratga aylantirib qo'ydi. Buning aks sadosi o'laroq, 1825- yilda Buyuk Britaniyada dunyoda birinchi temiryo'l qurildi. Bu hodisa mamlakatning turli mintaqalarini bir-biri bilan tutashtirilishini hamda yuk tashishning arzonlashuvini ta'minladi. Ayni paytda ichki bozor kengaydi. Oqibatda zavod va fabrika egalari mumkin qadar ko'proq mahsulot ishlab chiqara boshladilar.

Temiryo‘l qurilishining boshlanishi, o‘z navbatida, cho‘yan, temir va po‘latga bo‘lgan ehtiyojni oshirib yubordi. Sanoatning yangi tarmog‘i – parovozsozlik paydo bo‘ldi. Bu esa qudratli savdo va harbiy dengiz floti yaratishga imkon berdi.



XIX asr insoniyat tarixiga bug‘ asri bo‘lib kirgan.

Mamlakat hayotidagi bu o‘zgarishlar Buyuk Britaniyaning «dengizlar hukmroni» mavqeini yanada mustahkamladi. Tuproq yo‘llar o‘rmini asfalt yo‘llar egallay boshladi.

Bu esa savdo ekipajlari qatnoviga sarflanadigan vaqtni ikki marta qisqartirishga imkon berdi. XIX asrning 40-yillariga kelib qishloq xo‘jaligida mashinalar va kimyoviy o‘g‘itlar ishlatish boshlandi. Katta-katta sanoat korxonalarini qurish davom etdi. Temiryo‘llar va yirik sanoat korxonalari qurilishi katta mablag‘ ham talab etgan. Bu esa tijorat banklarining qudratini yanada orttirgan. U endi xalqaro miqyos kasb eta boshlagan.

Mamlakatda sanoat ishlab chiqarishning *konsentratsiyalashuvi* ro‘y berdi. Jahon tarixida birinchi marta mamlakat iqtisodiyotida yetakchilik qishloq xo‘jaligidan sanoatga o‘tdi. Buyuk Britaniya dunyoning birinchi industrial davlati bo‘lib qoldi.

Sanoat to‘ntarishining tugallanishi. XIX asrning 60-yillari oxirlarigacha bo‘lgan davrda sanoatning gurkirab rivojlanishi va ilmfan taraqqiyoti yangi bir hodisa – sanoat to‘ntarishi tugallanishining ro‘y berishiga olib keldi.



Sanoat to‘ntarishining tugallanishi – bu mashinalarning o‘zini endi boshqa mashinalar yordamida ishlab chiqarish boshlandi, degani edi.

Buyuk Britaniyada esa bu hodisa XIX asrning 50- yillarida yuz berdi. Sanoatda bug‘ mashinasi asosiy kuch bo‘lib qoldi. Toshko‘mir yoqilg‘ining eng muhim turiga aylandi.

Parlament islohoti. Buyuk Britaniya parlamenti 1825- yilda ish tashlashda qatnashishni taqiqlovchi qonun qabul qildi. Bu qonun ishchilar o‘rtasida keskin norozilik keltirib chiqargan. Natijada parlament islohoti o‘tkazish masalasi zaruratga aylandi. Bu jamiyatda yetilgan

muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish, degani edi. Oxir-oqibatda 1832-yilda parlament islohoti o'tkazildi. Islohot parlamentga saylov tartibini o'zgartirdi. Unga ko'ra, yirik sanoat markazlariga parlamentdan 144 o'rin ajratib berildi. Shu tariqa sanoat burjuaziyasi endi siyosiy jihatdan ham hukmronligini mustahkamladi. Islohot parlamentning yuqori va quyi palatalarining vakolatlari masalasini ham chetlab o'tmadi. Chunonchi, quyi palataning mamlakat siyosiy hayotidagi o'rni oshirildi. U mamlakat budjetini nazorat qilish huquqini saqlab qoldi. Buyuk Britaniya hukumatining faqat quyi palata oldida javobgarligi belgilab qo'yildi. Quyi palata hukumatga ishonchsizlik bildirgan taqdirda, hukumat iste'fo berishga majbur bo'ladigan tartib o'rnatildi.

1832-yilgi islohotdan so'ng saylangan yangi parlament 1833-yilda 13 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun 8 soatlik ish vaqti belgiladi. 9 yoshgacha bo'lgan bolalar mehnati esa taqiqlandi.

1832-yilgi parlament islohoti mamlakatda saylov huquqi uchun kurashni batamom to'xtata olmadi. 1836-yilda London shahrida ishchilarning «Umumiy saylov huquqi uchun kurash ishchi Assotsiatsiyasi» tuzildi. U saylov huquqini kengaytirish masalasida parlamentga uch marta xartiya (chartiya) — yorliq topshirdi. Umumiy saylov huquqi uchun boshlangan bu harakat tarixga chartistlar harakati nomi bilan kirdi. Bu harakat garchand yengilgan bo'lsa-da, keyingi parlament islohotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi.

1867-yilda ikkinchi parlament islohoti o'tkazildi. Unga ko'ra, shaharlarda o'z uyiga ega bo'lgan hamda alohida kvartirada turadigan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi. Buning natijasida saylovchilar soni 1832-yildagi 600 ming kishidan bir yo'la 2 mln ga yetdi.

Tashqi siyosat. XIX asrning 50-yillarida Buyuk Britaniya sanoatining rivojlanish darajasi, savdoning ko'lami va dengizdagi qudrati jihatidan dunyoda o'z ustunligining cho'qqisiga yetdi. Bu qudrat unga mustamlakalari ustidan hukmronlikni yanada mustahkamlash va ularni kengaytirish imkonini berdi. Ingliz hukumati yer yuzining strategik jihatdan muhim mintaqalarida qudratli harbiy-dengiz bazalari qurishga va tayanch hududlarni qo'lga kiritishga alohida e'tibor berdi.

Buyuk Britaniya XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmi mobaynida dengiz va okeanlar orqali o'tadigan jahon yo'llarida tayanch punktlarni: Gibraltar (O'rta Yer dengizidan Atlantika okeaniga chiqish ustidan nazorat), Adan (Qizil dengizdan Hind okeaniga chiqish),

Keyptaun (Ezgu Umid burunida – Afrikaning janubiy qismi), Singapur (Hindiston bo'sag'asi), Gonkong (Xitoy bo'sag'asi)ni bosib oldi. Ana shu harbiy bazalarga va o'z harbiy flotining juda katta ustunliklariga tayanib, Buyuk Britaniya XIX asrning o'rtalarida eng yirik mustamlakachi davlatga aylandi. Angliya mustamlakalaridan eng yirigi bo'lgan Hindistonning bir o'zida 300 milliondan ko'proq, ya'ni Buyuk Britaniyaning o'zidagiga nisbatan taxminan 10 baravar ko'p aholi yashar edi.

Buyuk Britaniya tashqi siyosatda «nifoq solib, hukmronlik qil» qoidasini ustalik bilan qo'lladi.

«Oq» koloniyalar. Buyuk Britaniya o'z mustamlakachilik siyosatida «oq» koloniyalarga katta e'tibor berdi. Amerika, Afrika va Avstraliyaga Buyuk Britaniyadan va qisman Yevropadagi ingliz tojiga bo'ysunuvchi boshqa mamlakatlardan ko'chib borgan kishilar o'zlashtirgan hududlar ana shunday deb atalardi. Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya ana shunday mustamlakalar edi. Chunonchi, 1861- yilga kelib Avstraliyadagi oq tanli aholi 1 million 200 ming kishiga yetdi. Ayni paytda mustamlakalar o'zini-o'zi boshqarish uchun kurash olib bordilar. Bu kurash, ayniqsa, Kanadada shiddatli tus oldi. Natijada Buyuk Britaniya 1867- yilda Kanadaga *dominion* maqomini berishga majbur bo'ldi.



Iste'fo (arabcha – vazifadan chekinish) – mansab vazifasidan ketmoq.

Konsentratsiya (lotincha – birga, markaz) – biror narsaning muayyan bir joyda to'planishi.

Dominion – o'zini-o'zi boshqaradigan qaram yer, o'lka.



Savol va topshiriqlar

1. Buyuk Britaniyada sanoat rivojlanishi va uning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. «Sanoat to'ntarishi tugallandi», degan iboraning mazmunini izohlab bering.
3. Buyuk Britaniyada parlament islohoti uchun olib borilgan kurash qanday yakun topdi?
4. Buyuk Britaniyaning eng yirik mustamlakachi davlat bo'lganligiga misollar keltiring.

Mustaqil ish

Yangi tarixning birinchi bosqichi (XVI–XVIII asrlar)ning asosiy tarixiy voqealari sinxronik jadvalini tuzing.

25- §. Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati



Fransiyada Birinchi imperiya. 1799- yilgi davlat to'ntarishidan so'ng Fransiyaning Birinchi konsuliga aylangan Napoleon Bonapart endi yakka hokimlikka intila boshladi. 1802- yilda u o'zining umrbod konsul deb e'lon qilinishiga erishdi. 1804- yilda esa u Senatdan o'zini «Fransuzlar imperatori Napoleon I» deb e'lon qilinishini talab etdi va unga erishdi. Shu tariqa, Fransiyada monarxiya qayta tiklandi. Biroq bu monarxiya dvoryanlarga emas, yirik burjuaziyaga, qo'shin va davlat amaldorlariga tayanuvchi harbiy monarxiya edi.

Istilochilik urushlari. N. Bonapart katta istilochilik urushlari olib bordi. Chunonchi, 1805- yilda Avstriya poytaxti Vena ishg'ol etildi.

1806- yilda Prussiya poytaxti Berlinni egalladi. O'z g'alabalaridan ruhlangan Napoleon endi Buyuk Britaniyaga nisbatan qit'a qamali e'lon qilinganligi haqidagi deklaratsiya imzoladi. Unga ko'ra, Napoleonga qaram barcha davlatlarning Buyuk Britaniya bilan savdo-sotiq qilishi taqiqlandi. Napoleonning maqsadi shu yo'l bilan Buyuk Britaniyani bo'g'ib tashlash edi.

Qit'a qamali Fransiyaning Yevropa va jahon hukmronligi uchun o'z tinkasini quritadigan urushga duchor etdi. Rossiya Fransiyaning Yevropadagi barcha g'alabalarini tan olishga va 1807- yilda Napoleon bilan tinchlik hamda ittifoq to'g'risida shartnoma imzolashga majbur bo'ldi. Bu shartnoma tarixga «Tilzit shartnomasi» nomi bilan kirdi. Shartnomaga ko'ra, Rossiya Buyuk Britaniya bilan aloqani uzish va qit'a qamaliga qo'shilish majburiyatini oldi.

Imperiyaning zaiflashuvi. Deyarli butun Yevropani bo'ysundirgan Napoleon Buyuk Britaniya va Rossiyani bo'ysundira olmadi. Buyuk Britaniya harbiy flotining g'oyatda qudratligi Napoleonga qit'a qamali siyosatidan ko'zlangan maqsadiga erishish imkonini bermadi. Rossiya o'z



23- rasm. Napoleon I Bonapart.



mustaqilligini saqlab qoldi. Qit'a qamali siyosatiga qo'shilgan bo'lsa-da, amalda shartnomani bajarmadi. AQSH kemalarida o'z tovarlarini Buyuk Britaniyaga yuborishni davom ettirdi.

Fransiya aholisi ham uzluksiz urushlardan charchadi. Ming-minglab navqiron yigitlarning halok bo'lishi, soliqlarning ortishi, qit'a qamalidan ko'rilayotgan iqtisodiy zarar Napoleon siyosatidan norozilikni kuchaytirib bordi. Ayni paytda bosib olingan mamlakatlarda bosqinchilarga qarshi milliy ozodlik kurashi kuchaydi. Napoleonga bunday norozilikni bostirish uchun katta bir g'olibona urush kerak edi. Shuning uchun ham u Rossiyaga qarshi urush qilishni va unda ga'laba qozonishni rejalashtirdi. Busiz butun Yevropani itoat ettirishdan iborat bo'lgan maqsadi ham amalga oshmas edi.

Rossiya–Fransiya o'rtasidagi 1812- yil urushi. 1812- yilning 24- iyunida Napoleon armiyasi Rossiyaga hujum boshladi. Bu urush Rossiya uchun milliy mustaqillik urushi edi. Ikki davlat qo'shini o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1812- yilning 7- sentabrida Moskva yaqinidagi Borodino qishlog'ida bo'lib o'tdi. Har ikki tomon ham ko'plab qurbonlar berdi. Rossiya–Fransiya urushida Fransiya mag'lubiyatga uchradi. Rus qo'shinining matonati, qahraton sovuq va ochlik bosqinchi qo'shinining halokatini muqarrar qilib qo'ydi. Oqibatda Napoleonning «Buyuk qo'shin»i bu buyuk talofatdan so'ng o'zini qayta tiklab ololmadi. Endi Napoleon imperiyasining halokati muqarrar bo'lib qoldi.

Imperiyaning qulashi. Rossiya, Buyuk Britaniya, Prussiya, Avstriya va boshqa davlatlardan iborat Yevropaning ittifoqchi davlatlari hamda Fransiya o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1813- yil oktabrda Leypsig ostonasida bo'lib o'tdi va bu jang tarixga «Xalqlar janggi» nomi bilan kirdi. Leypsig jangida Napoleonning qo'shini tor-mor etildi. 1814- yilda ittifoqchi davlatlar armiyasi Parij shahriga kirib keldi. Napoleon taxtdan voz kechishga majbur bo'ldi. Ittifoqchilar uni Elba oroliga surgun qildilar. Shu tariqa imperiya quladi.

Burbonlar sulolasi hokimiyatining tiklanishi. Ittifoqchi davlatlar Fransiyada Burbonlar sulolasi hokimiyatini tiklashga qaror qildilar. Inqilob yillari qatl etilgan qirol Lyudovik XVI ning ukasi Lyudovik XVIII Senatning qarori bilan taxtga o'tqazildi. Lekin endi bu monarxiya avvalgidek mutlaq monarxiya emas edi. U monarxiyani tiklashning iloji ham yo'q edi. Chunki jamiyat hayotida kapitalistik

munosabatlar har tomonlama chuqur ildiz otib ulgurgan edi. Shuning uchun ham qirol konstitutsiya e'lon qilishga majbur bo'ldi. Ittifoqchilar Fransiya bilan sulh shartnomasini imzoladilar. Unga ko'ra, Fransiya Napoleon davrida bosib olgan barcha hududlardan mahrum etildi. Ayni paytda mamlakatda ichki vaziyat ham murakkablashib bordi. Bunga eski feodal tartiblar tarafdorlarining mutlaq monarxiyani tiklashni, shuningdek, qo'llaridan ketgan mol-mulklarini qaytarib berishni talab qilishlari sabab bo'ldi.

Bu, o'z navbatida, burjuaziya va dehqonlarni tashvishga solib qo'ydi. Bundan tashqari, Napoleon davrida xizmat qilgan zobitlarning va davlat xizmatchisining ishdan bo'shatilishi qo'shinda va butun mamlakatda norozilik keltirib chiqardi. Vaziyatdan surgundagi Napoleon foydalanib qolishga qaror qildi. Eski gvardiya va o'zi tug'ilib o'sgan korsikaliklardan tuzilgan harbiy qism hamon uning tarafida edi. Napoleon 1815- yilning mart oyida Elbadan Fransiyaning janubiga yetib keldi. Qirol Lyudovik XVIII ning Napoleonga qarshi yuborgan 30 ming kishilik qo'shini ham Napoleon tomoniga o'tib ketdi. Napoleon 20- mart kuni Parij shahrini egallab, yana imperatorlik taxtiga o'tirdi. Biroq u bu safar hokimiyatni atigi 100 kun egallab turdi, xolos.

Napoleonga qarshi ittifoqchi davlatlar (Buyuk Britaniya, Prussiya va boshqalar) juda katta armiya qo'ya oldi. Ikki o'rtada 1815- yilning 18-iyunida bo'lib o'tgan hal qiluvchi jang (hozirgi Belgiya davlati hududidagi) Vaterloo qishlog'ida bo'lib o'tdi. Shu tufayli bu jang tarixga «Vaterloo jangi» nomi bilan kirgan. Jangda Napoleon qo'shini butunlay tor-mor etildi. Asir olingan Napoleon endi uzoq Muqaddas Yelena oroliga surgun qilindi va u shu yerda 1821- yilda vafot etdi. Fransiyada Burbonlar hokimiyati yana qayta tiklandi.

Vena Kongressi. G'olib davlatlar Kongress chaqirdilar. Bu Kongress 1814- yilda Avstriyaning poytaxti Vena shahrida bo'lib o'tdi. Kongressning asosiy maqsadi – Yevropani g'oliblar manfaati yo'lida qayta taqsimlash edi.

1815- yilda Yevropaning 8 davlati: Buyuk Britaniya, Avstriya, Prussiya, Rossiya, Ispaniya, Shvetsiya, Portugaliya va Fransiya Kongressning yakunlovchi hujjatini imzoladilar. Buyuk Britaniyaning asosiy maqsadi, Fransiyaning zaiflashuviga erishish, o'zining dengizdagi va mustamlakalar bosib olishdagi ustunligini saqlab qolish edi. U bunga erishdi. Ayni paytda Malta, Seylon orollariga, Afrikaning janubidagi Kapa yuzigacha bo'lib oldi.

Rossiya Polshaning katta qismiga ega bo'ldi. 300 dan ortiq mayda davlatlarga bo'linib ketgan Germaniya o'rnida 39 ta davlatdan iborat Germaniya ittifoqi tuzildi. Bu ittifoqda Avstriyaning yetakchi roli e'tirof etildi. Reyn viloyati, Vestfaliya Prussiyaga qo'shib berildi. Polshaning g'arbiy yerlari ham Prussiya mulki deb tan olindi.



24- rasm. Vena Kongressi.

Avstriya Shimoliy Italiyada mustahkamlanib oldi. Belgiya Gollandiyaga qo'shib berildi. Shveysariyaning mustaqilligi tiklandi va u abadiy betaraf davlat maqomiga ega bo'ldi. Fransiya hududi o'zining avvalgi chegarasigacha qisqartirildi. Unga 700 mln frank oltin hisobida *kontributsiya* to'lash majburiyati yuklandi. Fransiya bu kontributsiyani to'lagunga qadar uning shimoliy qismi ittifoqchilar qo'shini tomonidan ishg'ol qilinadigan bo'ldi. Fransiya ikkinchi darajali davlat maqomiga tushib qoldi. Shu tariqa Vena Kongressi Yevropa siyosiy xaritasini kuch bilan o'zgartirib tashladi. Ayni paytda, Vena Kongressi qora tanli qullar savdosini taqiqlovchi deklaratsiya ham qabul qildi.

«**Muqaddas Ittifoq**». Yevropada kelgusida ro'y berishi mumkin bo'lgan inqiloblarga qarshi birgalikda kurash maqsadida uch davlat – Rossiya, Avstriya va Prussiya monarxlari ittifoq tuzdilar. U tarixga «Muqaddas Ittifoq» nomi bilan kirdi.



Kontributsiya (lotincha) – urushda yetkazilgan zarar o'rnini qoplash uchun mag'lub davlat tomonidan to'lanadigan to'lov.



Savol va topshiriqlar

1. Fransiyada Birinchi imperiya qay tariqa vujudga keldi?
2. «Birinchi imperiya halokati sabablari» matn tezisini tayyorlang.
3. Fransiyada Burbonlar hokimiyati qay tariqa tiklandi?
4. «Vaterloo jungi» haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Vena Kongressi qanday masalalarni hal etdi?
6. «Muqaddas Ittifoq» qanday maqsadni ko'zlab tuzildi?

26- §. Fransiyada Ikkinchi imperiyaning o'rnatilishi



Iyul monarxiyasi. 1815- yilda hokimiyati yana qayta tiklangan Burbonlar sulolasining vakili Lyudovik XVIII Napoleon tarafdorlaridan o'ch ola boshladi. Ko'plab harbiylar otib tashlandi. Butun hokimiyat eski o'rta asr feodal tuzumi tarafdorlari qo'lida to'plandi. Aholining atigi bir foiziga yaqini saylov huquqiga ega bo'ldi. Burjuaziya, hunarmandlar, ishchi va dehqonlarga saylov huquqi berilmadi.

1824- yilda Lyudovik XVIII vafot etdi. Taxtni ukasi Karl X egalladi. U o'z hokimiyatini yanada mustahkamlashga urinib, 1830- yilda mamlakat parlamentini tarqatib yubordi. Ayni paytda, parlamentda o'tkaziladigan yangi saylovda saylov huquqi yanada ko'proq cheklanishini ma'lum qildi. Bu esa Parij shahrida inqilob boshlanishiga olib keldi. Uning harakatlantiruvchi kuchlari burjuaziya, ishchilar, hunarmandlar va studentlar bo'ldi. Inqilobning maqsadi – Fransiyada respublika tuzumini o'rnatish edi.

Fransiya qiroli Karl X inqilobdan qo'rqqanidan chet elga qochib ketdi. Hokimiyat yirik burjuaziya – bank, yirik sanoat korxonalari, birjalar, yollanma mehnatdan foydalanuvchi katta yer egalari qo'liga o'tdi. Ular hukumat tuzdilar. Ayni paytda monarxiyani saqlab qolishga urindilar. Buning asosida monarxiya va respublika tarafdorlarining bir-biriga o'zaro yon berib, o'zaro murosada yashashlariga erishish maqsadi yotardi. Shu maqsadda taxtga Burbonlarga qarindosh bo'lgan Lui-Filipp Orleanskiy o'tqazildi. Shu yo'l bilan monarxiya saqlab qolindi. Bu hodisa iyul oyida ro'y berganligi tufayli tarixga «Iyul monarxiyasi» nomi bilan kirdi. Lui-Filipp yirik o'rmon xo'jaligi egasi va moliyachi edi. Uning davrida mamlakat yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Yangi Konstitutsiyada o'z ma'naviyat, yig'inlar o'tkazish erkinliklari o'ron qilindi. Saylovchilar uchun yosh va mulk senzleri kamaytirildi. Konstitutsiya qiroli hokimiyatini chekladi, ayni paytda, parlamentning rolini oshirishni ko'zda tutuvchi moddalar kiritildi.

Iyul monarxiyasi inqirozi. Yangi qiroli va konstitutsiya xalq ommasining ahvolini yengillashtira olmadi. Aksincha, davom etayotgan sanoat to'ntarishi aholining qashshoqlanishini yanada kuchaytirdi. Ishchilarning ish vaqti 12–16 soat davom etardi. Ishchini korxonaga egasi

istagan paytda ko'chaga haydashi mumkin edi. Ayniqsa, to'qimachilik sanoati ishchilarining ahvoli og'ir edi. Birgina Lion shahrining o'zida ~~1831- yilda~~ yaqin to'quvchi qashshoqlikda yashardi. Korxonaga egalari ularning ish haqini oshirish haqidagi talabini rad etishi 1831- yilda qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Qo'zg'olonchi to'quvchi ishchilar o'z bayroqlariga «Ishlab yashaylik yoki jang qilib o'laylik» deb yozib olgandilar.

Qo'zg'olonchilar Lion shahrini egallab oldilar. Biroq poytaxt Parijdan Lionga yuborilgan 20 ming kishilik qo'shin qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdi. Hukumat to'qimachilar qo'zg'olonidan tegishli xulosa chiqarib olmadi. Aksincha, ta'qib etish siyosati bilan ishchilarni itoatda tutishga urindi.

Oqibatda, 1834- yilda Lion to'quvchilari yana qo'zg'olon ko'tardilar. Bu safar qo'zg'olonchilar faqat ish haqini oshirish to'g'risidagi talab bilan cheklanib qolmadilar. Ular endi respublika tuzumi o'rnatilishini ham talab qildilar. Shaharda ishchilarning hukumat qo'shini bilan shiddatli janglari olti kun davom etdi. Oxir-oqibatda, bu qo'zg'olon ham shafqatsizlik bilan bostirildi. Qirol siyosatidan o'rta va mayda burjuaziya ham norozi edi. Ular ham respublika tuzumi o'rnatilishini, saylov huquqini kengaytirishni talab qila boshladilar.

Bosh vazir Gizo bu talabga «Mehnat va tejamkorlik orqali boying, ana shundagina sizlar saylovchi bo'lasizlar», degan haqoratimiz javob qildi. Shu tariqa, Iyul monarxiyasi xalq ommasini ko'z o'ngida o'z obro'sini yo'qota bordi.

1848- yil inqilobi. 1845- va 1847- yillarda Fransiyada qurg'oqchilik ro'y berdi. Natijada oziq-ovqat mahsulotlarining, birinchi navbatda nonning narxi oshib ketdi. Bu ham yetmaganidek, 1848- yilda Yevropa davlatlari iqtisodiyotini inqiroz qamrab oldi. Bu esa ishlab chiqarishning keskin kamayishiga, pulning qadrsizlanishiga olib keldi. Korxonalarining yopilishi yoki ishchi o'rinlarining qisqartirilishi natijasida ishsizlik oshib bordi. Bularning barchasi inqilobning yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. Shunday vaziyatda burjuaziya inqilobning oldini olish uchun hukumat oldiga islohotlar o'tkazish talabini qo'ydi. Uning asosini saylov huquqini kengaytirish to'g'risidagi masala tashkil etardi. Burjuaziya shu yo'l bilan Iyul monarxiyasini yon berishga undamoqchi bo'ldi. Ishchilar esa respublika tuzumining eng qat'iyatli tarafdori bo'ldilar. Ayni paytda, ular bo'lajak respublikaning

mamlakatdagi ishsizlikni tugatadigan, barcha fuqarolar uchun mehnat qilish huquqini kafolatlovchi qonun qabul qiladigan, ish kunini qisqartiradigan va mehnat sharoitini yaxshilaydigan respublika bo'lishi talabini ham qo'ydilar. Bu talab yirik muldkorlar tabaqasini cho'chitib yubordi.

Iqtisodiy inqiroz tobora chuqurlashib bordi. Oqibatda ommaviy ishsizlik vujudga keldi. Ishchilarning ish haqi ikki barobardan ortiqqa kamaydi. O'z navbatida, bu hodisalar inqilobiy vaziyatni vujudga keltirdi. Aholi qurollana boshladi. Nihoyat, 1848- yilning 23- fevralida Fransiya tarixida yana bir inqilob boshlandi.

Qisqa vaqt ichida Parij shahridagi barcha muhim joylar, muassasalar qo'zg'olonchilar qo'liga o'tdi. Shunday sharoitda Lui Filipp taxtdan voz kechishga va Angliyaga qochib ketishga majbur bo'ldi. Qo'zg'olonchilar qirol saroyini egallab, uning taxtini yoqib yubordilar.

Shu tariqa 1848- yil fevral inqilobi natijasida Iyul monarxiyasi quladi. 25- fevral kuni esa Fransiya Respublika deb e'lon qilindi. Fransiya parlamenti vaqtinchalik hukumat tuzdi. Yangi hukumat matbuot, namoyishlar o'tkazish erkinligini e'lon qildi. Shuningdek, 21 yoshga to'lgan barcha erkaklarga saylov huquqi berildi.

Barcha fuqarolarni ish bilan ta'minlash to'g'risida dekret qabul qilindi. Ishsizlar uchun «Milliy ustaxona» deb ataluvchi jamoatchilik ishlari tashkil etildi. Ish vaqti 10–11 soat bilan cheklab qo'yildi. Biroq yangi hukumat mablag' yo'qligi uchun tez orada milliy ustaxonalarni yopib tashladi. Ularda ishlayotgan 115 mingga yaqin ishchi ishsiz qoldi. Bunga javoban ishchilar 1848- yilning iyunida yana qo'zg'olon ko'tardilar. Biroq hukumat qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostirdi.



25- rasm. Napoleon III.

Ikkinchi imperiya. Mamlakatga tartib o'rnatishga qodir hokimiyat zarur edi. Shu tufayli hukmron tabaqalar qirol hokimiyati o'rniga katta vakolatlarga ega prezidentlik lavozimini joriy etishga qaror qildilar. Unga hukumat tuzish va uni iste'foga chiqarish huquqi ham beriladigan bo'ldi.

1848- yilning dekabr oyida hukmron tabaqalar Napoleon I Bonapartning jiyani Lui Napoleon Bonapartning Fransiya

Prezidenti etib saylanishiga erishdilar. Uning asl maqsadi, Fransiya imperiyasini tiklash edi. U o'z niyatini amalga oshirishga zimdan tayyorgarlik ko'rdi. Nihoyat, 1851- yil 2- dekabrda davlat to'ntarishi o'tkazdi va o'zi uchun xavfli bo'lgan kishilarning barchasini qamoqqa tashladi. Endi unga o'zini imperator deb e'lon qilishga barcha yo'llar ochiq edi. Nihoyat, 1852- yilning 2- dekabrda u o'zini Napoleon III nomi bilan Fransiya imperatori deb e'lon qildi. Shu tariqa Fransiya Ikkinchi imperiya o'rnatildi.



Daylat to'ntarishi – davlat hokimiyatini qonunda ko'zda tutilmagan usullar bilan egallab olish.

Student (lotincha – qunt bilan shug'illanuvchi) – oliy o'quv yurti talabasi.

Senz (lotincha) – fuqarolarning saylov huquqidan foydalanishlarini cheklaydigan shartlar.



Savol va topshiriqlar

1. Fransiya da Iyul monarxiyasi qay tariqa o'rnatildi?
2. Iyul monarxiyasi inqirozga uchrashining sabablarini qayd eting.
3. 1848- yilgi inqilob va uning oqibatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Fransiya da Ikkinchi imperiya qay tariqa o'rnatildi?

27- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Germaniya va Italiya



Germaniyada inqilobning sabablari va maqsadlari. Germaniya inqilobining asosiy sababi – o'rta asr feodal tartiblarning kapitalizm taraqqiyotiga hamon to'siq bo'lib kelayotganligi edi. Buning natijasida Germaniyada siyosiy tarqoqlik hukm surdi. Oqibatda yagona umumiy bozor vujudga kelmadi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi boshqa ilg'or davlatlardan orqada qoldi. Zo'ravonlikka asoslangan davlat apparati har qanday hur fikrni qatag'on qilar edi. Bu omillar Germaniyada ham inqilobning yetilishiga olib keldi. Inqilobning asosiy maqsadi Germaniyaning siyosiy tarqoqligiga barham berish va feodal tartiblarni tugatish edi. Inqilobga burjuaziyaning konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori bo'lgan qismi

rahbarlik qildi. Mayda va o'rta burjuaziya, ishchilar, ziyolilar inqilobning harakatlantiruvchi kuchini tashkil etdi.

1848- yil fevral inqilobi. Yevropaning boshqa davlatlarida 1847-yilda yuz bergan iqtisodiy inqiroz Germaniyani ham chetlab o'tmadi. Bu inqiroz ishsizlikning ko'payishiga, ish haqining pasayishiga olib keldi. Barcha tovarlar, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari narx-navosi ko'tarilib ketdi. Oqibatda och qolgan aholi ko'chaga chiqdi. Hukumat davlat xazinasi bankrot yoqasiga kelib qolganligi uchun keskinlikni yumshatishga zarur mablag' ajrata olmas edi. Natijada siyosiy vaziyat yanada keskinlashdi. Fransiyada boshlangan 1848- yilgi fevral inqilobi Germaniyada ham inqilob boshlanishida uchqun vazifasini o'tadi. 18-mart kuni Berlinda qo'zg'olon boshlandi. Berlin ko'chalari barrikadalar bilan qamrab olindi. Tun bo'yi shiddatli ko'cha janglari davom etdi. Prussiya qiroli qo'zg'olonchilarga qarshi kurashayotgan harbiy qismni olib chiqish haqida buyruq berishga majbur bo'ldi. U endi murosa yo'lini izlay boshladi.

Qirol burjuaziyaning talabi bilan Millat majlisiga (parlament) saylov belgilashga va Konstitutsiya ishlab chiqishga va'da berdi. Millat majlisi amalda hech qanday tub islohotlarni amalga oshira olmadi. Joriy etilgan Konstitutsiya ham amalda hukmron tabaqalar manfaatiga xizmat qildi. Germaniya burjuaziyasi qirol hokimiyati va katta yer egalari bilan kelishish yo'lini tutganligi buning asosiy sababi bo'ldi. Siyosiy vaziyatning biroz bo'lsa-da, yumshashiga erishgan qirol hokimiyati inqilobni bostirishga erishdi. Prussiya qirolligi Germaniyada eng kuchli qo'shunga ega bo'lganligi uchun boshqa mayda german davlatlaridagi inqilobiy harakatni ham bostirishda qatnashdi.

Inqilob yengildi, oqibatda Germaniyada eski feodal tartiblar saqlanib qolaverdi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik hukm suraverdi, shunday bo'lsa-da, inqilob butunlay ipsis ketmadi.

1848- yilda Prussiya qirolligida Konstitutsiya joriy etilishining o'zi katta siyosiy yutuq edi.

Italiyaning birlashtirilishi. 1861- yilda birlashgan Italiya qirolligi tashkil etildi. Xo'sh, bu birlashish qay tariqa sodir bo'ldi? Kapitalizmni yanada rivojlantirish zarurati mamlakatning birlashuvini nihoyasiga yetkazishni taqozo etardi. Busiz Italiya Yevropada o'z o'rniga ega bo'lgan davlatga aylana olmas edi. Til va madaniyat birligi Italiyani yagona davlatga birlashtirishga yordam berdi. Italiyani birlashtirishdek

tarixiy vazifani ro'yobga chiqarish Sardiniya qirolligi zimmasiga tushdi. Uning bosh vaziri K. Kavur uzoqni ko'ra oluvchi siyosatchi edi. U mo'tadil islohotlar va konstitutsiyaviy monarxiya tarafdori edi.

K. Kavur Avstriya zulmiga qarshi kurashda Fransiya bilan shartnoma tuzishga erishdi. Avstriya qo'shini mag'lubiyatga uchratilib u bilan sulh tuzildi. Biroq, Sitsiliya va Neapol qirolligi Italiya siyosiy tarqoqligining tayanchi bo'lib qolayotgan edi.


1860- yilda Italiyani birlashtirishning qizg'in tarafdori, xalq qahramoni Juzeppe Garibaldi o'z harbiy kuchi bilan Sitsiliya oroliga kelib tushdi. Xalq ommasi uni xaloskor sifatida kutib oldi. Sitsiliyaning asosiy shahri Palermo egallandi. Shundan so'ng J. Garibaldi qo'shini Neapolga yurish qildi. Neapol qo'shini tor-mor etildi va Neapol qirolligi tugatildi. J. Garibaldi Italiyani birlashtirish ishida yetakchilik qilayotgan Sardiniya qiroli Viktor Emmanuil II hokimiyatini tan oldi. 1861- yilda yagona Italiya qirolligi tuzilganligi e'lon qilindi.

Mamlakatda konstitutsiyaviy monarxiya qaror topdi hamda ikki palatali (Senat va Deputatlar palatasi) parlament joriy etildi. Oradan bir necha yil o'tgach, Avstriya qo'l ostida qolgan Venetsiya viloyati ham, 1870- yilda esa Fransiya ta'sirida bo'lgan Rim shahri ham Italiya qirolligiga qo'shib olindi. Shu tariqa Italiyani yagona davlatga birlashtirish yakunlandi.

Germaniyaning birlashuvi. Germaniyada ham jamiyatning ilg'or qatlami milliy birlashuv uchun kurashayotgan edi. Bu yerda ham butun mas'uliyatni Germaniyada mavjud 23 davlatdan biri o'z zimmasiga olishi zaruriyatga aylandi. Bunday sharaf Prussiyaga nasib etdi. Prussiya bu davrda imperiyadagi eng



26- rasm. Kamillo Kavur.



27- rasm. Otto fon Bismark.

qudratli davlat edi. Qirollikda o'z davrining eng mashhur davlat arbobi Otto fon Bismark bosh vazirlik qilardi.

U 1864- yildan boshlab Germaniyani yagona davlatga birlashtirishdek tarixiy ishga rahbarlik qildi. 1866- yilda bosh vazir Otto fon Bismark rahbarligi ostida 22 nemis davlati Prussiya bilan «Shimoliy Germaniya Ittifoqi»ni tuzish haqida shartnoma imzoladilar. Germaniyani birlashtirish yo'lidagi asosiy tashqi to'siq Fransiya edi. Prussiya unga qarshi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'ra boshladi.

1870–1871- yillardagi Fransiya – Prussiya urushida Fransiyaning mag'lubiyatga uchrashi Germaniyani birlashtirish yo'lidagi so'nggi to'siqni ham olib tashladi. Shu tariqa Germaniyani yagona davlatga birlashtirish nihoyasiga yetkazildi.



Mo'tadil burjuaziya – burjuaziyaning murosaga intiluvchi, muammolarni tinch yo'l bilan hal etishga, hukmron tabaqalar bilan kelishishga intiluvchi qismi.



Savol va topshiriqlar

1. Germaniyadagi inqilobning sabablari va asosiy masalasi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Italiya inqilobi asosiy masalasining qaysi xususiyati Germaniya inqilobining asosiy masalasidan farq qilgan?
3. Birlashgan Italiya qirolligi qay tariqa tashkil etildi?
4. Germaniyani yagona davlatga birlashtirishda Prussiya bosh vaziri Bismarkning tarixiy rolini qayd eting.

Mustaqil ish

Fransiya va Germaniyadagi 1848–1849- yillar inqiloblarini taqqoslang. Ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlang.

28- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Rossiya



Iqtisodiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari. Podsho Rossiyasida krepostnoylik tartiblari jamiyat taraqqiyotiga katta g'ov bo'lib qoldi. G'arbiy Yevropa davlatlarida va AQSHda mashinalashgan sanoat ishlab chiqarish rivojlanayotgan bir davrda,

Rossiyada hamon manufaktura ishlab chiqarishi hukmron edi. Faqat XIX asrning 30- yillaridan e'tiboran mashinalar ishlab chiqarishga joriy etila boshlandi. Qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura mashinalar ishlatishga asoslangan fabrikaga aylana bordi. Shu tariqa podsho Rossiyasida ham sanoat to'ntarishi boshlandi. XIX asrning 40- yillari oxirlariga kelib, Peterburg va Moskva shaharlarida mashinasozlik zavodlari qurildi. XIX asrning 30- yillarida esa temiryo'l qurilishi boshlandi.

Sanoat to'ntarishi XIX asrning 90- yillaridagina tugallandi. Iqtisodiy qoloq podsho Rossiyasi mashinalashgan ishlab chiqarishni keng rivojlantirish uchun yetarli kapitalga ega emas edi. Aholining xarid quvvati ham juda past bo'lganligi uchun sanoat mollari sotiladigan ichki bozor doirasi torligicha qolaverdi. Shu tufayli natural xo'jalik hamon kuchli edi. XIX asrning o'rtalariga kelganda ham Rossiya aholisining atigi 8 foizi shaharlarda yashaganligi ham buning dalilidir.

Samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi kurash. 1812-

yilgi Fransiya – Rossiya urushida erishilgan g'alabadan keyin ham podsho Rossiyasida mavjud boshqaruv tartibi va krepostnoylik huquqi saqlanib qolaverdi. Mavjud holat podsho Rossiyasining ilg'or fikrli kishilarini qayg'uga soldi. Ular Vatanlarini Yevropaning yetakchi davlatlari qatorida ko'rishni istaganlar. Ular Vatanlaridagi mavjud tuzumni o'zgartirmay turib, o'z orzularining ro'yobga chiqmasligini ham yaxshi bilar edilar. Ular samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi



28- rasm. P. Pestel.

aniq dastur bilan kurash boshlaganlar. Bu kurash podsho Rossiyasi tarixiga «Dekabristlar harakati» nomi bilan kirgan. Dekabristlar dvoryanlarning farzandlari edilar. Dekabristlar mavjud tuzumni qurolli qo'zg'olon yordamida ag'darish rejasini tuzganlar. Ularning bir guruhi Rossiyada Respublika o'rnatish tarafdorlari bo'lgan bo'lsa, ikkinchisi, konstitutsiyaviy monarxiya o'rnatish tarafdori edi.

Dekabristlar 1821–1822- yillarda ikkita maxfiy jamiyat tuzdilar. Ulardan biri, «Janubiy jamiyat», ikkinchisi, «Shimoliy jamiyat» deb ataldi. Har ikki jamiyat ham Rossiya Konstitutsiyasining loyihasini yaratdilar. «Janubiy jamiyat»ning ko‘zga ko‘ringan arbobi Vatan urushi qatnashchisi, Borodino jangida ko‘rsatgan jasorati uchun oltin dastali qilich bilan mukofotlangan Pavel Pestel (1793–1826) edi. U yaratgan konstitutsiya loyihasi «Rus haqiqati» deb ataldi. Loyihada samoderjaviyeni (podsho hokimiyatini), krepostnoylik huquqini yo‘q qilish va Rossiyada Respublika idora usuli joriy etish ko‘zda tutildi. Hamma fuqarolar uchun teng saylov huquqi asosida saylanadigan «Xalq Vechesi»ning Rossiya parlamenti bo‘lishi belgilandi.

«Shimoliy jamiyat»da Nikita Muravyov tayyorlagan konstitutsiya loyihasi Rossiyani konstitutsiyaviy monarxiya deb e‘lon qilishni ko‘zda tutardi. Mulk senzi asosida saylanadigan ikki palatali Xalq Vechesi oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat organi (parlament) bo‘lishi kerak edi. Dekabristlar qo‘zg‘olonga tayyorlana boshladilar. Qo‘zg‘olon vafot etgan podsho Aleksandr I o‘rniga ukasi Nikolay I ni taxtga o‘tqazilishi marosimi o‘tkaziladigan kunga belgilandi. Qo‘zg‘olon dekabristlarga sodiq harbiy qism tomonidan amalga oshirilishi lozim edi. Aslida bu davlat to‘ntarishi degani edi.

Qo‘zg‘olon 1825- yilning 14- dekabr kuni boshlandi, biroq qo‘zg‘olon muvaffaqiyatsizlikka uchradi. U podshoga sodiq harbiy kuchlar tomonidan bostirildi.

Dekabristlar harakatining rahbarlaridan besh kishi, shu jumladan, P. Pestel va N. Muravyovlar ham osib o‘ldirildi. Ko‘pchiligi katorgaga yuborildi va Sibirga surgun qilindi. Biroq dekabristlar harakati behuda ketmadi. Ular ilgari surgan g‘oyalar Rossiya jamiyatining ilg‘or qatlamini uzoq vaqtgacha samoderjaviye va krepostnoylikka qarshi kurashga ilhomlantirib keldi.

Reaksiya kuchlarining hujumi. Dekabristlar qo‘zg‘oloni bostirildandan so‘ng mamlakatda reaksiya kuchlari yanada foallashdi. Yangi podsho Nikolay I butun kuch-g‘ayratini samoderjaviye tuzumini mustahkamlashga qaratdi. U butun mamlakatni ulkan bir kazarmaga aylantirishni istar edi. Nikolay I ga hamma yoqda inqilob sharpasi ko‘ringanday tuyulardi. U bunday degan edi: «Inqilob Rossiya ostonasida turibdi. Ammo qasamyod qilib aytamanki, tanamda jonim bor ekan, inqilob Rossiyaga kira olmaydi». U umrining oxirigacha shu qasamiga sodiq qoldi va zo‘ravonlikka asoslangan

hokimiyat apparatini kuchaytirdi. Hatto inqilobiy harakatga qarshi kurash olib boruvchi maxsus bo'lim ham tuzildi.

Norozilik bildirishning, erkin fikr yuritishning zarracha ko'rinishi, hukumatni salgina bo'lsa-da tanqid qilish shafqatsiz ravishda ta'qib etildi. Ayniqsa, ilg'or ruhdagi rus adabiyoti qattiq quvg'in va ta'qib ostiga olindi.

Krepostnoylik huquqining yemirilishi. 1853–1856- yillardagi podsho Rossiyasi Turkiya–Rossiya urushida mag'lubiyatga uchradi. Bu mag'lubiyat Rossiyaning iqtisodiy qoloqligi oqibati edi. Rossiyada krepostnoylik tuzumi allaqachon taraqqiyotning asosiy to'sig'iga aylangan edi. Shuningdek, bu mag'lubiyat krepostnoylik huquqi bekor qilinmas ekan, Rossiyada kapitalizm tez sur'atlar bilan taraqqiy etishi mumkin emasligini ham ko'rsatib berdi. Ayni paytda, mag'lubiyat inqilobiy harakatning o'sishiga ham turtki bo'ldi.

Mamlakatda vujudga kelgan kuchli norozilik to'liqini bostirish maqsadida Rossiya podshosi Aleksandr II 1861- yilning 19- fevralida krepostnoylik huquqining bekor qilinishi to'g'risidagi qonunni imzoladi. Bu qishloqda tub islohot amalga oshirilishini anglatar edi. Qonunga ko'ra, krepostnoy dehqonlar shaxsan ozod bo'ldilar. Pomeshchik bundan buyon dehqonlarni sotib olishga, sotishga yoki boshqa birovga hadya qilishga haqqi yo'q edi. Dehqon endi pomeshchikning ruxsatisiz oila qurishga, mustaqil sur'atda shartnoma, savdo bitimlari tuzishga, ko'chmas mulk sotib olishga va uni meros qoldirish kabi huquqlarga ega bo'ldi.

Hukumat dehqonlarni ozod qilib yer berishga majbur bo'ldi. Shunday qilinmasa xalq yalpi g'azabga kelishi mumkin edi. Bundan tashqari, dehqonlarning asosiy soliq to'lovchilar bo'lib qolishi ham hisobga olindi. Dehqonlarga berilgan yer chek yerlar deb ataldi. Hukumat pomeshchikning manfaatini ham hisobga oldi. Chunonchi, dehqonlarga beriladigan chek yerlarning miqdori pomeshchik bilan dehqon o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida belgilanar edi.

Pomeshchik o'z ixtiyorida bo'lib kelgan yerning $\frac{1}{3}$, cho'l hududlarda esa $\frac{1}{2}$ qismini saqlab qolish huquqiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, dehqon shu vaqtgacha hukumat qarorida belgilanganidan ko'proq miqdordagi yerdan foydalanib kelgan bo'lsa, uning ortiqchasi pomeshchikka o'tkazilar edi. Bunday yerlar otrezkalar deb atalgan.

Dehqon uchun eng noqulayi – bu uning yer egasi bo'lishi uchun vikup to'lashning shartligi bo'ldi. Biroq dehqonda vikup uchun pul bo'lmagan.



Qonun buni ham hisobga olgan edi. Unga ko'ra, dehqon vikup bitimi tuzilayotganda yer uchun qo'yilgan bahoning 20 foizini o'sha zahoti to'lashi shart edi. Qolgan 80 foizini esa davlat dehqonlarga beradigan qarz sifatida pomeshchiklarga to'lardi. Dehqonlar bu qarzni 49 yil davomida davlatga foizi bilan to'lab borishi lozim edi. Dehqonlarning to'vкуп bitimlari tuzilguniga qadar avvalgi majburiyatlarini (barshchina va obrok) bajarib turishlari belgilab qo'yildi. Xullas, podsho hukumati o'z tayanchi pomeshchiklarni «xafa» qilib qo'ymaslikning «eng oqilona» yo'llarini topgan edi.

Islohotning tarixiy ahamiyati. 1861- yilgi islohot natijasida krepostnoylik huquqi yemirildi. Islohot dehqonlarni birdaniga ozod etmadi. Krepostnoylik sarqitlari uzoq yashadi. Podsho Rossiyasi qishloq xo'jaligida kapitalizm juda sekinlik bilan rivojlana boshladi. Biroq baribir islohot muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Chunonchi, dehqonlar shaxsiy erkinlik va fuqarolik huquqiga ega bo'ldilar. Iqtisodiyotda kapitalistik munosabatlarning mustahkamlanishi uchun keng yo'l ochildi.

Tashqi siyosat. Podsho Rossiyasi XIX asrda ham boshqa buyuk davlatlar qatori bosqinchilik urushlarini davom ettirdi. Dastlab Bessarabiya va Kavkazorti bosib olindi. Shimoliy Kavkazni ham to'la bo'ysundirish uchun 30 yil urush olib borishga majbur bo'ldi. Dog'iston, Checheniston va Adigeyning tog'lik xalqlari Rossiya qo'shiniga qattiq qarshilik ko'rsatdilar. Tog'liklarning podsho Rossiyasiga qarshi mustaqillik uchun kurashiga 25 yil davomida Shomil rahbarlik qildi. U aqlli va jasur hukmdor edi. Biroq kuchlar teng bo'lmaganligidan Shomil qo'shini tormoretildi.

1864- yilga kelib oxir-oqibat butun Kavkaz podsho Rossiyasi tarkibiga kiritildi. Shu yili Markaziy Osiyoni bosib olish uchun harbiy harakatlar boshlab yubordi. 1867-yilda Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining bosib olingan hududlarida Turkiston general-gubernatorligini tashkil etdi.

1866-yilda Rossiya tabiiy boyliklarga boy bo'lgan Alyaskani AQSHga arzimagan pulga sotib yubordi. Bu oldi-sotdidan Rossiya Buyuk Britaniya bilan sovuq munosabatlarda AQSHga tayanishni rejalashtirgan edi. 1868-yilda Markaziy Osiyoning ikki davlati – Qo'qon xonligi va Buxoro amirligi podsho Rossiyasiga qaramligini tan oldilar. Markaziy Osiyoni bo'ysindirishning birinchi davri shu tariqa yakunlandi.



Vikup – krepostnoylikdan ozod bo'lgan dehqonning o'ziga berilgan yerni haq to'lash evaziga sotib olishi.

Katorga (yunoncha) – juda og'ir sharoitda ishlatish va qamashdan iborat jazo chorasi hamda shunday jazoni o'tash joyi.

Reaksiya kuchlari – ilg'or g'oyalarni ta'qib etuvchi, eski tartiblarni saqlab qolishga yoki ularni qayta tiklashga intiluvchi kuchlar.

Surgun – jazo tariqasida boshqa yerlarga jo'natish.



Savol va topshiriqlar

1. Matndan podsho Rossiyasining iqtisodiy taraqqiyot jihatidan G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan orqada qolganligi sabablarini aniqlang.
2. Dekabristlar harakati o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'ygan edi?
3. Podsho Rossiyasida hukm surgan reaksiya haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. Podsho Rossiyasi hukmron doiralari nega krepostnoylik huquqni bekor qilishga majbur bo'ldilar?
5. Podsho Rossiyasi tashqi siyosati haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mustaqil ish

Germaniya va Rossiya imperiyalarining o'xshash hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

IV BOB. XIX ASRNING 70- YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA AMERIKA MAMLAKATLARI

29- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Amerika Qo'shma Shtatlari



AQSH iqtisodiy taraqqiyoti. Mustaqillik yillarida AQSHda sanoat tez sur'atlar bilan rivojlandi. XIX asrning 30- yillarida AQSHda sanoat inqilobi boshlandi. XIX asr o'rtalarigacha AQSH, asosan, qishloq xo'jalik mamlakati edi. Mamlakat shimolidagi qishloq

xo'jaligida kapitalistik munosabatlar tez rivojlandi. Uning asosini *fermer* xo'jaligi tashkil etdi.

Fermer xo'jaliklari. feodal ekspluatatsiyasidan xoli bo'lgan. Ular pomeshchiklarga qaram dehqonlarga nisbatan ko'proq tovar sotish va sotib olish imkoniyatiga ega edilar. Amerika qishloq xo'jaligiga xos bu xususiyatlar AQSH iqtisodiyotining tez rivojlanishiga yordam berdi.

Plantatsiya xo'jaligi. AQSHda xo'jalik yuritishning ikki tizimi uzoq vaqt davom etib keldi. Fermerlar xo'jaligi rivojlangan shimoliy shtatlarda qulchilik XIX asrning boshlaridayoq bekor qilindi. Janubiy shtatlarda esa qulchilikka asoslanuvchi plantatsiya xo'jaligi hukmronlik qilardi. Janubning tabiiy sharoitlari paxta yetishtirish uchun qulay edi. Buyuk Britaniya va AQSHda sanoatning tez rivojlanishi paxtaga bo'lgan talabni tobora oshirib yuborgan. Buyuk Britaniya fabrikalari AQSHdan paxta xarid qilishni ko'paytirib borganlari sari qullarni ekspluatatsiya qilish kuchaydi. Bu zulm shafqatsizligi jihatidan krepostnoylikning eng ayanchli shakllaridan ham dahshatli edi.

Abolitsionistlar. Oq tanli ko'pgina kishilar – ishchilar, *fermerlar*, ziyolilarning ilg'or qatlamlari qulchilikning bekor qilinishi uchun kurash olib bordilar. Shu tariqa abolitsionistlar harakati vujudga keldi.


AQSHda qulchilikka nafrat bilan qarovchi kishilar soni tobora ortib bordi. 50- yillarning oxirlarida atoqli abolitsionist, oq tanli fermer Jon Braun Virginiyada qullar qo'zg'olonini ko'tarishga urinib ko'rdi. U Allegan tog'ida mustahkamlanib olib, bu yerdan qo'zg'olonni plantatsiyalarga yoyishni umid qilgandi. Braun tuzgan qurolli guruh 22 kishidan iborat bo'lgan. Gurugda 5 nafar qora tanli kishi ham bor edi. Yomg'irli tunda u qurol-yarog'lar saqlanadigan kichik omborni bosib olishga muvaffaq bo'ldi. So'ngra Braun qo'shni plantatsiyalardagi qullarni ozod qilish va quldorlarni garov sifatida qo'lga olish uchun o'z odamlarini yubordi. Ammo Braun umumiy qo'zg'olon ko'tarishga muvaffaq bo'lolmadi. Tez orada hukumat qo'shini Brauning qurolli guruhini qirib tashladi. Og'ir yarador bo'lgan Braun esa qamoqqa olindi va osib o'ldirishga hukm qilindi.

Quldorlar isyoni. Bu davrda AQSHda ikki partiyaviy tizim ham to'la shakllanib bo'lgan edi. Respublikachilar partiyasining xalq orasida eng obro'li arbobi Avraam Linkoln (1809 – 1865) edi. Linkolnning qulchilikka qarshi chiqishlarini ishchilar, fermerlar, burjuaziyaning ilg'or qismi qo'llab-quvvatladi. Respublikachilar partiyasi Linkolnni prezidentlikka nomzod etib ko'rsatdi va u 1860- yilgi saylovda g'alaba qozondi. Uning

Prezidentlikka saylanishi bilan hukumatda quldorlar hukmronligiga barham berildi. Bu esa qulchilik dushmanlarining juda katta va ayni vaqtda tinch yo‘l bilan erishgan siyosiy g‘alabasi edi. Ular birinchi marta hukumatda hokimiyatni o‘z qo‘llariga oldilar. Janub plantatorlari saylovda mag‘lubiyatga uchragan Demokratlar partiyasining asosiy tayanchi edi. Ular endi qonuniy yo‘llar bilan qulchilikni saqlab qolishga muvaffaq bo‘lmasliklariga ishonch hosil qildilar.

Shuning uchun o‘zlarining qulchilikka asoslangan alohida davlatlarini tuzishga kirishdilar. Qulchilik shtatlari AQSH tarkibidan chiqqanliklarini, janubiy shtatlarning o‘z prezidentiga ega bo‘lgan *konfederatsiyasi* tuzilganligini e‘lon qildilar. O‘zlarining alohida qo‘shinini ham tuzdilar. Shu tarzda janub plantatorlari qulchilikni saqlab qolish yo‘lida milliy manfaatlariga xiyonat qildilar. Endi AQSHda fuqarolar urushi boshlanishi muqarrar bo‘lib qoldi.

Fuqarolar urushi (1861–1865). 1861-yilning aprel oyida shimol bilan janub o‘rtasida fuqarolar urushi boshlandi. Kuchlar nisbati jihatidan shimol ustun edi. 1863-yilda qullik bekor qilindi. Fuqarolar urushi 1865-yilning aprelida shimolning g‘alabasi bilan tugadi. Biroq reaksiya kuchlar A. Linkolnni yollanma qotil qo‘li bilan otib o‘ldirishga muvaffaq bo‘ldilar. Biroq bu qotillik qulchilikni bekor qilishga to‘sqinlik qila olmadi. 1865-yilda AQSH Kongressi tomonidan Konstitutsiyaga tuzatish kiritildi. Unga muvofiq qora tanlilar oq tanlilar qanday fuqarolik va siyosiy huquqlarga ega bo‘lsalar, ularga ham shunday huquqlar berildi.



29- rasm. Avraam Linkoln.

Fuqarolar urushining natijalari. Urushda shimolning erishgan g‘alabasi katta tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi. G‘alaba mamlakat yaxlitligini saqlab qoldi. Qulchilik bekor qilindi va gomstedlar to‘g‘risida qonun qabul qilindi. AQSHda g‘arbiy yerlardagi qishloq xo‘jaligida kapitalizm rivojlanishi uchun imkoniyat ochildi. G‘alaba g‘arbiy yerlarning qulchilik tarafdorlari tomonidan bosib olinishi xavfiga barham berdi. Janubda ham fermer xo‘jaligi rivojlanishi uchun keng

yo‘l ochildi. Tarixiy g‘alaba sanoat to‘ntarishini tezroq tugallash va Amerika sanoatining o‘sishi uchun sharoit yaratdi.



Abolitsionistlar (inglizcha – bekor qilish) – Amerikada qullikni bekor qilish tarafdorlari.

Gomstedlar to‘g‘risidagi qonun – G‘arbdagi bo‘sh yotgan katta yer jamg‘armasini fermer xo‘jaligi yuritishni istagan shaxslarga bepul bo‘lib berish to‘g‘risidagi qonun.

Konfederatsiya (lotincha – ittifoq, birlashma) – o‘z mustaqilligini saqlab qolgan holda biror-bir maqsadni amalga oshirish uchun birlashgan davlatlar ittifoqi.

Fermer – xususiy yoki uzoq muddat ijaraga olingan yerda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan shug‘ullanuvchi qishloq xo‘jaligi tadbirkori, fermer xo‘jaligi egasi.



Savol va topshiriqlar

1. AQSHda yuz bergan fuqarolar urushining sabablarini tartib bilan daftaringizga yozing.
2. Nega Shimol uchun fuqarolar urushiga kirish AQSHning ikkiga bo‘linib ketishidan ustun qo‘yildi?
3. Shimolning g‘alabasini ta‘minlash yo‘lida Prezident A. Lin-koln qanday rol o‘ynadi?
4. Shimol erishgan g‘alabaning tarixiy ahamiyati haqida nimalarni bilib oldingiz?

30- §. Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi



Mustaqillik uchun kurashning boshlanishi. Lotin Amerikasi mamlakatlari hamon Ispaniya mustamlakasi edilar. Ispaniya hukmron tabaqalari mustamlakachilik zulmini tobora kuchaytirganlar. Chunonchi, Ispaniyadan yuborilgan amaldorlar, generallar va boshqa zobitlar mustamlakalarda katta boylik jamg‘ardilar. Ular *kreollarga* mensimay qaraganlar.

Kreollar orasida pomeshchiklar, savdogarlar, monaxlar va ruhoniylar tabaqalari mavjud edi. Ispaniya amaldorlari kreollarni mustamlakalardagi oliy ma‘muriy lavozimlarga yo‘latmas, ular bilan takabburona muomala qilar edilar. Kreollar Ispaniya xazinasiga to‘lanadigan og‘ir soliqlardan, mustamlakachi amaldorlarning beboshligidan va Ispaniya ma‘murlarining mus-

tamlakalarning boshqa davlatlar bilan savdosini taqiqlab qo'yganligidan aziyat chekkanlar.

Mustamlakachilik zulmi qishloq xo'jaligi va savdo-sotiqni yanada rivojlantirish uchun asosiy to'siq bo'lib qoldi. Bu omillar Ispaniyaning mustamlakachilik zulmiga qarshi ozodlik harakatini vujudga keltirib chiqardi. Bu harakatning asosiy maqsadi mustaqil davlat tuzish edi. Kreollardan chiqqan o'qimishli kishilar, pomeschiklar, va ayniqsa, zobitlar orasida ozodlik g'oyalari keng tarqaldi. Mustamlakalarda burjuaziya hali zaif edi. Shu sababli kreol dvoryanlardan chiqqan inqilobchilar ozodlik harakatiga boshchilik qildilar. Ozodlik harakatining arboblari xalq ommasining – hindular, metislar va mulatlardan chiqqan dehqonlar bilan hunarmandlarning, hatto Ispaniya hukmronligidan xalos bo'lish o'z qismatining yengillashuviga olib kelishiga umid bog'lagan qora tanli qullarning ham madadiga tayandi.

Meksikada mustaqillik urushi. 1810- yilda mustamlakalarda ommaviy qo'zg'olon boshlandi. Lotin Amerikasi xalqlari o'zining ozodlik kurashida ko'pgina ajoyib vatanparvarlarni yetishtirib berdi. Meksika xalqi ozodlik kurashining shonli qahramonlari, kambag'al dehqonlar qo'zg'olonlarining yo'l boshchilari Migel Idalgo va Xose Morelosning nomlarini hozir ham hurmat bilan eslaydi.

Qishloq ruhoniysi Idalgoni mahalliy aholi, ayniqsa, hindular sevar edi. U hindularning tillarini bilardi. 1810- yilda Idalgo dehqonlarning eng kambag'al tabaqalariga mansub bo'lgan hindular bilan mulatlarni mustaqillik uchun kurashga va o'zlaridan tortib olingan yerlarni qaytarib olishga chaqirdi. Qo'zg'olon ko'targan hindular va mulatlardan butun bir qo'shin tuzildi. Idalgo quldorlarga o'zlarining hamma qullarini o'n kunlik muddatda ozod qilib yuborishni buyurdi va hindu jamoalari mustamlakachi ma'murlarga to'lab kelgan o'lponni bekor qildi.

Biroq, Ispaniya qo'shini qo'zg'olonni bostirdi. Asir olingan Idalgo esa 1811- yilda otib o'ldirildi. Idalgoning eng yaqin safdoshi Morelos uning ishini davom ettirdi. Biroq Ispaniyaning muntazam qo'shini bu safar ham qo'zg'olonchilardan ustun keldi, Morelos esa otib tashlandi. Keyinchalik ozodlik harakatiga rahbarlikni badavlat pomeschiklar qo'lga oldilar. Meksikadagi mustaqillik uchun kurash davom etdi. Nihoyat, 1821- yilda Meksika mustaqillikka erishdi. Qullik bekor qilindi. 1824- yilda esa Meksika respublika deb e'lon qilindi.



30- rasm. Simon Bolivar.

Venesuela mustaqilligi. Venesuelada mustaqillik urushiga Simon Bolivar rahbarlik qildi. U Janubiy Amerika xalqlarining eng mashhur qahramoni bo'lib qoldi. Bolivar venesuelalik badavlat kreol – pomeshchik va savdogar oilasida tug'ildi. Juda yaxshi ilm olgan Bolivar Yevropa bo'ylab safar qildi. «Ispaniya mening mamlakatimni bandi qilgan zanjirlarni parchalab tashlamagunimcha xotirjam bo'lmayman» – derdi u. Bolivar Venesuela ozodlik qo'shinini tuzdi. U ispan qo'shinlariga qarshi olib borgan muvaffaqiyatli janglari uchun general unvoni va «Xaloskor» degan faxriy nom oldi.

Bolivar faqat zamindor kreollargagina tayanib qolmay, qora tanlilar bilan hindularni ham kurashga otlantirdi. Qullik bekor etilganini e'lon qildi va shu tariqa qora tanli qullarning bir qismini o'z qo'shiniga jalb etdi. Hindu dehqonlarga esa urush tamom bo'lishi bilanoq ular o'z yerlariga ega bo'lishiga va'da berdi.

Bolivar Yevropaning ilg'or jamoatchiligiga murojaat etib yordam so'raganida, uning da'vatiga ko'plab ko'ngillilar javob berib, asoratga soluvchi mustamlakachilarga qarshi kurashayotgan Lotin Amerikasi xalqlariga yordam berishga qaror qildilar. Irlandiyaliklar, inglizlar, nemislar, italyanlar, polyaklar, ruslar Venesuelaga keldilar.

1811- yilda Venesuela mustaqil deb e'lon qilindi. Bolivar Venesueladan And tog'ining qorli cho'qqilari orqali o'tib, Yangi Granadaning Ispaniyadan ozod bo'lishiga yordam berishga qaror qildi. Mashaqqatli And tog'i yo'llaridan mardonavor o'tildi. Bolivar qo'mondonligidagi qo'shin ispan qo'shinlari ustidan g'alaba qozondi. 1819- yilda Yangi Granada Venesuela bilan birlashdi. Birlashgan davlatga X. Kolumb sharafiga Buyuk Kolumbiya deb nom berildi. Bolivar Buyuk Kolumbiya Prezidenti lavozimini egalladi. Bolivar hindularga solinadigan o'lponni bekor qildi. Yirik pomeshchiklarning yerlarini musodara qilish to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqdi. Ammo bu tadbir pomeshchiklarning qarshiligiga duch kelib, amalga oshmay qoldi. Bolivar Ispaniyadan ozod qilingan barcha Amerika respublikalari konfederatsiyasini tuzishni orzu qilar edi. Inqilobning eng qiyin, hal qiluvchi davrida Bolivar xalq bilan birga bo'ldi va unga fidokorona xizmat qildi. Shuning uchun ham u yirik pomeshchiklarga yoqmadi.

Ular Bolivarni jismonan yo‘q qilishga qaror qildilar. Oxir-oqibatda u 1830- yilda iste‘foga chiqishga majbur bo‘ldi. U afsus bilan bunday deb yozgan edi: «Inqilobga xizmat qilish – bu dengizni shudgor qilish bilan barobardir». Lotin Amerikasi xalqlari shu paytga qadar atoqli qahramon – Amerikadagi mustamlakalarning xaloskori Bolivarni hurmat bilan eslaydilar.

Mustaqillik yo‘lidagi urushlarning tugashi. Argentinada mustaqillik uchun qurolli kurash 1810- yilda boshlandi. Kurash boshlangan 25- may kuni Argentina xalqining milliy bayram kuni bo‘lib qoldi. Argentinani Xose San-Martin qo‘mondonligidagi inqilobiy qo‘shin ozod qildi. So‘ngra uning qo‘shini Chili bilan Peruning ozod bo‘lishiga yordam berdi.

1822- yilda Braziliya Portugaliyadan mustaqil deb e‘lon qilindi. Ispaniya mustamlakachiligiga qarshi o‘z mustaqilligi uchun kurashayotgan Yuqori Peru vatanparvarlari qo‘shini 1824- yilning dekabrda Bolivarning safdoshi general Sukre boshchiligida ispan qo‘shini tor-mor etdi. Yuqori 1825- yilda Peru Ispaniya zulmidan uzilkesil ozod bo‘ldi.

Yuqori Peru S. Bolivar sharafiga Boliviya deb ataldi. 1826- yilda Argentina, 1830- yilda Urugvay, 1869- yilda esa Kuba mustaqil Respublika deb e‘lon qilindi. Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun urushlar yakunida Ispaniya zulmi ag‘darib tashlandi va bir qancha yangi mustaqil milliy davlatlar barpo etildi.

Braziliyadan tashqari ularning hammasida respublika tuzumi o‘rnatildi. Lotin Amerikasidagi mustaqillik uchun urushlar mustamlakachilikka qarshi milliy ozodlik urushi hamda burjua inqiloblari ham edi. Bu inqiloblarda yerli aholi Ispaniya bilan Portugaliyaning mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘ldi.



Kreollar – Lotin Amerikasiga dastlab ko‘chib kelgan ispan va portugallarning avlodlari.

Lotin Amerikasi – bu, aholisining ko‘pchiligi so‘zlashadigan til lotin tili negizida tashkil topgan Janubi Amerikaga nisbatan ishlatiladigan atama.

Metis – Amerikada oq tanli aholiga mansub kishi bilan hindular o‘rtasidagi nikohdan tug‘ilgan avlod.

Mulat – oq tanli va qora tanli kishilar o‘rtasidagi nikohdan tug‘ilgan avlod.



Savol va topshiriqlar

1. Lotin Amerikasi qay tariqa mustamlakaga aylangan edi?
2. Lotin Amerikasi mamlakatlarining milliy-ozodlik kurashi va uning natijalari haqida nimalarni bilib oldingtz?
3. Mustaqillik urushi natijasida tashkil topgan milliy davlatlarning ro'yxatini tuzing. Ularni xaritadan toping.

V BOB. XIX ASRNING 70- YILLARIGACHA BO'LGAN DAVRDA OSIYO VA AFRIKA MAMLAKATLARI

31- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrdan Hindiston



Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartibi. Buyuk Britaniya hukmron tabaqalari yangi asrda ham Hindistonni butunlay o'z mustamlakalariga aylantirish siyosatini davom ettirdilar. Chunonchi, hukumat «Hindiston ishlari bo'yicha nazorat kengashi» tashkil etdi. Bu kengash Buyuk Britaniyaning Hindistondagi mustamlakachilik siyosatining yo'nalishlarini belgilab borardi.

Bundan tashqari, Buyuk Britaniya parlamenti Hindistonni boshqarish to'g'risida qonun qabul qildi. Unga ko'ra, «Ost-Indiya» kompaniyasining Kalkutta shahridagi gubernatori Buyuk Britaniyaning barcha mustamlakalari general-gubernatori etib tayinlandi. Shu tariqa kompaniya amalda Hindistonni boshqaruvchi mustamlakachi ma'muriyat apparatiga aylantirildi. Hindistonda Buyuk Britaniya ma'muriyatining Oliy Sudi joriy etildi.

Hindistonning mustamlakaga aylantirilgan hududlari ma'muriy jihatdan general-gubernatorga itoat etuvchi gubernatorlar tomonidan boshqarildi.

Buyuk Britaniya to'qimachilik sanoati mahsulotlarining Hindistonda sotilishi mahalliy to'qimachilik hunarmandlarini xonavayron qilgan. Chunki ularning mahsuloti sifat jihatdan metropoliya tovarlari bilan raqobat qila olmagan. Ayni paytda metropoliyaga Hindiston paxtasi ham olib ketila boshlandi.

Buyuk Britaniya to'qimachilik fabrikalari paxtani qayta ishlab, sifatli mato tayyorlardi. Bu mato Hindistonga olib kelinib sotilgan. Bu esa

Hindistonning shahar hunarmandchiligini halokat yoqasiga keltirib qo‘ygan. Shu tariqa hind to‘qimachilarining taqdiri fojiali ahvolga tushgan. Buyuk Britaniya fabrikantlari behisob miqdorda daromad olayotgan bir davrda, Hindistonning o‘n minglab to‘quvchilari ochlikka mahkum etilgan.

«Ost-Indiya» kompaniyasi katta harbiy kuchga tayanar edi. U hindlarning o‘zidan ham yollanma qo‘shin tuzgan. Bu qo‘shin askari sipohi deb atalardi. Qo‘shinga ingliz zobitlari qo‘mondonlik qilishardi. Hindistonda faqat shu qo‘shingina hindlarning birdan-bir uyushgan tashkiloti edi, xolos. Kompaniya sipohilarning Buyuk Britaniyaga so‘zsiz itoat etib, xizmat qilishini istardi.

Buyuk Britaniyaning Hindistonda talonchilikdan iborat mustamlakachilik siyosati mahalliy knyazliklar va hind jamiyati turli tabaqalarining tarqoqligi tufayli tobora chuqurlashib bordi. Ayni paytda ular milliy va diniy jihatdan ham kamsitilar edi. Ularning diniy his-tuyg‘ulari hisobga olinmasdi. Oqibatda mana shu yagona uyushgan, sipohilardan iborat harbiy kuch orasida ham mustamlakachilik tartiblaridan norozilik tobora kuchayib borgan.

Sipohilar qo‘zg‘oloni. Sipohilar qo‘zg‘olonining boshlanishiga bevosita turtki qo‘shinda patron bilan o‘qlanadigan miltiqning joriy etilishi bo‘ldi. Yangi patronning usti qog‘oz po‘stlog‘i bilan qoplangan bo‘lib, partonni miltiq stvoliga solishdan oldin po‘stloqni tish bilan yirtib tashlashi kerak edi. Bu qog‘oz po‘stloq ustiga esa yog‘ surtilgan edi. Sipohilar orasida shu yog‘ sigir va cho‘chqa yog‘ining aralashmasidan tayyorlangan, degan gap tarqalib ketgan.

Hinduiylik diniga ko‘ra, hindlarda sigir muqaddas hisoblanadi va uning go‘shiti ham yeyilmaydi. Hind sipohi sigir yog‘i ishlatilgan patronni tishi bilan tishlashni o‘z dinining qattiq tahqirlanishi, musulmon sipohi esa cho‘chqa yog‘i ishlatilgan patronni tishi bilan tishlashni islom dinining ongli ravishda qattiq tahqirlanishi (islomda cho‘chqa go‘shiti harom hisoblanadi) deb



31- rasm. Mustamlakachilarning qo‘zg‘olonchilarni to‘p og‘ziga bog‘lab otishi.

qabul qildilar. Oqibatda ular yangi patronni olishdan bosh tortdilar. Oxiri bu hodisa qo'zg'olon ko'tarilishiga olib keldi. Qo'zg'olon 1857- yilda boshlandi. Sipohilar tez orada Dehli shahrini egalladilar. Shoh saroyiga bostirib kirishib, Boburiy hukmdor Bahodirshoh II ni hind xalqini mustamlakachilarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish haqidagi chaqiriqqa imzo qo'yishga majbur etdilar.

Qo'zg'olonning bostirilishi. Buyuk Britaniya Hindistonga qo'shimcha harbiy kuchlarni yuborishga majbur bo'ldi. Shundan so'ng harbiy kuch ustunligi Buyuk Britaniya bosqinchilari tomoniga o'tdi. Britaniya qo'shini qo'zg'olonchilar egallagan shaharlarni qamal qilib, ularni shturm bilan egalladilar. Aholi o'zini qahramonona himoya qildi. Janglar ko'chalarda olib borildi. Mustamlakachilar to'plarni fillarga ortib Dehliga olib kirdilar va bu tadbir jang taqdirini hal qildi.

Ammo qo'zg'olonchilar kurashni davom ettirdilar, partizan otryadlari tuzdilar. Partizanlar harakatiga Tantiya Topi boshchilik qildi. Qo'zg'olon qatnashchilari orasida hind xalqining jasur va mard qizi, aslzoda Lakshmi Bay alohida o'rin egallaydi. Dushman Jxansi shahriga bostirib kirganida, u oxirgi o'qi qolguncha jang qildi. So'ng arqondan yasalgan narvonda shahar minorasidan pastga tushib, dushman qo'liga tushmay qochib ketdi. Keyinchalik u partizanlar otryadida kurashni davom ettirdi va janglarning birida halok bo'ldi. Uning jasadi hinduylilik diniy an'anasiga ko'ra kuydirilib, xoki muqaddas hisoblanuvchi Ganga daryosiga tashlandi.

Qo'zg'olonni bostirish paytida dahshatli vahshiyliklar qilindi. Buyuk Britaniya askarlari na xotin-qizlarni, na bolalarni, na keksalarni ayashdi. Asir tushganlarni bir joyga to'plangan olomon oldida to'p og'ziga bog'lardilar va to'pdan o'q otib, parcha-parcha qilib tashlardilar.

Qo'zg'olonchilarning jasoratli harbiy boshchisi Tantiya Topini xoinlar bosqinchilarga ushlab berishdi. Dunyoning ilg'or fikrli kishilari Hindiston xalqiga qizg'in xayrixohlik bilan qaradilar. Ular mustamlakachilarining vahshiyiligini g'azab bilan fosh etdilar. 1858- yilda Hindiston Buyuk Britaniya mulki deb e'lon qilindi. Qo'zg'olonchilar tor-mor keltirilgan bo'lsa-da, mustamlakachilar o'z hukmronliklarini mustahkamlash uchun ba'zi islohotlarni o'tkazishga majbur bo'ldilar. Chunonchi, yer egalarning soliqlarni oshirishi taqiqlab qo'yildi. Mahalliy knyazlarning o'z yerlariga egaligi daxlsiz deb e'lon qilindi.

«Ost-Indiya» kompaniyasi esa tugatildi. Hindistonni boshqarish Britaniya ma'murlari qo'liga o'tdi.

Hindistonda ziyoliylar qatlamining shakllanishi. Buyuk Britaniya hukumati 1857–1859- yillardagi qo'zg'olonidan zarur xulosalar chiqardi. Endi hukumat mahalliy aholiga qator imtiyozlar joriy etish yo'liga o'tdi. Chunonchi, hindlarning ilm olishlariga yo'l ochdi. Maktablar, kollejar va boshqa o'quv yurtlari ochila boshlandi. Hindlar Yevropa davlatlari universitetlarida ham ilm olish imkoniga ega bo'ldilar. Shu tariqa hind ziyolisi qatlami shakllana bordi. Yevropacha ma'lumotga ega bo'lgan hindlar davlat xizmatiga qabul qilina boshlandi. Ular orqali ingliz tilining tarqalishi yanada kengaya bordi. To'g'ri, dastlabki yillarda ingliz tilini biluvchi hindlar juda ozchilikni tashkil etgan. Biroq shu ozchilik ham hind jamiyatiga erkinlik va demokratiya g'oyalarining kirib kela boshlashiga asos solgan.



Sipohi (jangchi) – Buyuk Britaniya zobitlari rahbarlik qilgan hindlardan tuzilgan yollanma qo'shin.

Partizan (fransuzcha) – dushman bosib olgan joylarda ozodlik uchun ko'ngilli ravishda qurolli kurash olib boruvchilar guruhining a'zosi.



Savol va topshiriqlar

1. Hindistonda o'rnatilgan Buyuk Britaniya mustamlakachilik tartiblari haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Mustamlakachilar Hindistonni qay tariqa boshqardilar?
3. Sipohilar qo'zg'olonining sabablarini tushuntirib bering.
4. Buyuk Britaniya hukumati qo'zg'olonni bostirish uchun qanday choralar ko'rdi?
5. Qo'zg'olonning tarixiy ahamiyati nimalardan iborat?



QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR

Bugungi Hindistonda so'nggi Boburiy hukmdor Bahodirshoh II ning avlodlari yashashadi.

Bahodirshoh II Zafar 1862- yilda surgunda vafot etgan. Uning 2 nafar o'g'lini inglizlar otib tashlashgan.

Faqatgina go'dak o'g'li Mirzoquyosh tasodifan omon qolgan.

Mirzoquyoshdan Mirzo Abdulshoh, Mirzo Abdulshohdan Mirzo Abdug'ofur dunyoga keladi. Uning ikki qizi Husnijahonrobegim va Laylo Ummaxonni hozir ham hayot (1997- yil ma'lumoti).

Laylo Ummaxonining 2 o'g'li va 3 qizi bor. Katta o'g'illarining ismi, sharifi Ziyovuddin Tusiidir. U O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovga xat yo'llagan. Xatda Tusi y qutlov so'zlari bilan birga, onasi Laylo Ummaxonining og'ir xastaligini ham ma'lum qilgan edi. Prezidentimiz bu xabarni eshitgach yordam choralarini ko'rdi. Ayni paytda javob xati ham yo'llaganlar. Bu javob xatida, jumladan, quyidagilar yozilgan edi: «Bobur o'zbek xalqining buyuk farzandi, milliy g'ururidir. U! zoti sharifning yurtimizda nishonlanayotgan 510 yillik to'yi shu yuksak ehtiromdan yana bir dalolatdir. Bu shodiyona Sizlarning ham, bizning ham bayramimiz bo'lajak. Yurtimiz darvozalari Sizlar uchun hamisha ochiq». (1993- yil, 23- sentabr).

32- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Xitoy



Sin imperiyasi qudratining zaiflashuvi. Siz VII sinf «Jahon tarixi» dasrligidan Sin sulolasining katta bosqinchilik urushlari olib borganligini bilib olgan edingiz.

Topshiriq

Xitoyda Sin sulolasi hukmronligi qachon va qay tariqa o'rnatilganligini aniqlang.

Biroq XVIII asr oxirlariga kelganda imperiyaning istilochilik qudrati zaiflashdi. Iqtisodiy turg'unlik va mamlakat aholisi asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlarning qashshoqlashuvi dehqonlar qo'zg'olonini keltirib chiqardi.

Shu tariqa Xitoy ichki ziddiyatlar iskanjasida qoldi. Hukmron sulola umri tugayotgan tuzumni butun choralar bilan saqlab qolishga urindi. Hukmron tabaqalar siyosatiga qarshi har qanday bosh ko'tarish shafqatsizlik bilan bostirildi. Bu ham yetmaganidek, Xitoy xalqi ongi-ga: «Imperator yorug' dunyoning xudosi va boshqa barcha davlatlar uning soliq to'lovchilaridir» degan chirkin g'oya zo'r berib singdiril-moqda edi. Imperator 1757- yilgi Xitoyni chet davlatlardan, birinchi navbatda, G'arbiy Yevropa davlatlaridan ajratish siyosatini joriy etdi.

Tashqi savdo faqat imperator amaldorlari nazorati ostida olib boriladigan tartib joriy etildi. Shunda ham tashqi savdo faqat Guanjou porti orqaligina olib boriladigan bo'ldi. Xitoyning o'zini-o'zi yakkalab

qo'yish siyosati feodal tartiblarining saqlanishiga xizmat qildi. Uning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga katta zarar yetkazdi. Imperator ma'murlari fan va texnika sohasida boshqa xalqlarning yutuqlarini rad etdilar. Mamlakat qoloqlik botqog'iga botib qoldi.

Shunday bir sharoitda Buyuk Britaniya hukumati Xitoyni o'z savdogarlari uchun ochishga butun choralar bilan urindi. Sin imperatorining qaysarligini sindirish uchun unga bir bahona kerak edi.

Birinchi afyun urushi. Buyuk Britaniya savdogarlari Hindistondan g'ayri qonuniy ravishda Xitoyga afyun kirita boshladilar. Mahalliy Xitoy ma'murlari afyun ortilgan karvonlarni musodara qilganiga javoban Britaniya hukumati afyumni va britan tovarlarini olib kirishni qonunlashtirish uchun 1840- yilda Xitoyga qarshi urush boshladi. Urush tarixga «birinchi afyun urushi» nomi bilan kirgan. Bu urush 1842- yilgacha davom etdi. Buyuk Britaniya floti va qo'shini Sin qo'shinini tor-mor keltirdi. Xitoyning iqtisodiy va harbiy texnika jihatdan qoloqligi mag'lubiyatga sabab bo'ldi. Yomon qurollangan Xitoy qo'shini Buyuk Britaniyaning eng yangi qudratli o't ochish qurollari bilan ta'minlangan qo'shini hujumini qaytara olmagan oqibatida Buyuk Britaniya Gonkong orolini bosib oldi va Xitoyni chet el savdogarlari uchun bir nechta portlarni ochib qo'yish haqidagi shartnomani imzolashga majbur etdi. Lekin Xitoy afyun olib kirilishining qonuniy ekanligini tan olmadi.

Ikkinchi afyun urushi. 1856- yilda ikkinchi afyun urushi ro'y berdi. Bu safar Xitoy Buyuk Britaniya va Fransiyaning birlashgan qo'shinlaridan qaqshatqich zarbaga uchradi. Ular Pekin bo'sag'alarida juda boy xazinalarga ega bo'lgan yozgi imperator saroyini taladilar va vayron qildilar. Mustamlakachilar Xitoyni yangi noteng shartnomalar tuzishga majbur etdilar. Chet elliklarga yana boshqa portlarda ham savdo olib borishga ruxsat etildi va yangi imtiyozlar berildi.

Xitoyga majburan qabul qildirilgan shartnomalarning notengligi, ayniqsa, shu narsada yaqqol namoyon bo'ldiki, ingliz va fransuz fuqarolari Xitoy hududida Xitoy qonunlari va sudiga bo'ysunishdan ozod qilindilar. Agar ular jinoyat qilsalar, ularni tegishli mamlakatning elchisi o'sha mamlakatning qonunlariga binoan sud qilardi. Dengiz savdosida ustunlikni egallagan Buyuk Britaniya Xitoyda hammadan ko'proq imtiyozlarga ega bo'ldi. Dengiz sohilidagi katta shaharlarda maxsus vujudga keltirilgan kvartallarda faqat ajnabiylar yashashar, xitoy ma'murlari esa bu yerlarga kira olmas edilar.



32- rasm. Taypinlar jangchilari.

Dehqonlar urushi va taypinlar davlati (1850 –1864). Hukumatning taslimchilik siyosati oqibatida Xitoyning Yevropa davlatlari va AQSHning yarim mustamlakasiga aylanib borishi hamda feodal zulmining kengayishi xalq ommasining keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Oqibatda dehqonlar qo'zg'olon ko'tarishga majbur bo'ldilar. Mamlakatda qudratli dehqonlar urushi

alanga oldi. Bu urush 1850- yilda mamlakat janubida boshlandi. Sin sulolasiga va feodallarga qarshi kurash mustamlakachilarga qarshi kurash bilan qo'shilib ketdi.

Qo'zg'olonchilarga dehqonning o'g'li, maktab o'qituvchisi Xun Syusyuan boshchilik qildi. Qo'zg'olonchilar Yanszi viloyatida «Samoviy mo'l-ko'pchilik davlati» («Taypin tyango») barpo etganlar. Uning markazi Nankin shahri bo'lgan. Xun Syusyuan fikricha, bunday davlatlarda dehqonlar jamoa bo'lib yashashlari, jamoada «hech bir narsada tengsizlik bo'lmasligi, hammaning to'q va kiyimi but bo'lishi uchun yerga ega bo'lgan holda uni birgalikda ishlash, oziq-ovqat bo'lganida birgalikda tanovul qilish, kiyim-kechak bo'lganida ularni baravar taqsimlash, pul bo'lganida uni birgalikda sarflash lozim» edi. Aholi turmushi harbiy tartib asosida qurilgan. Har bir oilaning qo'shinga bitta askar yetkazib berishi belgilab qo'yilgan. Harbiy qism boshlig'i esa ayni paytda qism joylashgan hududda davlat hokimiyatini ham amalga oshirgan. Shaharlarda turmushni harbiylashtirish yanada ildamlab ketdi. Barcha erkaklar bitta mehnat lageriga, xotin-qizlar va bolalar boshqa lagerlarga joylashtirildi.

Taypinlar mag'lubiyati. Qo'zg'olon rahbarlarining orzu-umidlari xayoliy hodisa edi, xolos. Ularning yemi har bir oilaga oila a'zolari soniga qarab teng bo'lib berish haqidagi rejalari qo'zg'olonda ishtirok etayotgan mulkdor tabaqalarning qo'zg'olondan uzoqlashishiga olib kelgan. Taypinlar rahbarlari orasida nizolar ham kelib chiqqan. Qolaversa, yer ololmagan dehqonlar umidsizlikka tushganlar. Bu esa davlat ma'murlariga taypinlarni tor-mor keltirishda yordam berdi. Hukumat kuch to'plab hujumga o'tdi. Unga Buyuk Britaniya va Fransiya, Amerika

Qo'shma Shtatlari yordam ko'rsatdilar. Buyuk davlatlar Xitoyda inqirozga yuz tutgan Sin sulolasi hukmronligi saqlanib qolishidan manfaatdor edilar.

1864- yilda hukumat qo'shinlari qo'zg'olon rahbarlari joylashgan Nankin shahrini ishg'ol qildilar. Xun Syusyuan o'zini-o'zi o'ldirdi. Taypinlar qo'zg'oloni bostirilganidan keyin chet el mustamlakachilari Sin sulolasini qo'llab-quvvatlashni davom ettirdilar va uning yangi-yangi yon berishlariga erishdilar.

Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol. Afyun urushlari va taypinlar qo'zg'oloni Xitoyni zaiflashtirgan bo'lsa-da, feodal jamiyati asoslarini o'zgartira olmadi. Xitoy iqtisodining asosini hamon qishloq xo'jaligi tashkil etardi. Aholining $\frac{3}{4}$ qismi qishloq xo'jaligi bilan bandligicha qoldi. Dehqonlar kam yerlilikdan aziyat chekardilar. Ular iqtisodiy jihatdan feodallarga to'la qaram edilar. Ijara haqi hosil miqdorining 50 foizdan 70 foizgacha qismini tashkil etardi.

1861- yilda imperatorlik taxtiga malika Sisi o'tirdi. U o'ta shafqatsiz hukmdor edi. O'zini «butun mamlakatning onasi» deb hisoblar va hatto Buddaga tenglashtirar edi. Hukmdor mamlakatda yalpi nazorat tartibini o'rnatdi. Shunday bo'lsa-da, u Xitoyni qudratli davlatga aylantirish harakatini boshlab bergan hukmdor sifatida nom qoldirgan.

Bu maqsad yo'lida 1861- yilda maxsus dastur e'lon qilindi.



1861- yilda Rossiyada qanday muhim tarixiy hodisa ro'y berganligini eslang.

Mamlakatda zamonaviy harbiy sanoat korxonalari qurilishi boshlandi. Telegrafchilar, artilleriyachilar, zobitlar, dengizchilar va kemasozlik mutaxassislari tayyorlovchi o'quv yurtlari ochildi. Hatto G'arbiy Yevropadagi o'quv yurtlari kabi ilm o'choqlari ham faoliyat ko'rsata boshladi.

G'arb tipidagi o'quv yurtlarining ochilishi Yevropa ilm-fan yutuqlarining Xitoyda ham tarqalishiga yo'l ochdi. Shuningdek, Xitoy ziyolilarining yangi avlodi shakllanishiga asos solindi.



Afyun (rus tilida – opium) – kuchli giyohvand moddalarning bir turi.



Savol va topshiriqlar

1. Xitoy qay tariqa buyuk davlatlar asoratiga tushib bordi?
2. «Yopiq eshiklar» siyosatidan ko'zlangan maqsad nima edi va u qanday oqibatlarga olib keldi?
3. Xitoyni chet el kapitali uchun ochishda afyun urushlari qanday rol o'ynadi?
4. Taypinlar qo'zg'oloni va uning mag'lubiyati sabablari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mustaqil ish

«XIX asrning 60- yillari oxirigacha bo'lgan davrdagi Hindiston va Xitoy tarixidagi o'xshash va o'ziga xos xususiyatlar» jadvalini tuzing.

33- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Yaponiya



Yaponiyaning kuch bilan «ochilishi». XVI asrdayoq Yaponiyada xristian dinining tarqalishi taqiqlangan edi. Hukmdorlar xristian dini yapon xalqi milliy an'analarini buzuvchi, xristian missionerlarini bosqinchilarning dastlabki guruhi deb hisoblaganlar. Shu tufayli XVII asrda Yaponiya hukmdorlari mamlakatni chet elliklar uchun yopib qo'ydilar va mamlakatdagi barcha yevropaliklarni quvib yubordilar.

Syogun farmonida bunday deyilgan edi: «Shu davrdan boshlab Yaponiyaga chet ellardan hech kim, hatto elchilar ham kiritilmaydi. Hatto o'lim xavfi ham bu farmonni bekor qila olmasligi lozim».



Syogun deb kimga aytilganligi va uning hokimiyati qay tariqa o'rnatilganligini eslang.

Shu tariqa yillar ketidan yillar o'taverdi. Va nihoyat, 1854- yilda AQSH harbiy-dengiz floti Yaponiyani ochilishga majbur etdi. Shu yili AQSH bilan Yaponiya o'rtasida «Tinchlik va do'stlik to'g'risida» shartnoma imzolandi. Unga ko'ra, Yaponiya AQSHga ikkita portini ochdi va AQSH konsulini qabul qildi.

AQSHdan so'ng Yevropa davlatlari ham birin-ketin kirib kela boshladilar. Ularning maqsadlari Yaponiya bozorlarini egallash edi.

1858- yilda amerikaliklarga yana bir nechta port ochib qo'yildi. AQSH fuqarolariga Yaponiyada eksterritoriallik huquqi berildi. Ayni paytda AQSH tovarlariga juda past boj to'lovlari belgilandi. Tez orada xuddi shu mazmundagi shartnomalar Yevropa davlatlari bilan ham imzolandi. Aslida bu shartnomalar Yaponiyani kamsituvchi noteng shartnomalar edi. Harbiy jihatdan qudratli davlatlarga yon bermaslikning iloji yo'q edi.

Shu tariqa Yaponiyaning siyosiy va iqtisodiy yopiqligi davri tugadi.

«Ma'rifatli boshqaruv» davrining boshlanishi. Chet el davlatlari uchun ochilish Yaponiya iqtisodiga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Chunki Yaponiya bozorlarining chet el tovarlari bilan to'ldirib tashlanishi Yaponiya manufaktura va hunarmandchilik ishlab chiqarishiga katta zarba berdi. Natijada mamlakatda chet elliklarni quvib chiqarishni talab qiluvchilar harakati kuchaydi. Ayni paytda samuraylarning savodxon qismi va ziyolilar Yaponiya chet elliklar uchun yopiq yillarda mamlakat taraqqiyoti AQSH va G'arbiy Yevropa davlatlaridan orqada qolganligini achinish bilan qayd etardilar.

Shuning uchun ular chuqur islohotlar o'tkazish yo'li bilan Yaponiyani zamonaviy davlatga aylantirish haqida o'ylay boshladilar.

Imperator tarafdorlari Yaponiyani modernizatsiya qilish uchun kurashuvchilar harakatidan syogun hokimiyatini tugatish va imperator hokimiyatini qayta tiklash uchun foydalanishga qaror qildilar.

Shu tariqa mamlakatning kuch bilan ochilishi va syogun hukumatining chet davlatlar bilan imzolagan noteng shartnomalari mamlakatda fuqarolar urushi boshlanishiga turtki bo'ldi. Syogun hokimiyatini ag'darish uchun ommaviy harakatning asosiy kuchini samuraylar tashkil etdi. Ularga qishloq va shaharlarning boy hamda o'rta tabaqalari qo'shilishdi. Fuqarolar urushi natijasida syogun hokimiyati ag'darildi.

1867- yilda Tokugava sulolasining oxirgi syoguni imperator Musuxito foydasiga oliy hokimiyatdan voz kechdi. Shu yili unga imperator Meydzi («ma'rifatli boshqaruv») nomi bilan toj kiydirildi.

Meydzi islohotlarining boshlanishi. Yaponiya uchun modernizatsiya davri boshlandi. Hukumat o'z oldiga milliy an'analardan voz kechmagan, mustaqillikni to'la saqlab qolgan holatda g'arb namunasida Yaponiyani zamonaviylashtirish vazifasini qo'ydi. Dastlab agrar islohot o'tkazildi. Bu islohot yerni sotish va sotib olishga, uni xususiy mulkka

aylantirishga ruxsat berdi. Natijada asrlar davomida katta yer egalari uchun mehnat qilib kelgan dehqonlar chek yerga ega bo'ldilar. To'g'ri, yer uchun katta soliq ham belgilab qo'yildi.

Bu soliq qiymati hosildan olinadigan daromad hajmining 50 foiziga teng edi. Shuning uchun ham islohotdan 10 yil o'tgach, yer olgan dehqonlarning atigi 1/3 qismi o'zlariga berilgan yerni qo'llarida saqlab qola oldilar. Qolganlari esa ijarachilarga aylandilar. Shunday bo'lishiga qaramay, islohot qishloq xo'jaligida kapitalizmning rivojlanishini ta'minladi. Ma'muriy sohada o'tkazilgan islohot mahalliy knyazlar hokimiyatini tugatdi. Knyazlar qudratini sindirish uchun dastlab yerlarining bir qismi musodara qilindi. So'ng ular boshqaruv huquqidan ham mahrum etildi. Joylarda hokimiyat imperator tayinlaydigan gubernatorlar qo'liga o'tdi.

Harbiy islohotga ko'ra, Yaponiyada umumiy harbiy majburiyat joriy etildi. Samuraylar avvalgi qiyofasini yo'qotdi. Endi ular doimiy harbiy xizmatda bo'lish imtiyozidan mahrum bo'ldilar. Yevropacha nusxadagi yangi qo'shinning shakllantirilishi belgilandi.

Fransiyadan harbiy mutaxassislar taklif etildi. Qo'shin Yevropadan sotib olingan zamonaviy qurollar bilan qayta qurollantirildi. Garchand qo'shin yevropacha andoza asosida tuzilgan bo'lsa-da, uning mafkurasi yaponcha bo'lib qolaverdi. Chunonchi, qurolli kuchlarda xizmat qiluvchilar ongiga o'z davlatining manfaatlariga sodiqlik, imperatorga muhabbat va o'limni nazar-pisand qilmaslik g'oyalari toqat bilan singdirildi. Bu xususiyatlar «yaponcha milliy ruh»ning qirralari, belgilari deb hisoblandi.

Bundan tashqari, yaponlar ongiga Yaponiyaning quyosh xudosi Amiterasu xohishiga ko'ra paydo bo'lganligi, shuning uchun ham bu davlat Osmon va Yer kabi abadiy mavjud ekanligi, imperatorga xudo Ameterasudek mehribonlik xos ekanligi, uning hech qachon nohaq bo'lishi mumkin emasligi, imperatorga sodiqlik vatanparvarlikning oliy namunasi ekanligi, yaponlarning boshqalardan ustunligi, millatning ulug' vazifasi kabi g'oyalar ham undan-da kam bo'lmagan toqat bilan singdirila borildi. Ayni paytda G'arb davlatlari siquviga qarshi turmoq uchun barcha Osiyo davlatlari Yaponiya imperatori hokimiyati ostiga birlashmoqligining lozimligi haqida g'oyalar ham esdan chiqarilmadi. Bu g'oyalarni yoshlar ongiga singdirishda ibodatxona, qo'shin va maktablarga katta e'tibor berildi.



Bu g'oyalar kelgusida Yaponiyaning Osiyo qit'asida olib borgan keng ko'lamli bosqinchilik urushlarini mafkuraviy jihatdan tayyorlash jarayonida muhim rol o'ynadi.

Iqtisodiy taraqqiyotning yangi xususiyatlari. Meydzi islohotlari mamlakatda feodal tarqoqlikka chek qo'ydi. Natijada yagona yapon ichki bozori vujudga keldi. Mamlakatda yagona pul birligi – iyen joriy etildi. Hukumat ishlab chiqarishni industrilashtirish masalasiga chet davlatlarning Yaponiya ichki ishlariga aralashuvi xavfidan himoya qiluvchi asosiy omil deb qaradi. Shuning uchun ham davlat sanoat korxonalari qurilishlariga homiylik qildi. Asosiy sanoat korxonalari davlat mablag'i hisobiga qurildi, keyinchalik ular imtiyozli asoslarda turli firmalarga sotildi yoki ijaraga berildi. Davlat tadbirkorlikni har tomonlama rag'batlantirdi va qo'llab-quvvatladi. Meydzi islohotlari tarixga «Meydzi inqilobi» nomi bilan kirgan.



Modernizatsiya – zamonaviylashtirish.
Eksterritorial huquq – chet el fuqarolari shaxsining va uy-joyi, mol-mulki daxtsizligi hamda mahalliy davlat sudining ularni sud qila olmasligi.



Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan AQSH va Yevropa davlatlari uchun Yaponiyani «ochilish»ga majbur etish zarur edi?
2. Yaponiyada syogun hokimiyati qay tariqa ag'darildi?
3. Nega imperator Musuxito hukmronligi davri «ma'rifatli boshqaruv» davri deb ataldi?
4. Nega Meydzi islohotlari «Meydzi inqilobi» deb ham ataldi?
5. Meydzi islohotlarining Yaponiya taraqqiyotidagi o'rniga baho bering.

34- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Usmonli turklar imperiyasi



Davlat tuzumi. Usmonli turklar imperiyasi so'z yuritilayotgan davrda ham mutlaq monarxiya edi. Unda o'rta asrlarga xos harbiy davlat belgilari to'la saqlanib qoldi. Davlat boshlig'i huquqi hech narsa bilan cheklanmagan monarx – sulton edi. Aynan uning zulmga

asoslangan hokimiyati va yangilikni qabul qilishga mutlaqo tayyor emasligi jamiyat taraqqiyoti yo'lidagi asosiy g'ovga aylandi.

Hukumatning kundalik ishlarini buyuk vazir boshqargan. Aholining ruhoniylardan boshqa barcha davlat xizmatchilari sultonning quli hisoblangan. To'g'ri, mamlakatda islohatlar o'tkazishga urinishlar ham bo'lgan. Biroq ular mutassib din arboblari va mustamlakachi chet el davlatlarining qarshiligi tufayli amalga oshmay qolavergan.

«Sharq masalasi». XVIII asr oxiriga kelib Yevropaning buyuk davlatlari Turkiya imperiyasining zaiflashib qolganligidan foydalanib, uning mustamlaka hududlariga ko'z olaytirishni kuchaytirdilar. Bu hududlar geografik va siyosiy jihatdan katta ahamiyatga ega, tabiiy boyliklarga, xomashyolarga boy o'lkalar edi.

Buyuk Britaniya, Fransiya, Avstriya va Rossiya hukmron tabaqalarining har biri bu o'lkalardan mumkin qadar ko'proq o'ljani qo'lga kiritishga intildilar. Buyuk davlatlarning Turkiya imperiyasiga qaram o'lkalarga ega bo'lib olish uchun olib borgan o'zaro kurashlari tarixga «Sharq masalasi» degan nom bilan kirgan.

Usmonli turklar imperiyasining parchalanib ketishi birdan-bir adolatli tarixiy hodisa bo'lgan bo'lardi. Biroq, birinchi navbatda, Buyuk Britaniya va Fransiya bu imperiyani saqlab qolishga ham harakat qilganlar. Ular bir tomondan, imperiya xalqlarining milliy-ozodlik harakatini bostirishda sulton hukumatiga yordam ko'rsatgan bo'lsalar, ikkinchi tomondan, imperiyani o'z ta'sirlarida tutishga uringanlar.

Rossiya esa Usmonli turklar imperiyasiga qaram bo'lgan Bolqon yarim orolida mustahkam o'rnatish olishga va Oqra dengizning Bosfor va Dardanell bo'g'ozlarini, shuningdek, Istanbul shahrini qo'lga kiritishga intilgan.

Avstriya Gabsburglari esa Bolqonning Rossiya ta'sirida qolishiga aslo toqat qila olmas edi. Aksincha, uning o'zi ham Bolqonda mustahkam mavqega ega bo'lib olishga intilgan. Bu davlatlar Turkiyada o'rta asr feodal jamiyatining saqlanib qolishidan manfaatdor edilar. Chunki shunday bo'lsagina imperiya iqtisodiy tanazzul holatida qola berardi. Bu esa ularga Turkiyaga o'zlarining bosqinchilikdan iborat rejalarini o'tkazishlarini ta'minlar edi.

Sharq masalasining keskinlashuvi. Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlarida kapitalizmning rivojlanishi yangi-yangi xomashyo o'lkalariga bo'lgan talabni yanada oshirib yubordi. Bu hodisa ularning

Turkiya mustamlakalari uchun kurashini yanada kuchaytirdi. Imperiya xalqlarining milliy-ozodlik kurashidan buyuk davlatlar Turkiya ichki ishlariga aralashish quroli sifatida foydalandilar.

1827- yilda Londonda Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiya o'rtasida Gretsiyaga muxtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim imzolandi. 1828- yilda Rossiya Turkiyaga urush e'lon qildi. Urushda Turkiya armiyasi tor-mor keltirildi. Bu urush 1829- yilda Adrionopol tinchlik shartnomasi imzolanishi bilan tugallandi. Shartnomaga ko'ra, Qora dengizning sharqiy qismi Rossiyaga berildi.

Fransiya esa 1830- yilda Jazoirni bosib oldi. Sulton hukumatining bunday ketma-ket muvaffaqiyatsizligi Misr hukmdori Muhammad Alining bosh ko'tarishiga sabab bo'ldi.

U 1832- yilda sulton qo'shinini tor-mor etgach, Istanbul shahriga yo'l ochildi. Sultonni halokatdan Rossiya saqlab qoldi. Oxirgi maqsadi – birinchidan, Qora dengiz bo'g'ozlarini qo'lga kiritish bo'lgan Rossiya uchun kuchli Muhammad Alidan kuchsiz sulton hokimiyati ma'qul edi. Ikkinchidan, Muhammad Alining g'alabasi uni qo'llab-quvvatlayotgan Fransiyaning ham g'alabasiga teng edi. Bunga yo'l qo'yishni istamagan Rossiya Turkiya sultoniga o'z yordamini taklif qildi.

1833- yilda Rossiya floti Bosfor bo'g'oziga kirdi. Oqibatda Muhammad Ali o'z qo'shinini Misrga qaytarib olib ketdi. Isyonning bostirilishida ko'rsatgan yordami uchun Rossiya Turkiya bilan ittifoqchilik shartnomasi tuzishga muvaffaq bo'ldi. Bu Rossiyaning katta yutug'i edi.

Buyuk Britaniya va Fransiya tabiiyki, bunga toqat qila olmas edi. Endi ular Muhammad Alini qo'llab-quvvatlay boshladilar. Muhammad Ali 1839- yilda sultondan o'z qo'l ostidagi hududlarni boshqarish huquqini meros qoldirishga ruxsat berilishini talab etdi. Bu talab yangi urush boshlanishiga bahona bo'ldi. Urushda sulton qo'shini tor-mor etildi. Bundan buyuk davlatlar Turkiya – Misr munosabatlariga aralashish uchun foydalandilar.

1840- yilda ular Usmonli turklar imperiyasining «hududiy yaxlitligi va mustaqilligini» ta'minlash ustidan nazorat o'rnatish to'g'risida bitim imzoladilar. Natijada Muhammad Ali chekinishga va yon berishga majbur bo'ldi. Ayni paytda u Misr va Sudanni boshqarishni meros qoldirish huquqini qo'lga kiritdi.

Imperiyaning yarim mustamlakaga aylanishi. Buyuk davlatlar Turkiya ichki ishlariga aralashishni tobora kuchaytirdilar. Rossiyaning Turkiyaga qaram o'lkalarda mustahkamlanib olishga urinishlari 1853-yilda Sharq urushini keltirib chiqardi. Bu urush Rossiya tarixiga Qrim urushi nomi bilan kirgan. Rossiya podshosi Nikolay I sultondan Rossiyani Turkiya imperiyasiga qaram o'lkalarda yashovchi barcha pravoslav xalqlarining homiysi ekanligini tan olishini talab etdi. Buyuk Britaniya va Fransiya sultonni bu talabni rad etishga undadilar. Oqibatda Rossiya – Turkiya urushi boshlandi.

Urushda Buyuk Britaniya, Fransiya va Turkiya uchlik ittifoqi g'alaba qozondi. Biroq bu g'alaba Turkiyaning Buyuk Britaniya va Fransiya qaramligini yanada kuchaytirdi. Urush natijasida imzolangan Parij Tinchlik shartnomasi Turkiya ustidan amalda G'arb davlatlarining «homiyligi»ni ta'minladi. Chet elliklarga Turkiyada yer va boshqa ko'chmas mulklar sotib olishga ruxsat etdi. Chet davlatlarga berilgan konsessiyalar kafolatlandi. Shu tariqa Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishiga yo'l ochildi. G'arbiy Yevropada sanoat to'ntarishi tugallanayotgan bir davrda Turkiyada hamon o'rta asr feodal tartiblari hukmronligicha qolaverdi.

G'arb davlatlarining Turkiyaga nisbatan tutgan siyosatlari bu tartiblarni yanada mustahkamladi. XIX asming 60- yillariga kelib mustamlakachi buyuk davlatlar Turkiyada uning siyosatini belgilashga imkon beruvchi iqtisodiy va siyosiy mavqega ega bo'lib oldilar.

Ayni paytda Turkiya moliyaviy qaramlik botqog'iga ham bota boshladi. 70- yillarda uning chet davlatlardan qarzi 2,4 mlrd frankni tashkil etdi. Shu tariqa bir vaqtlar dunyoning 3 qit'asida ham katta-katta mustamlakalarga ega bo'lib olgan Turkiya endilikda Yevropaning buyuk davlatlari yarim mustamlakasiga aylandi.



Konsessiya (lotincha – ruxsat, yon berish) – davlat korxonalarini, mulkini muayyan muddatga chet el kapitaliga berish haqidagi kelishuv shartnoma.



Savol va topshiriqlar

1. Usmonli turklar imperiyasining davlat tuzumi haqida nimalarni bilib oldingiz?

2. «Sharq masalasi» qanday masala edi va u qay tariqa vujudga kelgan?
3. «Sharq masalasi»da Yevropaning buyuk davlatlari o'rtasidagi kurashga baho bering.
4. Usmonli turklar imperiyasi qay tariqa yarim mustamlakaga aylandi?

35- §. XVI–XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Afg'oniston



Mustaqillik uchun kurash. XVI asrdan boshlab afg'onlar Eron safaviylariga qarshi uzoq yillar davomida kurash olib borganlar.

Asosiy savdo yo'llarini 1649- yilda Eron safaviylari egallab oldi va bu holat 1709- yilgacha davom etdi. Eron bosib olgan hududlarda, bir tomondan, afg'on qabilalarini bir-biriga gijgijlash yo'li bilan ularni kuchsizlantirishga uringan bo'lsa, ikkinchi tomondan qabilalar hukmdorlariga turli xil unvonlar va yer-mulklar berish evaziga ular bilan kelishish siyosatini yuritdi.

Biroq bu siyosatdan ko'zlangan maqsadga erishilmagan. Aksincha, afg'on qabilalari o'z mustaqilliklari uchun qattiq kurash olib bordilar.

Biroq bu davrda Eronda hukmron sulola chuqur tushkunlik davrini boshdan kechirayotgan edi.

1709- yilda Qandahor viloyatida Eron bosqinchiligiga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Qo'zg'olonga afg'onlarning gilza qabilasi xoni Mir Vaysxon rahbarlik qildi. Uning harbiy qismi tez orada Qandahor shahrini bosib oldi.

Afg'oniston – Eron munosabatlari. Qisqa vaqt ichida Qandahor qudratli xonlikka aylandi. U 1722- yilda Eron poytaxti Isfahonni ham egalladi va Mir Vaysxonning o'g'li Mir Mahmud o'zini Eron shohi deb e'lon qildi. Endi Eron mustaqillik uchun kurash boshladi. Bu kurashga Eron qo'shini qo'mondonlaridan biri Nodir Quli boshchilik qildi. 1730- yilda Eron afg'on bosqinchilaridan to'la ozod etildi.

1736- yilda Nodir Quli Eron shohi deb e'lon qilindi. U ayni paytda katta bosqinchilik urushlari ham olib bordi. Chunonchi, 1738- yilda Afg'onistonni ham bo'ysundirdi. Afg'onistonni itoatda tutish uchun

Erondan 12 ming jangchini oilalari bilan Kobul va boshqa shaharlarga ko'chirib keltirdi.

Afg'oniston davlatining tashkil topishi. 1741-yilda Nodirshoh vafot etgach, zulmga asoslangan imperiya ham parchalandi. Bu davda Boburiylar imperiyasi yashayotgan bo'lsa-da, amalda u hech qanday kuch-qudratga ega emas edi. Shu tariqa Afg'oniston davlatining tashkil topishi uchun qulay tashqi sharoit yetildi.

1747-yilda afg'onlarning abdali qabilasi boshlig'i Ahmadxonni qabila xonlarining jirg'asi (kengashi) Afg'oniston shohi deb e'lon qildi. Ahmadshoh qisqa vaqt ichida mamlakat hududini bosib olingan o'lkalar hisobiga kengaytira oldi. Bu g'alabalar evaziga u o'ziga «Durri-Duron» unvonini qabul qildi va abdali qabilasining nomini durroniy nomi bilan o'zgartirdi. Markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslik harakati va bosib olingan o'lka xalqlarining doimiy qo'zg'olonlari oqibatida Durroniylar sulolasining hukmronligi zaiflashdi. Ahmadshohning vorislari bu ikki omilga qarshi qanchalik kurashmasinlar, ularni bartaraf eta olmadilar. Ahmadshohning nabirasi Zamonshoh (1793–1801) bobosining harbiy yurishlarini davom ettirishga urinib ko'rdi. Ma'lum darajada bunga erishdi ham.

Durroniylar sulolasi hukmronligining barham topishi. Biroq, Zamonshoh ham ichki o'zaro nizolarni bostira olmadi. Aksincha, uning o'zi ham fitna qurboni bo'ldi. Bu davrda vorislar o'rtasidagi toju taxt kurashi ham avj oldi.

Bundan boshqa qabilalar xonlari foydalanishga urindilar. Chunonchi, barakzaylar yetakchisi Fathxon taxt uchun kurashda hali u vorisni, hali bu vorisni qo'llab, davlatda bosh vazir lavozimini egallab oldi.

U 1809-yildan boshlab butun davlat ishlarini amalda o'z qo'lida to'plashga erishdi. U yirik harbiy sardorlardan biri, ukasi Do'st Muhammadxon yordamiga tayanardi. Ular Afg'onistonning deyarli barcha yirik viloyatlari hokimlarini o'zlariga qarashli kishilardan tayinlanishiga erishdilar.

Uzoq davom etgan o'zaro shafqatsiz ichki kurashlardan so'ng 1826-yilda Do'st Muhammadxon Afg'oniston taxtini egalladi va o'zini amir deb e'lon qildi. Shu tariqa Durroniylar sulolasi hukmronligi barham topdi. Mamlakatda Barakzaylar sulolasi hukmronligi o'rnatildi. Bu sulola hukmdori Amir Do'st Muhammadxon butun Afg'onistonni

yagona davlatga birlashtirishga va uni kuchli davlatga aylantirishga harakat qildi.

Afg'on – Buyuk Britaniya urushi. Afg'oniston geografik jihatdan muhim strategik mintaqada joylashganligi uchun bu davlat hududida Buyuk Britaniya va Rossiya manfaatlari to'qnashdi. Buyuk Britaniya Afg'onistonni o'z ta'sir doirasiga olish maqsadida 1838-yilda Afg'onistonga hujum qildi. Qisqa vaqt ichida Kobul shahrini egalladi. Taxtga Durroniylar sulolasining vakili Shuju o'tqazildi. Biroq erksevar afg'on xalqini bo'ysundirish oson emas edi. 1841-yilda Kobul aholisi qo'zg'olon ko'tardi. Bu qo'zg'olonda Do'st Muhammadxonning o'g'li Akbarshoh katta rol o'ynadi. Buyuk Britaniya qo'shini qo'mondonligi barcha harbiy qismlarini Afg'onistondan olib chiqib ketish to'g'risidagi shartnomani imzolashga majbur bo'ldi.

1842-yilda Buyuk Britaniya qo'shini Afg'onistondan chiqib ketdi. Shu tariqa birinchi afg'on – ingliz urushi Buyuk Britaniya mag'lubiyati bilan tugadi. Do'st Muhammadxonning amirlik hokimiyati qayta tiklandi.

Afg'oniston 1842–1870-yillarda xalqaro munosabatlarda. 1843-yilda «Ost-Indiya» kompaniyasi Hindistonning Sind viloyatini ham bo'ysundirdi. Shu tariqa Britaniya mustamlakalari chegarasi Afg'onistonga tutashdi.

Buyuk Britaniya bilan qayta urushni istamagan Do'st Muhammadxon 1855-yilda ingliz – afg'on do'stlik shartnomasini imzoladi. 1857-yilda Buyuk Britaniya bilan Afg'oniston o'rtasida harbiy shartnoma ham tuzildi. Bu shartnoma Buyuk Britaniya uchun Afg'onistonni vassal davlatga aylantirish yo'lidagi birinchi qadam bo'ldi.

1863-yilda Do'st Muhammadxon vafot etgach, uning o'g'illari o'rtasida toju taxt uchun kurash avj oldi. Hindistonda bo'lib o'tgan sipohilar qo'zg'olonidan cho'chib qolgan Buyuk Britaniya Afg'oniston ichki ishlariga aralashmasligini bildirdi.

Ikkinchi tomondan, O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan istilo qilinishining boshlanganligi ham Afg'oniston uchun xalqaro qulay vaziyat yaratdi. Shunday bir sharoitda, Buyuk Britaniya Rossiya bilan kelishuv yo'lini izladi. Ularning fikricha, Afg'oniston bu ikki mustamlakachi davlatlarning Osiyodagi mustamlakalarini ajratib turuvchi hudud vazifasini o'tashi kerak edi.

1870- yilga kelganda Afg'oniston mustamlaka ham, qaram davlat ham emas edi. Biroq uning chegaralariga janubi-sharqdan Buyuk Britaniya, shimoldan esa Rossiya tobora yaqinlashib kelayotgan edi.



Durri-Duron – javohirlar javohiri.



Savol va topshiriqlar

1. Afg'oniston davlatining tashkil topishi jarayoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qanday sharoitda Durroniylar sulolasi hukmronligi barham topdi?
3. Nega Buyuk Britaniya Afg'onistonni bosib olishga yoki o'ziga vassal davlatga aylantirishga erisha olmadi?
4. Amir Do'st Muhammadxon Buyuk Britaniya va Rossiyaga nisbatan qanday siyosat yuritdi?

36- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Eron



Davlat tuzumi. Eron XIX asrda ham mutlaq monarxiya edi.

Davlat boshlig'i shoh bo'lib, u cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan. Butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. Shoh huzurida maxfiy kengash tuzilgan bo'lib, uning tarkibiga sadr a'zam, amin ad-davla, vazir, hakimboshi va shayx ul-islom kirgan.

Davlat viloyatlarga bo'lingan, ularni beklarbegi boshqargan. Taxt vorisiga Ozarbayjon ham berilgan bo'lib, uning qarorgohi Tabriz shahrida joylashgan edi.

Eronning xalqaro ahvoli. XIX asr boshlariga kelib Eron xalqaro siyosatda muhim o'rin tuta boshladi. Bunga Buyuk Britaniya va Fransiyaning Sharqda hukmronlikni o'z qo'llariga olish uchun boshlagan kurashlari hamda Rossiyaning Kavkazni qo'lga kiritishga intilayotganligi sabab bo'ldi.

Buyuk Britaniya va Fransiya Rossiyaning Kavkazda mustahkamlanib olishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida bu o'lkada katta hududlarni bosib olgan Eronni qo'llab-quvvatlay boshladi. Biroq bu hol Rossiyaning Kavkazga nisbatan siyosatini o'zgartira olmagan.

Aksincha, Rossiya Eron bilan urushda birin-ketin g'alaba qozonib, o'zi uchun qulay shartnomalar tuzilishiga erishgan.

Chunonchi, 1813- yilda bu ikki davlat o'rtasida imzolangan shartnoma Rossiyaga Kavkazda yanada mustahkamlanib olishga imkon berdi. 1826–1828- yillarda bo'lib o'tgan Eron – Rossiya urushida Eron yana yengildi. Ikki davlat o'rtasida imzolangan Turkmanchoy shartnomasiga ko'ra, Rossiyaning Kavkazdagi mavqei yanada mustahkamlandi. Eron esa Kavkazorti hududlarida bo'lgan da'vosidan voz kechdi.

Eronning Buyuk Britaniya bozoriga aylanishi. Rossiya bilan urushdagi mag'lubiyat va uning oqibatlari Eron hukmron tabaqalari o'rtasida keskin norozilik keltirib chiqardi. Oqibatda Eronning qator viloyatlarida yirik yer-mulk egalari boshchiligida shohga qarshi isyon ko'tarildi. Buyuk Britaniya Eronning og'ir ahvolidan foydalanib, 1841- yilda Eronni noteng shartnomani imzolashga majbur etdi. Unga ko'ra, Buyuk Britaniya Eron bilan savdo-sotiq ishlarida katta imtiyozlarga ega bo'lib oldi. Oqibatda u Eron bozorlarini o'z yengil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirib tashladi. Bu esa, o'z navbatida, mahalliy dehqonlarni, hunarmand va savdogarlarni xonavayron qildi. Shu tariqa Eron yirik mustamlakachi Buyuk Britaniyaning sanoat mahsulotlari sotiladigan bozoriga aylanib qoldi. Bu mamlakatda pulga bo'lgan ehtiyojni oshirib yubordi.

Natijada davlat apparatidagi mansablarni sotish va sotib olish nihoyatda kuchaydi. Viloyat hokimlari, katta-katta yer-mulk egalari davlat xazinasiga soliq to'lamay qo'ydi. Bu omillar mamlakat mehnatkash qatlamlari orasida keskin norozilik kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bu esa bobiyalar qo'zg'olonini keltirib chiqardi.

Bobiyalar qo'zg'oloni. Qo'zg'olon shoh tuzumiga, zulmiga va yer egaligiga qarshi qaratilgan edi. Qo'zg'olon ishtirokchilari, asosan, hunarmandlar, mayda savdogarlar, shahar kambag'allari va shahar atrofida yashovchi dehqonlar edi. Qo'zg'olonga quyi tabaqadagi ruhoniylar va bobiylik tarafdorlari bo'lgan savdogarlar boshchilik qilgan.

1848- yilda boshlangan bu qo'zg'olon tarixga bobiyalar qo'zg'oloni nomi bilan kirgan. Chunki qo'zg'olonchilar bobiylik ta'limoti tarafdorlari bo'lgan. Bu ta'limotning asoschisi Sayid Ali Muhammad bo'lib, o'ziga Bob taxallusini qabul qilgan edi. Bobiylik atamasi shu taxallusdan kelib chiqqan.

BILIB OLING

Sayid Ali Muhammad 1819- yilda Sheroz shahrida tugʻilgan boʻlib, mayda savdogarning oʻgʻli edi. 1844- yilda oʻzini Bob, (arabcha – eshik, darvoza) yaʼni, «haqiqat va adolat yoʻliga olib boruvchi eshik», deb atay boshlaydi.

Bobiylik taʼlimoti asosida ilohiy xaloskor (mahdiy)ning kelishi yaqinlashganligi gʻoyasi yotadi. Shu tufayli Bob mahdiyning xohish-irodasi, koʻrsatmalari, yoʻl-yoʻriqlari xalqqa men orqali yuboriladi, deb targʻib qilgan. U «Bayon» nomli kitob yozgan. Kitobda bobiylik harakatining asoslari yoritib berilgan. Bob kitobida oʻzini Muhammad (s.a.v.) oʻrniga kelgan paygʻambar deb, «Bayon» kitobini esa Qurʼoni karim oʻrnini bosuvchi kitob deb eʼlon qilgan.

Bobiylik shaxsni himoya qilish, kambagʻallardan olinadigan soliqlarni bekor qilish, yirik yer egaligini tugatish, barcha mol-mulklarni odamlarga teng taqsimlash kabilarni talab qilganlar. Ayni paytda ular mavjud dini bekor qilish va davlat tuzumini agʻdarib tashlash tarafdorlari boʻlganlar.

Bobiylik qoʻzgʻoloni 1850- yilning oʻrtalarigacha davom etdi. Oxir-oqibatda shoh qoʻshini qoʻzgʻoloni bostirishga muvaffaq boʻldi. Sayid Ali Muhammad esa qatl etildi.

Qoʻzgʻolonning yengilishi sabablari. Bobiylik qoʻzgʻoloni nega magʻlubiyatga uchradi? Uning asosiy sababi bobiylik taʼlimotining islom dini asoslariga zidligi edi.

Bundan tashqari, qoʻzgʻolon puxta uyushtirilmagan, tarqoq holda olib borildi. Shuningdek, qoʻzgʻolon aholining asosiy qismini tashkil etuvchi dehqonlarning katta qismi tomonidan qoʻllab-quvvatlanmadi.

Qolaversa, qoʻzgʻolonchilar qatʼiy harakat qilmadilar. Ular koʻp hollarda bosib olgan shahar yoki qalʼalar bilan cheklanib qoldilar hamda shoh qoʻshinining hujumini kutib turish taktikasini qoʻlladilar.

Eron – Buyuk Britaniya urushi. Buyuk Britaniya Eronning kuchsizlanib qolganligidan foydalanishga qaror qildi. Oʻrta Osiyodagi bosqinchilik maqsadlarida Hirot shahrining katta ahamiyatga ega ekanligini unutmagan Buyuk Britaniya 1853- yilda Eronni rasman Hirotga daʼvosidan voz kechishga majbur etdi.

Biroq 1856- yilda Eron Hirot shahrini bosib oldi. Eronning Hirotni bosib olganligiga javoban Buyuk Britaniya Eronga urush eʼlon qildi. Ikki

davlat o'rtasida boshlangan harbiy harakatda Eron mag'lubiyatga uchradi.

1857- yilda Buyuk Britaniya va Eron o'rtasida Parij Tinchlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga ko'ra, Eron Hirotga va Afg'onistonning boshqa hududlariga bo'lgan da'vosidan butunlay voz kechdi.

Eron – Afg'oniston o'rtasida nizo kelib chiqqudek bo'lsa, bu nizo Buyuk Britaniya vositachiligida hal etiladigan bo'ldi. Parij Tinchlik shartnomasi Buyuk Britaniyaning Erondagi ta'siri sezilarli darajada o'sishiga xizmat qildi.



Sadr a'zam – bosh vazir.

Amin ad-davla – moliya va ichki ishlar vaziri.

Hakimboshi – saroy bosh tabibi.



Savol va topshiriqlar

1. Eronning davlat tuzumi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Qanday omillar Eronning xalqaro ahvoli yomonlashuviga sabab bo'ldi?
3. Qanday omillar hobiyalar qo'zg'olonini yuzaga keltirdi?
4. Bobiy ta'limoti haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Bugungi kun nuqtayi nazaridan bobiylik ta'limotidagi ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlang hamda ularga baho berishga harakat qiling.
6. Eron qay tariqa Buyuk Britaniya ta'sir doirasiga tushib qoldi?

Mustaqil ish

Eron va Usmonli turklar davlati tuzumini taqqoslang. Ular tarixining o'xshash va farq qiluvchi jihatlarini aniqlang. Ishingiz natijasini jadvalda aks ettiring.

37- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Afrika xalqlari



«Qora qit'a». Aholisining katta qismi negr irqiga mansub bo'lganligi uchun Afrika qit'asini qora qit'a deb ham atashadi.

Afrika xalqlari XIX asrda ham ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarida yashashar edi. Chunonchi, Efiopiya, Misr, Tunis, Marokash, Sudan va Madagaskar kabi davlatlarda monarxiya tuzumi

qaror topgan bo'lsa ham ba'zi qabilalar ibtidoiy jamoa tuzumida yashar edilar. Qabilalarning turmush tarzi daydilikdan iborat edi. Ularning kichik-kichik guruhlari o'zlari uchun qat'iy belgilangan hudud chegarasidagina ovchilik va termachilik bilan shug'ullanishgan. Ular qishloq xo'jaligi, metallga ishlov berish va metall ish qurollaridan foydalanish degan narsalarni bilishmagan.

Angolada yashovchi bushmenlar esa tosh davri odamlari kabi hayot kechirishgan. G'arbiy Afrikadagi Gana va Mali davlatlari eng qadimgi davlatlar hisoblangan. Afrikada qishloq xo'jaligi yuksak taraqqiy etgan xalqlar ham yashashgan. Ular, asosan, qahva, yeryong'oq va kakao yetishtirganlar.

Afrikaning bo'lib olinishi. Bitmas-tuganmas boyliklarga ega bo'lgan Afrika Yevropaning buyuk davlatlari e'tiborini tortmay qolmas edi. Yevropa davlatlarining bosqinchiligi Afrika xalqlari hayotini keskin o'zgartirib yubordi. An'anaviy savdo aloqalari uzildi. Mahalliy ishlab chiqarish vayron bo'ldi. Qul savdosi uchun odam ovlash XIX asrning o'rtalarigacha davom etdi. Buning natijasi o'laroq, qit'adan millionlab kishilar ovlanib sotib yuborildi. Portugaliya mustamlakalari bo'lgan Angola va Mozambik eng muhim qul savdosi bazalari edi.

XIX asrning 70- yillaridan boshlab qit'aning ichkari qismini ham mustamlakaga aylantirish boshlandi. XIX asr oxiriga kelib qit'a hududining 90 foizi mustamlakachilar qo'lga o'tdi. Faqat ikki davlat – Liberiya va Efiopiyagina o'z mustaqilligini saqlab qola oldi, xolos.

Liberiya. Xo'sh, Afrikada mustaqil Liberiya davlati qay tariqa tashkil topgan edi? Uning tashkil topishi AQSHda qulchilikka qarshi kurash bilan bog'liqdir. 1816- yilda AQSHda erkinlikka erishgan qora tanli qullarni Afrikaga joylashtirish harakati boshlandi. Natijada, 1821- yilda Gvineya qirg'oqlarida 13 ming km² yer maydoni sotib olindi. U yerda Monroviya (AQSH Prezidenti Monro nomidan olingan) manzilgohi tashkil etildi va Amerikaning sobiq qul negrlaridan bir qismi bu yerga joylashtirildi. Joylashib olgan sobiq qul negrlar manzilgoh hududini tobora kengaytirib bordilar. 1847- yilda esa Liberiya (erkin) davlati tuzilganligini e'lon qildilar.

O'z davlatlarida G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikaning ilg'or andazalaridagi tartib-qoidalarni joriy etdilar. Mamlakat konstitutsiyasi barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini, yashash, erkinlik, xavfsizlik va baxt har bir fuqaro huquqi ekanligini e'lon qildi. Ayni paytda xalq

hokimiyatning manbai ekanligi, e'tiqod erkinligi, matbuot va so'z erkinligi, sudning mustaqilligi tamoyillari ham belgilab qo'yildi. Liberiya Buyuk Britaniya va Fransiya o'rtasidagi raqobat munosabatlaridan ustalik bilan foydalanib, o'z mustaqilligini saqlab qola oldi.

Efiopiya. XIX asrda ham Efiopiyada o'rta asr munosabatlari hukm surardi. U bir necha knyazliklar birikmasidan iborat davlat edi. Ularning har biri o'z qo'shiniga ega bo'lgan. Bu knyazliklar nomigagina markaziy hokimiyatni tan olganlar. Yevropa davlatlari ana shu omildan foydalanishga uringanlar. Mamlakatni chet ellik dushmanlar bosib olish xavfi tobora kuchayib bordi.

Shunday bir sharoitda Efiopiya siyosiy tarixi maydonida kichik yer egasining o'g'li Kasa paydo bo'ldi. U Efiopiyani yagona davlatga birlashtirdi va 1855- yilda o'zini imperator deb e'lon qildi. U yaxshi harbiy tayyorgarlik ko'rgan qo'shin tuza oldi. Yirik feodallarni o'z qurolli kuchlariga ega bo'lish huquqidan mahrum etdi. Mamlakatda iqtisodiyotni ko'tarishga qaratilgan qator islohotlar o'tkazdi. Imperator har bir fuqaroni o'zlari oldin shug'ullangan mehnat faoliyatini davom ettirishga chaqirdi.

Biroq uning islohotlari yirik feodallar va cherkovning qarshiligiga uchradi. Buyuk Britaniyaning aralashuvi bilan 1867- yilda Kasa hokimiyati ag'darildi. Biroq Buyuk Britaniya Efiopiyada mustahkamlanib ola olmadi. Efiopiya xalqining o'zgalarga qaram bo'lmaslik yo'lidagi irodasi Buyuk Britaniyaning harakatlarini yo'qqa chiqardi. Shu tariqa Efiopiya ham o'z mustaqilligini saqlab qoldi.

Janubiy Afrikaning mustamlakaga aylantirilishi. XIX asr boshlarida Buyuk Britaniya Janubiy Afrikadagi gollandlarga qarashli Kap koloniyasini bosib oldi. Koloniya aholisi burlar deb atalardi. Burlar – Janubiy Afrikadagi golland, fransuz, nemis mustamlakachilarning avlodi edi.

Burlar endi u yerdan ko'chishga majbur bo'ldilar. Ular yangi joyda ikkita davlat tuzdilar. Ulardan biri Erkin Oranj Respublikasi, ikkinchisi esa Transvaal deb ataldi. Burlar mahalliy aholiga nisbatan o'ta shafqatsiz munosabatda bo'ldilar. Buyuk Britaniya bu ikki davlatning paydo bo'lishini istamasa-da, 1852- yilda Transvaalni, 1854- yilda esa Erkin Oranj Respublikasini vaqtincha bo'lsa-da, tan oldi.

Fransiya mustamlakalari. Misrda XVIII – XIX asrlar chegarasida mamluk jangchilar (asosan, qullikka tushirilgan Gruziya va Shimoliy Kavkaz

aholisi) va mahalliy aholi mamlakatga bostirib kirgan Napoleon Bonapart boshchiligidagi fransuz qo‘shiniga qarshi kurashda qatnashdi. Fransuz qo‘shinlarining qolgan-qutgani taslim bo‘lganidan keyin misrliklar Buyuk Britaniya qo‘shinini haydab chiqarish uchun kurashdilar. Rasman Misr Usmonli turklar imperiyasining oliy hokimiyati ostida bo‘lsa-da, amalda deyarli to‘la mustaqillikni saqlab qolgan edi. Fransiya 1830- yilda Jazoirmi bosib oldi. Jazoir aholisi fransuz mustamlakachilariga shiddatli qarshilik ko‘rsatdi. Istilochilarga qarshi milliy-ozodlik kurashini olib bordi. Bu kurashda jazoirliklar yo‘lboshchisi Abdulqodir alohida rol o‘ynadi.

1847- yilda Abdulqodir qo‘shini qurshab olindi va tor-mor etildi. Abdulqodirning o‘zi halok bo‘ldi.

Biroq, milliy-ozodlik kurashi to‘xtab qolmadi. Jazoirliklar yana necha o‘n yillar davomida istilochilarga qarshi partizanlar urushi olib bordilar.

Marokash aholisi mamlakat ichkarisiga kirib borgan portugal, ispan va fransuz mustamlakachilariga muvaffaqiyatli ravishda qarshilik ko‘rsatdi. Hind okeanida Fransiya Madagaskar orolini bosib olishga bir necha bor urinib ko‘rdi, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Mustamlakachilar Afrikaning harbiy-texnika jihatdan qoloqligidan, uning xalqlari tarqoq ekanligidan, qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlardan ustalik bilan foydalandilar. XIX asrning 70- yillarida Afrikaning ichkarisidagi katta maydonlar hali yevropaliklarga deyarli noma‘lum edi. Bu hududlarning buyuk davlatlar o‘rtasida mustamlaka sifatida taqsimlanishi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida tugallandi. Bu haqida IX sinfda bilib olasiz.



Savol va topshiriqlar

1. Afrika qit‘asi xalqlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda boshqa qit‘a xalqlaridan orqada qolib ketganligi sabablari haqidagi o‘z mulohazalaringizni daftaringizga qayd eting.
2. Afrika qay tariqa mustamlakaga aylantirildi?
3. Afrika xalqlarining milliy-ozodlik harakatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mustaqil ish

Afrika va Lotin Amerikasining mustamlakalarga aylantirilishi va ularning milliy-ozodlik kurashi jarayonini taqqoslang.

VI BOB. IJTIMOYIY HARAKATLAR

38- §. Yevropada XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda ijtimoiy harakatlar



G'arbiy Yevropada ijtimoiy harakat. Ijtimoiy harakat deyilganda, jamiyatning mehnatkash aholisi katta qismining ehtiyojlari va manfaatlari yo'lida ixtiyoriy ravishda xizmat qilish tushuniladi. Bunday harakat barcha zamonlarda mavjud bo'lgan. Ular bir-biridan mazmun va maqsadiga ko'ra farq qilgan. Ana shunday harakatlardan biri sotsialistik harakat edi. Bu harakat tarafdorlari sotsialistlar, ular orzu qilgan va kurashgan kishilik jamiyati esa sotsializm yoki sotsialistik jamiyat deb atalgan.



Sotsialistlar jamiyatdagi xususiy mulkni umumxalq mulkiga aylantirish orqali kishilarga erkinlik, tenglik, farovonlik va baxt-saodat beradigan jamiyatni sotsialistik jamiyat deb hisoblaganlar. «Sotsializm» atamasi XIX asrning 30- yillarida Fransiyada paydo bo'lgan.

Sotsialistik jamiyat tarafdorlari xususiy mulksiz jamiyatni adolatli jamiyat deb ham hisoblaganlar. Xo'sh, sotsialistik jamiyat haqidagi ta'limot qanday vujudga kelgan? Siz o'qib-o'rgangan tarix darsliklaringizda mehnatkash xalqning ahvoli og'ir kechganligini, ularning xor-zorlikda yashaganliklarini bilib oldingiz. Dastlab Yevropada tarkib topgan kapitalizm jamiyati ham bundan xoli bo'lmagan. Binobarin, insoniyat bugungi to'kin-sochin hayotga osonlikcha erishgan emas.

Fabrika, zavod, shaxta va ruda konlarida kunlik ish vaqti 12–15 soatni tashkil etgan. Ularning egalari – kapitalistlar ishchilarni ekspluatatsiya qilishni tobora kuchaytirganlar. Ishchilarga juda kam ish haqi to'laganlar. Xotin-qizlar va hatto yosh bolalarning mehnatidan ham keng foydalanganlar. Ish haqini esa katta yoshdagi erkak ishchilarga nisbatan juda kam to'laganlar. Mehnatni muhofaza qilish choralari ko'rilmagan. Natijada ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida mayib-majruh bo'lib qolish holatlari borgan sari ko'payib borgan. Buning ustiga, fabrika ishlab chiqarishining o'sishi bilan hunarmandlar xonavayron bo'lganlar. Ishsizlik kuchaygan, ishchilarning ahvoli tobora yomonlashgan. Iqtisodiy inqiroz yillarida esa ishchilar

va hunarmandlarning qashshoqligi yanada kuchaygan. Bu hodisalar ilg'or kishilarni xususiy mulkdan, yollanma mehnatga asoslangan ishlab chiqarishdan va uni vujudga keltirgan jamiyatdan hafsalarini pir qilgan. Mehnatkash xalqning og'ir ahvoli ularni tashvishlantirgan, qayg'uga solgan va adolatli jamiyat haqida o'ylashga majbur etgan. O'zlari adolatli deb hisoblagan jamiyatning belgilari va unga erishish yo'llari haqidagi qarashlarini ilgari surganlar.

Yevropada bunday g'oyalarni ilgari surgan kishilar utopik sotsialistlar deb, ularning ta'limoti esa utopik sotsializm deb atalgan.

Utopik sotsializm. Utopik sotsializmning G'arbiy Yevropadagi yirik vakillari fransiyalik Sen-Simon, Sharl Furiye va buyuk britaniyalik Robert Ouenlar edi. Ular o'zlari yashayotgan jamiyatning illatlarini va adolatsizligini ayovsiz tanqid qildilar. Utopik sotsialistlar badavlat tabaqalarning hokimiyatini, ularning shafqatsizligini va ochko'zligini hamda bosqinchilik urushlarini qoraladilar. Hukmron tabaqalarni xususiy mulkchilik o'rniga umumiy mulkchilikni joriy etishga, jamiyat boyligini adolatli taqsimlashga, bosqinchilik urushlariga chek qo'yishga va shular orqali mehnatkash xalqning kulfatlariga barham berishga da'vat etdilar. Mulkdor hukmron tabaqalar mehnatkashlarga jabr-zulm o'tkazish axloq va adolatdan emas, deb nasihat qildilar.

Sh. Furiye mavjud adolatsiz jamiyat o'rniga mehnat jamoalariga asoslangan jamiyat qurishni taklif etdi. U bunday jamoani falanga deb atadi. Falangada mehnatga yaroqli barcha kishilar mehnat qilishlari shart edi. Ular birgalikda sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishlari hamda umumiy uyda yashashlari zarur edi. Shunday qilingandagina mehnat quvonch va zavq manbaiga aylanardi.



33- rasm. R. Ouen.

R. Ouen esa katta mulkdor bo'lganligi uchun o'z fabrikasida ishlayotgan ishchilarning ish vaqtini qisqartirdi, ularga yaxshi mehnat sharoiti yaratib berdi hamda yaxshi ish haqi to'ladi. Ishchilarning bolalari uchun yasli va

bog'chalar ochdi. Keksalarga esa pensiya tayinladi. U boshqa mulkdorlar ham mendan namuna oladi, deb o'ylagan edi. Biroq uning o'ylari puch bo'lib chiqdi. Sen-Simon, Sh. Furye va R. Ouenlar orzu qilgan adolatli jamiyatni ular taklif etgan yo'l, ya'ni mulkdor tabaqalarni insofqa chaqirish yo'li bilan qurib bo'lmas edi. Shuning uchun ham ularni utopistlar, ya'ni xayolparastlar, ular orzu qilgan adolatli jamiyat esa utopik (xayoliy) sotsializm deb atalgan.

Germaniya utopik sotsialistlari. Germaniya utopik sotsializmining namoyandalari Karl Marks va Fridrix Engelslar edi. O'z o'tmishdoshlaridan farqli o'laroq, ular kapitalizmni kuch bilan ag'darib tashlash g'oyasini ilgari surganlar. Bu vazifani kapitalistik korxonalarda yollanib ishlayotgan proletariat – ishchilar sinfi bajarishi kerak edi. K. Marks va F. Engels ta'limoti o'z o'tmishdoshlari ta'limotidan qanchalik farq qilmasin, baribir u ham utopik ta'limot edi. Chunki xususiy mulksiz biror-bir aqlga mos keluvchi jamiyatning yashashi mumkin emasligini hatto Siz guvoh bo'lib turgan hozirgi XXI asr voqeligi ham tasdiqlab turibdi.

Rossiyada ijtimoiy harakat. Rossiya imperiyasidagi ijtimoiy harakatning yetakchi arboblari V. Belinskiy va A. Gersenlar edi. Ular XIX asrning 40–50- yillarida ijod qildilar. V. Belinskiy podsho hokimiyati va krepostnoylikni tugatish lozim, deb hisobladi. Jamiyatga aql-idrokka va adolatga mos keluvchi qonunlar kerakligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surdi. Podsholik hokimiyatiga va krepostnoylikka qarshi kurash xalq orasida ma'rifat tarqatishdan boshlanishi kerak, deb hisobladi.

A. Gersen ham barcha mehnat qiladigan jamiyatning tarafdori bo'lgan. Uning fikricha, Rossiyadagi dehqonlar jamoasi sotsializmning asosi bo'lishi lozim edi. Dehqonlarga ajratib berilgan yer o'sha qishloq jami aholisining mulki hisoblanardi. Bu yer vaqti-vaqti bilan dehqon xonadonlari o'rtasida oiladagi erkaklar soniga qarab qayta taqsimlanishi, o'rmon, yaylov va suv jamoaning umumiy mulki bo'lishi lozim edi.



Utopiya (yunoncha – xayoliy, yo'q joy) – XVI asrda Angliyada yashab ijod qilgan Tomas Mor yozgan «Utopiya» kitobining nomidan olingan. T. Mor xususiy mulkchilik bo'lmagan orol haqida yozgan va uni utopiya deb atagan.



Savol va topshiriqlar

1. «Ijtimoiy harakat» tushunchasiga izoh bering.
2. Turli xil maqsad va yo'nalishdagi ijtimoiy harakatlarning paydo bo'lishiga nimalar sabab bo'lgan edi?
3. Nega Fransiya va Buyuk Britaniya sotsialistlarining qarashlari utopik sotsializm deb atalgan?
4. Utopik sotsialistlar qanday jamiyatni adolatli jamiyat deb hisoblaganlar?
5. Germaniya utopik sotsialisti K. Marks qanday g'oyalarni ilgari surgan?
6. V. Belinskiy va A. Gersen faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?

Mustaqil ish

Quyidagi jadvalni to'ldiring:

T/r	Utopik sotsializm	Orzu qilgan jamiyatlarining nomi	Bu jamiyatning yashash shakli	Bu jamiyatni qurish yo'li	Nega ular utopik xarakterda edi
1.	Fransuz utopik sotsializmi.				
2.	Ingliz utopik sotsializmi.				
3.	Nemis utopik sotsializmi.				
4.	Rossiya utopik sotsializmi.				

VII BOB. XVII–XIX ASRLARNING 60- YILLARIDA ILM-FAN, ADABIYOT VA SAN'AT

39- §. Ilm-fan taraqqiyoti



Aniq fanlar daholari. XVII–XVIII asrlarning boshlarida aniq fanlar sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Bu muvaffaqiyatlar, birinchi navbatda, ingliz olimi I. Nyuton (1642–1727) va nemis olimi G. V. Leybnis (1646–1716) nomlari bilan bog'liq. I. Nyuton 14 yoshga kirganida fan uning asosiy mashg'ulotiga aylandi. Uning fizika fani taraqqiyotiga qo'shgan hissasi butun olam tortishish.

mexanik harakat va nurning tarqalish qonunlarini kashf etganligi bilan belgilanadi.

Topshiriq

Bu uch qonunning mazmuni va ahamiyatini fizika o'qituvchingizdan so'rab bilib oling.


I. Nyuton 1671- yilda shisha linzani, eng katta teleskoplardan ko'ra osmon jismlarini yaxshiroq ko'rsatadigan kichkina oynali teleskop ham ixtiro qildi. Shu tariqa olim yulduzlar olamini odamlarga yanada «yaqinlashtirdi». Fan sohasida erishgan katta muvaffaqiyatlari uchun 30 yoshga ham to'lmagan I. Nyuton Qirollik jamiyati a'zosi (akademik) etib saylandi.

G. V. Leybnis 15 yoshida universitet talabasi bo'ldi. U faylasuf, matematik va tarixchi olim bo'lib yetishdi.

1700- yilda Berlin Fanlar akademiyasiga asos soldi va uning birinchi prezidenti etib saylandi. U: «umumiy, zaruriy bilimning asosi faqat aql bo'lishi mumkin», – deb yozgan edi. Fizikada «yetarli asos qonuni»ni birinchi bo'lib izohlab berdi. Matematikada esa differensial va integral hisoblashni kashf etdi. Katta sonlarni hisoblash mashinasini, mayatnikli soatni yaratdi.

M. V. Lomonosovning ilm-fanga qo'shgan hissasi. Rossiya ilm-fani va madaniyatini M. Lomonosovsiz tasavvur etish mumkin emas. Buyuk rus shoiri A.S. Pushkin u haqda bunday deb yozgan edi: «Tarixchi, notiq, mexanik, kimyochi, minerolog, rassom va shoir. U hamma narsani sinab ko'rgan va hamma narsani o'rgangan».

M. Lomonosov Moskvadagi Slavyan-yunon-lotin akademiyasida o'qidi. So'ng Germaniya universitetlarida kimyo va metallurgiya fanlaridan ta'lim oldi. Vatanga qaytgach, Peterburg Fanlar akademiyasida ishlay boshladi. M. Lomonosov yangi



34- rasm. M. V. Lomonosov.

fan – fizikaviy kimyo faniga asos soldi. Mamlakatda birinchi kimyo laboratoriyasini tashkil etdi.

Ilmiy kashfiyotlari uni butun Yevropaga tanitdi. M. Lomonosov Shvetsiya va Bolonya Fanlar akademiyalarning faxriy a’zoliciga saylangan edi.

Fanning boshqa sohalaridagi kashfiyotlar. Yerosti foydali qazilmalariga talabning tobora ortib borishi yer qobig’i xossalari o’rganish zaruratini vujudga keltirdi. Natijada qator tog’ jinslarining vujudga kelish jarayoni aniqlandi. Bu esa Yer haqidagi fan – geologiyani rivojlantirishga imkon berdi.

Meditsina (tibbiyot) sohasida ham muhim kashfiyotlar amalga oshirildi. Chunonchi, XVII asrda golland olimi A. Levenguk 300 marta kattalashtirib ko’rsatadigan mikroskop yaratdi. Bu esa inson tanasi, o’simliklar, hayvon dunyosi tuzilishini batafsil o’rganish va bakteriyalar (juda mayda organizmlar)ni aniqlash imkonini berdi. Keyinchalik mikroskop yordamida ko’pgina bakteriyalarning ko’p kasalliklarga sababchi ekanligi isbotlandi.

XVIII asrda ingliz shifokori E. Jenner odamga chechak kasali sigirdan yuqsa uning yengil o’tishini, so’ngra bu kasalni yuqtirgan kishiga chechakka qarshi immunitet paydo bo’lishini, ya’ni unga chechak kasali boshqa yuqmasligini aniqladi. Ana shu kuzatishlarga asoslanib, Jenner chechakka qarshi emlash usulini kashf etdi. Bu esa millionlab kishilarning hayotini saqlab qoldi.

Matematikaning muvaffaqiyatlari, Nyuton kashfiyotlari va teleskopning takomillashtirilishi XIX asrda astronomiyani rivojlantirishga qudratli turtki berdi. Minglab ilgari ma’lum bo’lmagan yulduzlar kashf etildi.

1846- yilda osmonni teleskop orqali kuzatish yordamida Neptun sayyorasi kashf etildi. Quyosh va Oy tutilishlarining muddatlarini aniqroq hisoblab chiqish va oldindan aytib berish ham ilm-fan qudratining yaqqol dalili bo’ldi. Ilgari Quyosh va Oy tutilishi xurofotchilarni dahshatga solar edi. Astronomiya ma’lumotlaridan kalendar (taqvim), geografik xaritalar tuzishda, dengiz kema qatnovida foydalanildi. Astronomiya odamlarning dunyoqarashiga ham katta ta’sir ko’rsatdi.

1842- yilda ingliz fizigi D. Joul va nemis fizigi Y. Mayer tajribalar yo’li bilan energiyaning saqlanish qonunini asoslab berdilar. Kimyoviy

elementlar atom og'irligining ortib borishi tartibida joylashtirilsa, ularning xossalari davriy tarzda takrorlanishi aniqlandi. Shu qonunga asoslanib buyuk rus olimi D. I. Mendeleyev 1869- yilda elementlarning davriy tizimini yaratdi.

Transport va aloqa. XIX asr transport sohasida temir va bug' asri bo'lib qoldi. 1840- yilda jahon mamlakatlarida barcha temiryo'llarning uzunligi 7700 km ni tashkil etardi. Uning katta qismi Buyuk Britaniya va AQSH hissasiga to'g'ri kelardi. XIX asr 40- yillardan temiryo'l qurilishi Germaniya va Fransiya ham boshlandi. 1870- yilga kelib jami 200 ming km temiryo'l qurilgan edi.

XIX asrning 20- yillaridan bug' mashinalari bilan harakatga keltiriladigan g'ildirakli daryo paroxodlaridan keng foydalanila boshlandi. Keyinroq, 30- yillarning oxirlaridan g'ildirakli paroxodlar okean orqali Hindiston va Amerikaga qatnay boshladi. Bora-bora g'ildiraklar o'rmini eshkak vintlar egalladi. 50–60- yillarda G'arb mamlakatlarida yelkanli dengiz floti o'z o'rmini paroxodlarga bo'shatib bera boshladi. Aloqa vositalari ham takomillashtirildi. Elektr simli telegraf kashf etildi. Morze alifbosi ixtiro qilindi va harf bosuvchi qurilmalar yaratildi. XIX asrning o'rtalarida quruqlikdagi telegraf liniyalardan tashqari suv osti kabellari ham yotqizila boshlandi. Buyuk Britaniyadan Amerikaga Atlantika okeani tubi orqali dastlabki telegraf kabeli 60-yillarning oxirida o'tkazildi. Telegrafning vujudga kelishi elektrdan amalda foydalanishning asosiy sohasi bo'ldi. Texnika muvaffaqiyatlari XVIII asrning ikkinchi yarmida va XIX asrda mehnat unumdorligini g'oyatda oshirish imkonini berdi.



Akademik (fransuzcha) – yuksak ilmiy unvon.

Sayyora – quyosh atrofida aylanuvchi va undan tushgan yorug'likni aks ettiruvchi osmon jismi.



Savol va topshiriqlar

1. I. Nyuton fizika fani taraqqiyotiga qanday hissa qo'shdi?
2. Rossiya olimlari jahon fani va texnikasi taraqqiyotiga qanday hissa qo'shdilar?
3. G'arbiy Yevropada astronomiya, fizika va matematika fanlari sohasida buyuk allomalar ijod qilgan XVII–XIX

asrlarda nega yurtimizdan fanlarning shu sohalari bo'yicha birorta mashhur alloma chiqmaganligini qanday izohlaysiz?

4. «Sanoat to'ntarishi nihoyasiga yetdi» iborasi mazmunini izohlab bering.

Mustaqil ish

Quyidagi jadvalni to'ldiring:

XVIII–XIX asrlarda (1870- yilgacha) fanning asosiy yutuqlari

Matematika	Kinyo	Fizika	Astronomiya	Geologiya	Biologiya va tibbiyot

40- §. Adabiyot va san'at



Adabiyot. Bu davrning ko'zga ko'ringan ma'rifatchi yozuvchilaridan biri **Daniel Defo** (1660–1731) edi. Uning «Robinzon Kruzoning hayoti va g'aroyib sarguzashtlari» asari hamon sevib o'qiladi. Shotlandiyalik dengizchi A. Selkrikning kimsasiz oroldagi 4 oyga yaqin sarguzashtlari yozuvchining qalamida 28 yillik g'aroyib sarguzasht bayoniga aylangan.

D. Defoning qahramoni Robinzon Kruzo ishbilarmon, mehnatsevar, o'z kuchiga ishonuvchi inson.

Robinzon kimsasiz orolda tirishqoqlik bilan uy quradi, idish-tovoq tayyorlaydi. Mebel yasaydi, hayvonlarni o'ziga o'rgatadi va ularni ko'paytiradi. Robinzon boshqalarni ham ishlashga majbur qila oladi. Bunga o'limdan qutqarib qolingan yovvoyi Jumavoy obrazi misoldir. Robinzon uni o'ziga xizmatkor qilib oladi. Robinzon – yangi shakllanayotgan qatlam – burjuaziya vakili obrazidir. Unda uchinchi tabaqa vakilining uddaburonligi va sog'lom fikri aks etgan. Asar mehnat, aniq insoniy fikr, tirishqoqlik va jasorat madhiyasi bo'lib qoldi.

Bu davrning yana bir mashhur yozuvchisi **J. Svift** (1667–1745) edi. 1726- yilda uning Sizga ma'lum «Gulliverning sayohati» nomli romani bosmadan chiqdi. Romanda liliputlar mamlakatini «Olamning quvonchi va dahshati» deb ataluvchi ushoqdekkina bir maxluq boshqaradi.

Liliput – aslida ingliz cheklangan (konstitutsiyaviy) monarxiyaning, «Olamning quvonchi va dahshati» esa ingliz qirolining karikaturasi edi. Asardagi «Ulkanlar mamlakati»ning ma’rifatli monarxi esa dono, saxiy. U olim, urushni qoralovchi, san’atni sevuvchi, ilm-fanga homiylik qiluvchi, ayni paytda, aqlli tartib o’rnatishga harakat qiluvchi hamdir.

Fransuz yozuvchisi **P. Bomarshe** (1732–1799) ma’rifat asrining so’nmas vakillaridan biri edi. U mashhur «Figaroning uylanishi» komediyasining muallifidir. Asar qahramoni Figaro chaqqon, yoqimtoy va hazilkash xizmatkor. U «dunyo zo’rlari»ning kirdikorlarini masxara qilib hazillashadi. Jahldorlardan qo’rqmaydi. Qashshoq bo’lsa-da, o’zining insoniy qadrini sotmaydi.

Komediya Parij teatrlarida katta shuhrat qozondi. Figaroning mavjud tuzum kirdikorlarini fosh qiluvchi o’tkir so’zlari hech kimni befarq qoldirmagan. Hatto, qirol Lyudovik XVI bu asar haqida g’azab bilan: «Buni sahnada qo’yish uchun Bastiliyani vayron qilish kerak!», deb xitob qilgan edi. Bu go’yo bir bashorat edi. Chunki bu xitoblardan bir necha yil o’tgach qirolning bu mahbuslar zindoni – Bastiliya inqilob natijasida qulaganligiga tarix guvoh.

Yana bir ajoyib yozuvchi **F. Shiller** (1759–1805) Germaniyada ijod qildi. Bu davrda Germaniya 300 ga yaqin mayda-mayda knyazliklarga bo’linib ketgan edi. U yozgan pyesalar nemis xalqi uchun o’ziga xos ma’rifat alifbosi vazifasini o’tadi. Teatr o’rindiqlarini to’ldirib o’tirgan tomoshabinlar yoqib qolgan qahramonlari bilan birga zulmdan ozod bo’lishni orzu qilganlar. Tomoshabinlar obro’li, aslzodalarning, aslida esa muttahaamlarning ayyorligidan g’azablanganlar. Oshiq qalblarning halokatiga esa achchiq-achchiq yig’laganlar.

Asar qahramonlaridan biri Karl Moor o’zi yashayotgan dunyoning bezagi va pastkashligiga qarshi urush e’lon qilib bunday deydi: «Menga xuddi o’zimdek bir necha shoir kishilarni beringlar va Germaniya



35- rasm. D. Defo.

Respublika bo'ladi». U insonning erki va qadriyatini quyidagi satrlarida himoya qilgan:

*Inson qahrliroq siz o'ylagandan,
Asrlik uyquning yo'lin buzib u
O'zining huquqini so'rar qaytadan.*

Bu davrda yana bir mashhur nemis shoiri **I. Gyote** (1749–1832) yashadi va ijod qildi. U o'zining «Faust» deb ataluvchi mashhur asarini avlodlarga meros qilib qoldirdi. «Faust» jahon adabiyotidagi shoh asarlardan hisoblanadi. Shoir bu falsafiy asarni 60 yil davomida yaratdi. Asar inson kurashining buyukligini tasdiqlaydi va ma'rifat asrini yakunlaydi.

Keksayib qolgan Faust mangu haqiqatni anglashga yetib keladi va bunday deydi:

*Faqat shu munosib hayot va erkka,
Kim har kun ular-chun kurashga kirska.*

Onore de Balzak. XIX asrning birinchi yarmida ijod qilgan yozuvchilardan biri fransiyalik Onore de Balzak (1799–1850) edi.

U burjuaziya jamiyatini haqqoniy tasvirlashda beqiyos yozuvchi bo'lgan. Balzak o'z asarlarini «Insoniy komediya» degan umumiy nom ostida yaratdi.

Uning maqsadi badiiy obrazlar orqali jamiyatning ma'naviy qiyofasini ochib berishdan, jamiyatdagi barcha tabaqalarning tipik vakillarini ko'rsatishdan iborat edi.

Balzak romanlarining qahramonlari jinoyatlar evaziga o'z boyliklarini ko'paytirayotgan bankirlar va savdogarlar, berahm va shafqatsiz sudxo'rlar, o'z hayotini behuda o'tkazayotgan mansabparast va shuhratparast kishilar – o'z maqsadlariga har qanday vositalar bilan erishadigan kishilardir. Balzak asarlari burjuaziya jamiyatiga qarshi o'ziga xos aybnoma edi.

Aleksandr Sergeyevich Pushkin. XIX asrning yana bir yirik ijodkori, rossiyalik A.S. Pushkin (1799–1837) edi. U Moskva shahrida tug'ildi. Peterburg litseyida o'qib ta'lim oldi.

Pushkin rus adabiy tilining shakllanishiga ulkan hissa qo'shgan yozuvchi va shoir. U Rossiyada krepostnoylik zulmi kuchaygan, erkin fikrli kishilarni

ta'qib etish avj olgan davrda yashadi. A. S. Pushkin podshoning mustabid hokimiyatini ag'darish uchun kurashgan dekabristlarga xayrixohlik bildirdi. O'z she'rlarida zulm va krepostnoylikni qoraladi. Bu esa podsho va hukmron tabaqalarda norozilik uyg'otdi. Shu tufayli u bir necha marta surgun qilindi. Pushkinning rus adabiyoti oldidagi xizmatlari buyuklashgan va ijodiy faoliyati yangi-yangi qirralar kasb etib borgan sari uning atrofidagi qora kuchlar bir-birlari bilan birlasha va faollasha boshladilar.


Ular turli ig'volar tarqatib, oxir-oqibatda u bilan Fransiya elchisining o'g'li J. Dantes o'rtasida duel uyushtirishga erishdilar. Ulug' shoir duelda halok bo'ldi.

Yevropaning mashhur musiqachilari. Bu davrning mashhur musiqachilari: nemis kompozitorlari I. Bax (1685–1750), V. Motsart (1756–1791) va L. Betxoven (1770–1828)lar edi. Baxning xor, solistlar va orkestr uchun yozgan ulkan asari «Matveyning uqubatlari» deb ataladi. Unda Isoning shogirdi Matvey hikoya qilib bergan Isoning uqubatlari tarannum etilgan. Injildagi rivoyat asosida Bax odamlarni qutqarish uchun o'zini qurbon qilgan qahramon dramasini bayon etgan.

V. Motsartni zamondoshlari «XVIII asrning haqiqiy mo'jizasi» deb atashgan. Haqiqatan ham shunday. Chunonchi, u 3 yoshidan boshlab musiqa o'rgana boshlagan. 5 yoshida o'zining birinchi konsertini yozgan. 12 yoshida yozgan operasi Milan (Italiya) teatrida qo'yilgan. 14 yoshida esa Italiyadagi eng obro'li musiqa akademiyasining a'zosi etib saylangan.

1786- yilda yuqorida nomi qayd etilgan Bomarshening «Figaroning uylanishi» komediyasiga bastalangan opera qo'shiqlari va musiqasi mashhur bo'lib ketdi. Uning so'nggi asari «Rekviyem» (Sokinlik) edi. U cherkovlarda marhumning xotirasiga bag'ishlab ijro etiladigan hayot va o'lim, inson qismati haqidagi asardir.

Betxoven ayanchli hayot kechirdi. U eshitish qobiliyatini deyarli yo'qotgan edi. Shunday bo'lsa-da, kompozitor taslim bo'lmadi. U mashaqqatli ijod yo'lida o'zi bilan o'zi kurash olib bordi. Natijida Betxoven barchani hayratga soladigan musiqalar yaratdi.



36- rasm. V. A. Motsart.

Ular ichida «Fantaziya yo'lida sonata» va «Qahramonnomasi simfoniya»si kabi asarlari, ayniqsa, mashhurdir. Simfoniya markazida bo'ysunmas, isyonkor, taqdirning hech qanday zarbasi ham sindira olmaydigan jasur, qo'rqmas inson obrazi turadi.



Savol va topshiriqlar

1. «Robinzon Kruzoning hayoti va g'aroyib sarguzashtlari» asarida qanday g'oyalar ilgari surilgan?
2. Nega P. Bomarshening «Figaroning uylanishi» komediyasi hukmron tabaqalar g'azabiga sabab bo'lgan?
3. Onori de Balzak ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. A. S. Pushkin hayoti va ijodi haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Nima sababdan buyuk musiqachilar I.Bax, Motsart va Betxovenlar asarlari hamon mashhurligini saqlab kelmoqda?

Mustaqil ish

Yangi tarixning birinchi davridagi (XVI – XIX asrning 60- yillari) asosiy voqealarining sinxronik jadvalini tuzing.

MUHIM TARIXIY SANALAR

- 1492-yil 12- oktabr** – Amerika qit’asi kashf etildi.
- 1498- yil** – Hind okeaniga boradigan **dengiz** yo’li ochildi.
- XIV-XVII asrlar** – Yevropada Uyg’onish davri.
- 1502- yil** – Eronda Safaviylar sulolasi hukmronligi o’rnatildi.
- 1517- yil** – Germaniyada reformatsiyaning boshlandi.
- 1521- yil** – Rusni yogona davlatga birlashtirish nihoyasiga yetkazildi.
- 1526- yil** – Hindistonda Boburiylar imperiyasiga asos solindi.
- 1565- yil** – Oprichninaning joriy etilishdi.
- 1588- yil** – «Yengilmas armada»ning halokati.
- 1600- yil** – «Ost-Indiya» kompaniyasi tashkil etildi.
- 1605- yil** – Avstraliya kashf etildi.
- 1609 yil** – Niderlandiya mustaqillikka erishdi.
- 1613 yil** – Rossiyada Romanovlar sulolasi hukmronligi o’rnatildi.
- 1636- yil** – Xitoyda manjurlar hukmronligi o’rnatildi.
- 1642- yil** – Angliyada burjuaziya inqilobi boshlandi.
- 1653- yil** – O.Kromvel protektorati o’rnatildi.
- 1688- yil** – Angliyada monarxiya qayta tiklandi.
- 1716- yil** – Angliyada professional parlament tuzildi.
- 1721- yil** – Rossiya imperiyasi tashkil topdi.
- 1733- yil** – Dunyoda birinchi to’quv mashinasin yaratildi.
- 1736- yil** – Eronda Nodirshoh hokimiyati o’rnatildi.
- 1747- yil** – Afg’oniston davlati tashkil topdi.
- 1776- yil** – AQSH tashkil topdi.
- 1789- yil** – Buyuk fransuz inqilobi boshlandi.
- 1796- yil** — Eronda Qojarlar sulolasi hukmronligi o’rnatildi.
- 1799- yil** – Napoleon Bonapart I konsul etib tayinlandi.
- 1804- yil** – Fransiya imperiyasi tashkil topdi.

- 1812- yil** – Fransiya va Rossiya o‘rtasida urushi boshlandi.
- 1814–1815- yilda** – Vena Kongressi. «Muqaddas Ittifoq»ning tuzilishi.
- 1819- yil** – Venesuela davlati tashkil topdi.
- 1821- yil** – Meksika mustaqilligi e’lon qilindi.
- 1822- yil** – Braziliya mustaqilligi e’lon qilindi.
- 1825- yil** – Rossiyada dekabristlar qo‘zg‘oloni bo‘lib o‘tdi.
- 1826- yil** – Argentina tashkil topdi.
- 1830- yil** – Urugvay tashkil topdi.
- 1830- yil** – Fransiya Jazoirni bosib oldi.
- 1838- yil** – Angliya – Afg‘oniston urushi boshlandi.
- 1847- yil** – Liberiya Respublikasi tashkil topdi.
- 1848- yil** – Eronda bobiyalar qo‘zg‘oloni ro‘y berdi.
- 1850- yil** – Xitoyda taypinlar qo‘zg‘oloni boshlandi.
- 1852- yil** – Fransiya ikkinchi marta imperiya deb e’lon qilindi.
- 1854- yil** – AQSH Yaponiyani chet elliklar uchun ochilishga majbur etdi.
- 1861- yil** – Rossiyada krepostnoylik huquqi bekor qilindi.
- 1861- yil** – Italiya qirolligi tashkil topdi.
- 1864- yil** – Taypinlar davlati qulatildi.
- 1867- yil** – Yaponiyada Meydzi inqilobi yuz berdi.

MUNDARIJA

Kirish: «Yangi tarix»ning boshlanishi.....	3
--	---

I bo‘lim

XVI–XVIII asrlarda Yevropa, Amerika va Osiyo davlatlari

I bob. Yevropa va Amerika davlatlari

1- §. Buyuk geografik kashfiyotlar va ularning tarixiy ahamiyati.....	7
2- §. Yevropaliklarning mustamlakalar uchun kurashi.....	11
3- §. Yangi davr boshlarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy hayot.....	15
4- §. Yevropada reformatsiya. Germaniyada dehqonlar urushi.....	19
5- §. Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi.....	22
6- §. Fransiyada mutlaq monarxiya.....	25
7- §. XVI–XVII asrlarda Rossiya.....	29
8- §. Niderlandiya inqilobi.....	32
9- §. Yevropada Uyg‘onish davri madaniyati.....	35
10- §. Ilm-fan taraqqiyoti.....	40
11- §. Angliyada burjua inqilobining boshlanishi.....	43
12- §. Angliyada fuqarolar urushi va uning oqibatlari.....	46
13- §. Angliyaning dunyoda birinchi sanoat mamlakatiga aylanishi.....	50
14- §. Amerika Qo‘shma Shtatlarining tashkil topishi.....	54
15- §. Buyuk fransuz burjua inqilobi va monarxiyaning tugatilishi.....	58
16- §. Buyuk fransuz burjua inqilobining yakunlari va tarixiy ahamiyati.....	62
17- §. XVI–XVIII asrlarda Germaniya imperiyasi.....	66
18- §. Rossiya imperiyasining tashkil topishi.....	69

II bob. XVI–XVIII asrlarda Osiyo mamlakatlari

19- §. XVI–XVIII asrlarda Hindiston.....	73
20- §. XVI–XVIII asrlarda Xitoy.....	77
21- §. XVI–XVIII asrlarda Yaponiya.....	80
22- §. XVI–XVIII asrlarda Usmonli turklar imperiyasi.....	84
23- §. XVI–XVIII asrlarda Eron.....	88

II bo'lim

XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Yevropa, Amerika, Osiyo va Afrika mamlakatlari

III bob. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda

Yevropa davlatlari

24- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Buyuk Britaniya.....	92
25- §. Fransiyada Birinchi imperiya va uning halokati.....	96
26- §. Fransiyada Ikkinchi imperiyaning o'rnatilishi.....	100
27- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Germaniya va Italiya.....	103
28- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Rossiya.....	106

IV bob. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda

Amerika mamlakatlari

29- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Amerika Qo'shma Shtatlari.....	111
30- §. Lotin Amerikasi xalqlarining milliy-ozodlik kurashi.....	114

V bob. XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda Osiyo va

Afrika mamlakatlari

31- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Hindiston.....	118
32- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Xitoy.....	122
33- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Yaponiya.....	126
34- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Usmonli turklar imperiyasi.....	129
35- §. XVI–XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Afg'oniston.....	133
36- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Eron.....	136
37- §. XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda Afrika xalqlari.....	139

VI bob. Ijtimoiy harakatlar

38- §. Yevropada XIX asrning 70- yillarigacha bo'lgan davrda ijtimoiy harakatlar.....	143
--	-----

VII bob. XVII–XIX asrlarning 60- yillarida

ilm-fan, adabiyot va san'at

39- §. Ilm-fan taraqqiyoti.....	146
40- §. Adabiyot va san'at.....	150
Muhim tarixiy sanalar.....	155

USMON TOSHPOLATOVICH JO'RAYEV,
RAHMON FARMONOVICH FARMONOV,
SHUHRAT ERGASHEVICH ERGASHEV

JAHON TARIXI

*Yangi tarixning birinchi davri
(XVI–XIX asrning 60- yillari)*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining VIII sinfi uchun darslik

Ikkinchi nashri

(O'zbek tilida)

Muharrir Azimboy Boboniyozov

Dizayner Uyg'un Solihov

Tex. muharrir Yelena Tolochko

Musahhah Gulchehra Azizova

Kompyuterda matn teruvchi Gulbayra Yeraliyeva

Bosishga ruxsat etildi 05.05.2010. Bichimi 60·90^{1/16}. Tayms garniturasi. Shartli b.t.10,0. Nashr b.t. 9,73. 453541 nusxada bosildi. Shartnoma № 34–2010. Buyurtma № 984.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent. Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasining bosmaxonasida chop etildi. 100083, Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Jo'rayev, Usmon Toshpo'latovich.

J96 Jahon tarixi. Yangi tarixning birinchi davri. (XVI–XIX asrning 60- yillari). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining VIII sinfi uchun darslik/ U.Jo'rayev, R. Farmonov, Sh. Ergashev; (Mas'ul muharrir E. Xoliqov. – T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. – 160 b.

BBK 63.3(0)51ya721

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval.

T.r.	O'quvchi-ning ismi, familiyasi.	O'quv yili.	Darslik-ning olingandagi holati.	Sinf rahbari-ning imzosi.	Darslik-ning topshiril-gandagi holati.	Sinf rahbarining imzosi.
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.

